

Q. ABDULLAYEVA, S. RAHMONBEKOVA

2- SINFDA O'QISH DARSLARI

O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
tasdiqlagan*

НУСХАЛАР

TOSHKENT „O'QITUVCHI“ 2004

Taqrizchilar:

- N. Ahmedova* — RTM boshlang'ich ta'lim sektori boshlig'i.
M. Azizova — Toshkent shahridagi 298- maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi.


A15

Abdullayeva Q., Rahmonbekova S.

2- sinfda o'qish darslari: O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma / Q. Abdullayeva, S. Rahmonbekova/ —T.: O'qituvchi, 2004. 128 b.

I. Muallifdosh.

BBK 74.268. IUzb.



W 30562
29,

A 4306010400 — 157 buyurtma varag'i — 2004
353(04) — 2004

ISBN 5-645-04270-0

© «O'qituvchi» nashriyot-matbaa
ijodiy uyi, 2004-y.



O'QISH DARSLARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Birinchi sinf o'quvchilari o'qishning bir necha turlarini, ya'ni, ravon, tez o'qishni, ayni paytda, turli janrdagi matnlarni o'qib, o'rganib olgan bo'ladilar. Ikkinchi sinf o'quvchilari bilan ana shu malakalarni takomillashtirishga qaratilgan ish tizimi olib boriladi.

Bolalarning o'qish tezligini oshirish, ifodali o'qish malakalarini egallash, badiiy matn ustida ishlash, she'r va kichik matnlarni yod olish, tushunganlarini gapirib berish kabi ish turlarini ko'proq o'tkazish ko'zda tutiladi.

O'qish kitobida („Bilim bog'i“), „Ona yurtim — oltin beshigim“, „Maktabim — kitobim — oftobim“, „Oltin kuz — hosiling yuz“, „Mehnat — baxt keltirar“, „Otalar so'zi — aqlning ko'zi“, „Kumush qish — misoli oqqush“, „Qushlar va hayvonlar — bizning do'stimiz“, „Ertaklar — yaxshilikka yetaklar“, „Yoz — o'tadi soz“ kabi bo'limlar mavjud.

Har bir bo'lim bolalarga ta'lim berish bilan birga, bilim, malaka hosil qilish, ularda voqea, hodisalarga qiziqish uyg'otish, rasmlarni kuzatish, xulosalar chiqarishga o'rgatadi.

Kitobdagi rasmlar bolalarning his va tuyg'ularini, nutqlarini o'stirishga hamda ularni ijodiy tahlil qilishga mo'ljallangan. O'quvchilar rasmlarni tomosha qilib, tasvirlangan narsa, voqea-hodisalarga o'z munosabatlarini bildiradilar, ulardan zavq oladilar, o'zlari ham ijodiy ravishda asar mazmuniga mos rasmlar ishlashga, o'z taassurotlarini ifodalashga o'rganadilar.

Darslikda berilgan har bir matn o'quvchilarning fikrlash doiralarini o'stirish bilan birga, ularda tevarak-atrofga munosabat, odob-axloq malakalarini o'zlarida mujasmlash, asardagi qahramonlarga taqlid qilish, ulardagi

eng yaxshi xislatlarni egallash, irodali, mehnatsevar, jasur, kamtar, vijdonli, mehribon va iltifotli bo'lish kabilarni o'zlashtirib borishga qaratilgan.

Shuningdek, o'qiganlarini mazmunli qilib gapirib berish, fikrni jamlash, uzviylikka e'tibor berishga alohida ahamiyat qilinadi. Shunday qilinganda matn mazmunini o'zlashtirish ancha oson bo'ladi. O'qituvchi bolalarni darslikka nisbatan qanday munosabatda bo'lishga, undan ijodiy foydalanishga, mundarijasiga qarab kerakli asarni tez topish, o'qishga kirishish uchun ruhan tayyorlanish va shu talablarni bajarishga o'rgatadi.

O'quvchilarning o'quv dasturi talablarini o'zlashtirishlari uchun sharoit yaratish, ularni darsda faol qatnashishga undash, o'zlashtirish sur'atlari va imkoniyatlariga qarab qo'shimcha vazifalar berish, darsning qiziqarli va samarali bo'lishi uchun mos vazifalardan unumli foydalanish, dars jarayonida bolalar jamoasi e'tiborini jalb qilgan holda muammoli vaziyatni yuzaga keltirish va uning yechimini topish, o'quvchilarning bilim, malakasini baholash, uyga beriladigan vazifalarni me'yorlash, ularning zo'riqishlarini oldini olish lozim.

O'qish darslariga quyidagi talablar qo'yiladi:

- ta'lim va tarbiya maqsadining birligi;
- ta'lim va tarbiya vazifalarining birligi;
- ta'lim va tarbiya manbalarining uzviy bog'liqligi;
- ta'lim va tarbiya metodlarining birligi.

Har bir dars pedagogik, psixologik, metodik tomondan to'g'ri tashkil etilishi, didaktik talablarga amal qilgan holda o'tkazilishi kerak. O'qituvchi darsda vaqtni to'g'ri taqsimlashi, undan unumli foydalanishi zarur. O'qish darsi o'zining mazmuni va mundarijasi jihatidan boshqa darslardan farq qilishi va ta'limda yetakchi ahamiyat kasb etishi kerak.

Darsni tashkil etishda bolalar e'tiborini qiziqarli misollarga jalb qilish, tasviriy san'at asarlarini maroq bilan tomosha qilishga qaratish, shu yo'sinda asosiy mavzuga o'tish lozim. O'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rishda, ko'rgazmali

qurollar tayyorlashda o'quvchilarning didini, nafasat tarbiyasini o'stiradigan materiallar tanlashi, uning o'zi esa darsga hamisha yaxshi kayfiyat bilan kirishi, o'quvchilarda ham yaxshi kayfiyat hosil qilishi kerak. Bunday sifatlar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun zaruriy odatga aylanishi lozim.

Darsda bolalarga to'la erkinlik berish, o'qituvchi bilan bolalar o'rtasida samimiy munosabat bo'lishi, ishonch va hurmat tobora ortib borishi kerak.

O'tilgan mavzuni so'rashda ham, yangi mavzuni o'rgatishda ham bolalarning xotirasini mustahkamlovchi omillardan foydalanish, sezgi a'zolarining ishtirokini kuchaytirish, ko'rish va eshitish faoliyatlarini rivojlantirish, ularning faolliklarini ta'kidlab, darsda yanada yaxshi qatnashishga undash lozim.

Sinf xonasini dars o'tishga tayyorlash, ko'rsatiladigan ko'rgazmalar, o'qib beriladigan har bir matn yoki magnit tasmaidan eshittiriladigan yozuvlarni taxt qilib qo'yish, o'quvchilarni esa mas'uliyatni his etish va o'quv qurollarini taxt qilishga o'rgatish darsning samarali o'tishiga imkon beradi.

Mavzuning oson yoki murakkabligiga qarab, dars jarayonida vaziyatni o'zgartirish, muammoli o'qitish usulini keng qo'llash, interfaol metodlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bunda bolalar tomonidan darsning qanday o'zlashtirilayotganini kuzatib, ularning idrok etish faoliyatlarini, hissiyotlarini faollashtirish kerak.

Shunday qilib, o'quvchilarni shaxs sifatida kamol topishlarini ta'minlovchi barcha vositalarni qo'llash orqali dars sifatining yaxshi bo'lishiga erishish mumkin.

O'QISH TURLARI VA ULARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI

Ovoz chiqarib o'qish. O'quvchi ovoz chiqarib o'qishi uchun avval uni ruhan tayyorlash lozim. Uning o'qishini atrofdagilar, o'rtoqlari, o'qituvchi yoki uyda ota-onasi,

aka-ukalari eshitayotganini his va idrok etishi lozim. Shundan so'ng u o'rtacha ovozda har bir tovush, bo'g'in, so'z va gaplarni to'g'ri talaffuz qilib o'qishi, gaplar orasidagi to'xtamlarga rioya qilishi, tinish belgilari uchraganda ovozni pasaytirish yoki to'xtash lozimligini bilish kabilarga o'quvchilar e'tibori qaratiladi.

Mazkur o'qish turi deyarli har darsda, uyda surunkali ravishda takrorlanishi va o'qituvchi, ota-ona tomonidan nazorat qilinishi lozim. Buning uchun matnni sidirg'a o'qitilavermay, balki tanlab o'qitish metodidan foydalanish yaxshi natija beradi.

O'quvchining ongli o'qish malakasini oshirish uchun matnlardan so'ng berilgan savol va topshiriqlarga ularning munosabatlarini aniqlash, matn mazmunini erkin ravishda so'zlab bera olish uquvini tarbiyalash lozim.

„O'qish kitobi“da berilgan „Sanog'idan adashmadi“, „Kuy sehri“, „O'quvchiga esdalik“, „Ish ishtaha ochar“, „Musavvir Qorbobo“, „Maqtanchoq ayiq“, „Dehqon-hobo“ kabi qator matnlarning mazmunini tushunib, ma'lum xulosa chiqarish uchun o'qituvchi bolalarga yo'llanma berishi, ularni faollashtirishi kerak.

O'qish darslariga qo'yilgan talablar bir-biriga bog'liq holda amalga oshiriladi. Bolalar ongli o'qishga o'rganmasalar ifodali o'qish unsurlarini yaxshi o'zlashtira olmaydilar. Yoki ravon, tushunarli o'qimasalar o'qish tezligini oshirish mumkin emas. Demak, o'qish turlari o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'liqligini o'qituvchi e'tiborga olishi, dars jarayonida ulardan navbat bilan foydalanishi, o'quvchilarni hamma turdagi o'qishga o'rgatishi, o'rtacha ovozda o'qishga odatlantirishi lozim. Shunday qilinganda bolalar sekin-asta hamma o'qish turlarini o'zlashtirishga muvaffaq bo'ladilar.

Ovoz chiqarib o'qish keng tarqalgan o'qish turidir. Bu o'qish turini qo'llash uchun avval o'qituvchi bolalarga:

— Hozir navbat bilan eshitarli qilib o'qiysiz. Shoshmay, xatosiz, jumalarni oxirigacha to'liq o'qing. Har bir

gapdan so'ng biroz tin oling, so'ng navbatdagi gapni o'qing. Hamma o'rtog'ining o'qishini eshitib, matnni xatcho'p bilan kuzatib tursin, — deb ta'kidlaydi.

So'ng o'quvchilar matnni navbat bilan o'qiydilar. O'qituvchi bolalarni kuzatadi. Kim diqqat bilan o'rtog'ini tinglamoqda. Kimdir e'tiborsiz o'tiribdi. Shunday paytda o'qituvchi bolalar e'tiborini matn mazmunini uqib olishga qaratib, so'raganda darrov javob berishga tayyor bo'lishlarini eslatadi.

Masalan, „Javdar non“ matni o'qilganda gap nima haqida borayotganini, bu voqea qaysi faslda bo'lgani, non nima uchun bunchalik shirin tuyulganini so'rab, o'quvchilar diqqatini matn mazmunini tushungan holda o'qishga qaratadi.

Bolalarni tutilib o'qishdan, tutilib so'zlashdan asrash, bunday paytlarda ularga:

— Shoshilma, chuqur nafas ol, so'ng o'qishni yoki so'zlashni davom ettir, — deb eslatish lozim. Bunda bola o'zida sodir bo'layotgan bu holatga befarq qaramay, o'zini nazorat qilishga o'rganadi.

Ovoz chiqarib o'qishni yakka-yakka o'qish, birgalashib o'qish bilan navbatlashtirish lozim.

Darslikdagi „Qorbobo“ ertagini qismlarga bo'lib o'qish, har bir bo'limga sarlavha topish, maqol, tez aytishlarni esa birgalashib takrorlab, yod olish topshirig'i beriladi.

Darsda o'qish turlarini navbatlashtirish bilan birga, o'qish tezligini oshirishga, diqqat bilan o'qishga o'rgatish lozim. Masalan, o'quvchilardan biri asarning bir-ikki jumlasini o'qiydi. Bu paytda boshqa bolalar matnga xatcho'p qo'yib kuzatib boradilar. Navbat kelishi bilan ular ham matndagi ikki-uch jumlaning o'qish qoidasiga muvofiq o'qiydilar. Shunday qilib, bir darsda 10—12 o'quvchiga o'qitiladi, ularning o'qish malakalari tekshirib boriladi. Ko'pchilik o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar, nuqsonlar: qo'shimchalarni tushirib o'qish, so'z urg'usiga e'tibor qilmaslik; ayrim o'quvchilar tomonidan yo'l

qo'yilgan xatolar: bo'g'inlab yoki harflab o'qish, matn mazmunini tushunmaslik hollarining oldini olish lozim.

O'qituvchi barcha bolalar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarni jamoa bo'lib, ba'zi bir xatolarga yo'l qo'ygan bolalar bilan yakkama-yakka ishlash usulini qo'llaydi.

Bolalarga ta'sirli qilib o'qish malakalarini singdirish uzoq muddatli ish. Bu o'qishning boshqa o'qish turlaridan farqi shuki, unda bolalar avvalo ravon, tutilmay o'qishni yaxshi o'rganib olgan bo'lishlari kerak. Har safar ularga:

— Sen ta'sirli o'qi! — deb ta'kidlash yaxshi natija bermaydi. Bunday paytlarda o'qituvchining o'zi namunali o'qishi, ovozini to'g'ri boshqarishi bilan birga, ta'sirli qilib o'qishi yaxshi natija beradi. Ayrim matn, she'riy parchalarni, ertak va masallarni magnit tasma-siga yozib, uni bot-bot o'quvchilarga eshittirib, birgalashib o'qish mashqlarini o'tkazsa, bolalar bir-birlariga ergashib, ifodali o'qishning dastlabki elementlarini egallab oladilar. Birgalashib o'qiganda nutqida ayrim kamchiligi bo'lgan o'quvchilar o'rtoqlari ta'sirida so'zlarni to'g'ri talaffuz etishga o'rganadilar. Birgalashib o'qishda tez aytish juda qo'l keladi. Chunki tez aytish matni qisqa, o'qish uchun osondir.

Masalan,

*„Qo'riqchi tariqni qo'riqladimi,
Tariqni qo'riqchi qo'riqladimi?“*

Yoki topishmoqlarni ham birgalashib aytish va yod olish maqsadga muvofiqdir.

*Yozda kiyinadi,
Qishda yechinadi.*

*Katta-kichik besh o'rtoq,
Uyushsa bo'lar to'qmoq.*

O'zi bitta, qo'li ikkita, tishi yuzta.

Maqollarni yodlashda ham birgalashib o'qish usulidan foydalanish mumkin.

Qolgan ishga qor yog'ar.

*Bir yil tut ekkan kishi
Yuz yil gavhar teradi.*

Yaxshiga yondosh, yomondan qoch.

Ichda o'qish malakalarini o'quvchilarga singdirish o'qish turlari ichida eng qiyini hisoblanadi. Bu o'qish turini tez-tez mashq qilish bilan o'quvchilarga o'rgatish mumkin. Ichda o'qish bolalar uchun juda zerikarli va ancha murakkabdir.

Bolalar 3—4 gapni ichda o'qishni davom ettirishga qiynaladilar. O'qituvchi bolalarda sodir bo'layotgan bu jarayonni kuzatishi va ish turini navbatlashtirib turishi kerak. Dam olish daqiqalarini o'z vaqtida o'tkazish bolalarni toliqishdan asraydi.

O'quvchilarda o'qish malakasi qancha erta shakllantirilsa, shuncha foydalidir. Chunki bu o'qish turi insonning hayot faoliyati uchun bir umr zarur bo'lib, hamma joyda o'qish uchun qulaydir.

Ichda o'qish matn yuzasidan olib boriladigan ko'pgina mustaqil ish usullariga, ayniqsa, tanlab o'qishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchi sinfda bolalar bir necha o'qish turlarini egallab olgan bo'ladilar. Tanlab o'qish uchun turli janrdagi asarlarni tavsiya etish mumkin. Masalan, asarda ishtirok etuvchilar tilidan o'qish yoki gapirish:

— Bolalar, kim qaysi asardagi qahramonlar tilidan o'qimoqchi?

Albatta, bolalar o'zlari yoqtirgan hayvon yoki hasharotlar tilidan o'qishni aytadilar. Shunda o'qituvchi:

— Mayli, faqat shu asarni avval diqqat bilan ovoz chiqarib o'qib chiqing. So'ng ichda o'qing. Keyin ular tilidan gapirib ko'ring. Agar o'xshatsangiz yaxshi baho olasiz, — deb o'quvchilarni rag'batlantiradi.

Masalan, „O'roq va Kombayn“ masali yoki „Ur, to'qmoq“ ertagi asosida o'quvchilar o'zlariga mos qah-

ramonlarni tanlab oladilar. Cholning soʻzlarini aytadigan bola odamlarga yaxshilik qilishni oʻylaydigan kishi tilidan muloyim, yoqimli; laylakvoy tilidan soʻzlash uchun titroq ovozda, yalinib gapirish; shuningdek, boyning ochkoʻzligini ifodalash uchun boshqa oʻquvchi hammaning nafratini uygʻotadigan tarzda oʻqishi yoki gapirishi lozimligi aytiladi.

Bolalar tanlagan qahramon va asarda ishtirok etuvchilar tilidan oʻqish orqali ravon oʻqishga tezda oʻrganib ketadilar.

Bunday asarlar darslikning hamma boʻlimlarida mavjud. Oʻquvchilar bunday asarni oʻqishda har bir obraz va personajning xatti-harakatlari, tashqi qiyofasi va ichki kechinmalarini ham ifodalashga harakat qiladilar. Bunday paytda magnit lentasiga yozib qoʻyilgan yoqimli kuy eshittiriladi. Bolalar kuy taʼsirida oʻqiydilar yoki gapiradilar. Bunday holat oʻquvchida koʻtarinki kayfiyat paydo qiladi, ularga ruh bagʻishlaydi.

Toʻgʻri oʻqish tushunarli qilib, xatosiz oʻqishdir. Maʼlumki, ayrim oʻquvchilar koʻpincha baʼzi harflarni tushirib, boʻgʻinlar, soʻzlarning oʻrnini almashtirib oʻqiydilar. Bunday xatolarga yoʻl qoʻymasliklari uchun qiynalib oʻqiydigan oʻquvchilarga katta hajmdagi matnlarni qismlarga boʻlib oʻqishni tavsiya qilish anchagina yengillik yaratadi.

Toʻgʻri oʻqishga oʻrgatish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish mumkin:

— dastlab 3—4 boʻgʻinli soʻzlarni ravon oʻqish, 5—6 boʻgʻinli soʻzlarni esa boʻgʻinlarga boʻlgan holda oʻqish;

— tanish matnlarni oʻqitishda oʻqish surʼati biroz oshiriladi. Shunday qilinganda bolalar notanish matnlarni ham tutilmay oʻqish malakasiga ega boʻladilar;

— toʻgʻri oʻqishni oʻzlashtirish uchun tovush, boʻgʻin va soʻzlarni toʻgʻri, aniq, sof talaffuz etish katta ahamiyat kasb etadi.

Masalan, talaffuzda **p**, yozuvda esa **b** yoziladigan soʻzlarni toʻgʻri oʻqishga oʻrgatish (*oftob, serob*); **r** tovu-

shini **l, y** deb (*bayroq — bayloq, o'rtiq — o'ytoq*) talaffuz etishlarining oldini olish uchun bunday so'zlar yozilgan ko'rgazmalar tayyorlash lozim.

Darslikdagi har bir asardan so'ng o'quvchilarning fikrlash faoliyatlarini oshiruvchi savollar, topshiriqlar berilgan. O'qituvchi albatta ularni o'quvchilarga o'qitishi va mustaqil ravishda javob berishga tayyorlashi kerak. Savol va topshiriqlar o'quvchilarni ziyraklikka, o'z-o'zini doimo nazorat qilishga o'rgatadi.

DTS talablari asosida ikkinchi sinf o'quvchilari o'quv yilining birinchi yarmida bir daqiqada 30—35 so'zni, o'quv yili oxirida esa 70—80 so'zni o'qiy olishlari kerak.

O'quvchilarning o'qish malakasini oshirish uchun quyidagilarga alohida e'tibor berish lozim:

— o'quvchilarda yaxshi o'qishga ishonch hissini hosil qilish;

— savol-javobli matnlarni ko'proq o'qitish, matnni tahlil qilishda ham har ikki o'quvchi qatnashishi;

— o'qishning ohangdorligini ta'minlash uchun har darsda namunali nutq yozilgan magnit tasmalaridan foydalanish;

— o'quvchilarning lug'at boyliklarini rivojlantirish uchun lug'at burchagi tashkil etib, har kuni 3—4 yangi so'zni o'rganishlariga imkoniyat yaratish.

O'qish tezligini oshirish ancha murakkab jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bola tez o'qiyman deb shoshiladi, natijada xatolarga yo'l qo'yadi. O'qituvchi o'quvchilarda yaxshi kayfiyat uyg'ota olishi, sinfda yaxshi muhit yaratishi, har bir bolada „To'g'ri va ravon o'qiy olaman“ degan ishonchni uyg'otishi lozim.

Ongli o'qish jarayonida o'qilayotgan matnni tushunib, asosiy maqsadni uqib, asardagi ayrim o'z va ko'chma ma'noli so'zlarni izohlash, bunday so'zlar ishtirokida gaplar tuzish, tuzilgan gaplarni mazmun tomondan jamlab, kichik hikoya hosil qilish, matnning tugallangan qismidagi asosiy fikrni topish mashqlarini tez-tez o'tkazish,

matndagi tabiat tasvirini, insonlarning yaxshi-yomon odatlarini misollar yordamida, asardagi voqealarga bog'lab gapirib berish maqsadga muvofiq. Qaysi ishlar yaxshi va ularga ergashish mumkin, qaysilari yomon, ulardan nafratlanish kerakligini izohlab berishni o'quvchilarga topshiriq tariqasida tavsiya etish mumkin.

Masalan, P. Mo'minning „Barcha bola do'st bo'lsa“ she'ri sizga nima uchun yoqdi? „Kuy sehri“ hikoyasidagi qizning gaplarini topib o'qing. U qanday qilib butun davlatni yovlardan asrab qoldi? „Karnaychi shoh“ hikoyasining mazmuni qaysi hikoya mazmuniga yaqin? „Mayib kitob“ hikoyasidagi eng qiziq joyni topib o'qing. Kitob sahifalarini kim yirtgan deb o'ylaysiz? „Shoir bilan shoh“ hikoyasi kim haqida? Alisher nima uchun buyuk shoir bo'lib yetishdi? Vaqtning qadrini bilish uchun nima qilish kerak? Savob ishlardan misollar keltiring. Siz qaysilarini qilasiz?

Bolalarda yaxshi odatlar, axloqiy fazilatlarni tarbiyalash uchun darslikda juda ko'p ibratli matnlar bor.

O'QISH DARSLARIDA NUTQ O'STIRISH

O'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish, ularning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish orqali o'qilayotgan matnning mazmunini o'zlashtirish imkoni yaratiladi.

Badiiy matnlarni tahlil qilish usuli orqali o'quvchilarning nutqini o'stirish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, so'zlashuv tili nutq o'stirishning dastlabki bosqichi hisoblanib, u asta-sekin takomillashib boradi. So'zlashuv tili esa o'qilgan matnlarni og'zaki hikoya qilishda namoyon bo'ladi. So'zlashuvga o'rganish barcha darslar jarayonida amalga oshadi, lekin o'qish darslari yetakchi ahamiyat kasb etishi kerak. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilaridagi ma'naviy kamolot ona tili orqali mujassamlashadi. Ona tili, shu jumladan, o'qish va nutq o'stirish ta'lim-tarbiya jarayonidagi eng muhim vositalardandir.

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini me'yorlashda, ularning mutanosibligini ta'minlashda, milliy tilning tabiati va o'ziga xos xususiyatini belgilashda, ifoda va talaffuz qonuniyatlarini aks ettirishda ohangdorlik, ya'ni qiroat bilan o'qishning amaliy ahamiyatini o'stirish, adabiy til me'yori va mezonlariga rioya qilish, o'qish metodlarini takomillashtirish yo'llarini izlash va eng qulaylarini amaliyotga tatbiq qilish zarur.

Adabiy til tushunchasi keng qamrovli, ko'p qirrali hodi-sadir. Adabiy til taraqqiyoti barqarorligini ta'minlashda bolalarning yoshlikdan nutq madaniyatlarini tarkib toptirish va tarbiyalash lozim.

Til qonunining ta'limga tatbiqi munosabati bilan bolalarni o'qishga o'rgatishdagi usullarni to'g'ri qo'llash (ko'rgazmalilik, tarqatib beriladigan topshiriqli qog'ozlar bilan ishlash yo'llarini bilish) usullari takomillashtiriladi.

O'quvchilarning bilish faoliyatlarining o'ziga xos taraqqiy etishini hisobga olish, ayniqsa, ularning ruhiy, fiziologik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan ishlarga yetarli ahamiyat qilish lozim. Ularga nisbatan e'tiborni kuchaytirish, mehri va hamisha shirinsuxan bo'lish zarur.

Bola shaxsi pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan juda nozik his-tuyg'ularga boy bo'lib, o'qituvchi ana shu tuyg'ularni ilg'ashi, bola ruhiyatini ko'tarishi, ta'lim jarayonida insonparvarlik tarbiyasiga alohida e'tibor berishi zarur.

Darslikda berilgan mavzular, matnlar ana shu jihatlarni rivojlantirishga qaratilgan.

Masalan, „Ruxsat so'rash odobi“, „Do'stlikning xosiyati“, „Kuy sehri“, „Do'st tutmoq haqida“ kabi matnlarni o'qish orqali bolalarda bir-birlariga mehr, muhabbat kabi yaxshi xislatlar paydo bo'ladi.

O'quv dasturining o'qish bo'limida bolalarning eshitish uquvlarini tarbiyalash, tez, sekin, qattiq, har xil ohangdagi gaplarni eshitib, idrok etish talab qilinadi. Talaffuzning sofligini ta'minlash dasturdan keng o'rin olgan. O'quvchilar nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etish ko'zda tutilgan.

Bolalarning o'z fikr-taassurotlarini ifodalashlari uchun savol-javobli nutqni egallashlariga ko'proq o'rin beriladi. His-tuyg'uli nutq, fikrni ta'sirli ifoda etish, o'qish paytidagi nutq, ertak aytib berishdagi ohang va nutq, hazil-mutoyibadagi nutq uyg'unlashishi, o'quvchilarga zavq-shavq bag'ishlashi lozim.

O'quvchini yakka holda gapirishga o'rgatish (monolog nutq)ga qaratilgan talablar: rasmlar vositasida so'zlashuv, ko'rgan, eshitganlarini tartib bilan ifoda etish. Nutq o'stirish bilan bolalarning tasavvur va tafakkur qilish faoliyatlari bog'liq holda uzviy rivojlantiriladi. Shuningdek, bolalarni o'qituvchi rahbarligida tayanch so'zlar yordamida o'z fikrlarini bayon qilish, shunday usullar bilan ular lug'atining ortib borishiga erishiladi. Bolalarni faollikka o'rgatish uchun ma'nodosh so'zlarni topish o'yinlarini tashkil etish, bunday so'zlarni nutqda o'rinli qo'llashni, gap tuzishda esa so'zlar orasidagi bog'lanishga mos turli o'xshatishlar topish kabi ishlar doimiy ravishda o'tkaziladi. Rasmlarga yoki tasviriy vositalarga qarab gap tuzishni, gapda so'zlarning tartibiga, ularning bir-biriga bog'lanishiga, so'zlar o'rnini almashtirib, gapni qayta tuzib o'qishda izchillikka rioya qilish mashqlarini o'tkazishga e'tibor beriladi.

Hikoya, ertaklar matnini so'zlab berishda qahramonlar ovozigina taqlid qila bilish; rasm va narsalarni taqqoslab tasvirlash, sayr, tomosha, o'yin, mehnat haqida hikoya qilish, misollar keltirish, matnda tasvirlangan voqealar haqida xulosalar chiqarish, badiiy matn ustida ishlashga o'rgatish, matnni qismlarga bo'lib, ular mazmuniga mos sarlavhalar topish, ijodiy rasmlar ishlash kabi jarayonlarda bolalar tafakkur qilishga o'rganadilar.

Bolalarda nutq madaniyatini tarbiyalash uchun og'zaki nutq namunalaridan foydalanish, ularga taqlid qilish, ko'proq yod olishga e'tibor berish mashqlarini o'tkazish tavsiya etiladi. Bolalarga hamisha o'z nutqiga e'tiborli bo'lish, o'rtoqlarining nutqiga odilona baho berish, masalan,

„tushunarli“, „yoqimli“, „yoqimsiz“ kabi iboralarni farqlash o'rgatiladi. Jumladan, yoqimli she'rlar o'qib berish, Alisher Navoiy she'rlarining nafis ekanligini bolalarga uqtirish uchun o'qituvchining o'zi tarixiy manbalarni chuqur o'rganishi, ulardagi boy merosni bilishi, kerakli o'rinlarda ulardan ijodiy ravishda foydalanishi lozim. Navoiy, Rumi, Sa'diy, Fuzuliy, Yusuf xos Hojib, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Mahtumquli, Avloniy kabilarning bolalarga mos asarlaridan namunalarni o'qib berish orqali boy madaniy merosimiz bilan bolalarni tanishtirish, milliy madaniyatimiz durdonalaridan xabardor qilish maqsadga muvofiqdir.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining yod olish qobiliyatlarini rivojlantirish borasida o'tmishdagi maktablar tarjibasi juda qo'l keladi. Qadimda maktablarda bolalar o'qiganlarini yod olish usullarini o'zlashtirib olganliklari uchun ularning xotiralari yaxshi bo'lganligi ma'lumdir. Shularni hisobga olib, o'quv dasturida yodlash uchun 12—14 ta she'r namunalari berildi. Ular ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga egadir. She'rni yoddan aytishda ifodalilikka, nutq odobiga rioya qilish, shoshilmay, yoqimli ovozda o'qish talab etiladi.

O'qituvchi nutqi. O'qituvchi nutqi bolalar uchun namunadir. Endilikda nutq odobi, nutqiy mahorat, notiqlik, notiqlik mahorati maktablar hayotidan keng o'rin olmog'i lozim. Ayniqsa, o'qituvchining nutqida ifodalilik yetarli bo'lsa, albatta bunday nutq bolalar nutqiga ham ta'sir etadi.

O'qituvchi o'z nutqining bolalarga qanday ta'sir etayotganini kuzatishi, tushunarli va qiziqarli bo'lganini hisobga olishi kerak. Agar bolalar darsda e'tiborsiz o'tirsalar, demak, o'qituvchi nutqining ta'sir kuchi sust. U o'z nutqini hamma bolalarga, goho ayrim bolalarning xulq-atvoriga qaratgan holda boshqarishi, qiziqarli misollar aytishi, o'quvchilar e'tiborini tortib, o'rinli imo-ishoralarni ishlatishi, qo'lni besabab harakatlantirmasligi, bir nuqtaga qarab emas, balki sinf jamoasining diqqatini tortgan holda gapirishi kerak.

O'qituvchi o'z nutqida murakkab, uzun jumlar yoki notanish, qiyin iboralarni muntazam qo'llayvermasligi lozim. O'qituvchining samimiy, mazmunli nutqi bolalarni o'ziga yaqinlashtiradi, darsga qiziqishlarini oshiradi.

O'qituvchining mahorati shundaki, u o'zining yoqimli nutqi bilan bir butun jamoaga ta'lim-tarbiya beribgina qolmay, balki ularni yuksaklikka intilishga chorlaydi.

„O'qish kitobi“ga kiritilgan: „Vatan“, „O'lka“, „El-yurt uchun kurashgan insonlar“, „Orzular“, „Aziz insonlar xotirasi“, „Baxtli bo'lish osonmas“ matnlari o'quvchilarda Vatanga, insonlarga, tabiatga cheksiz mehr-muhabbat uyg'otadi.

Tajribalardan ma'lumki, o'qituvchining nutqi o'quvchilarni o'ziga ergashtirib, ularda ham yoqimli nutq madaniyatini tarbiyalaydi.

O'qituvchi nutqidagi ohang ta'lim-tarbiyada muhim ahamiyat kasb etib, unda misiqiylik, yoqimlilik, pauza (to'xtam), temp (sur'at) kabi komponentlar borki, bularning har biri bola faoliyatida o'ziga xos rol o'ynaydi.

O'qish darslarida ko'pincha obrazli nutq asosidagi suhbat, savol-javob kabi usullardan foydalaniladi. Tilimizning lug'at boyligi tarkibida yorqin, ifodali nutqni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan hamma vositalar mavjud. So'zlarni ko'chma ma'noda ishlatish imkoniyati va buning natijasida so'zlarning ko'p ma'no kasb etishi lug'atimizning yanada boyishiga imkon beradi.

Bola nutqining taraqqiyotini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan tajribalar dastlab so'zlarning vujudga kelishi va shu asosda dastlabki umumiy tushunchalarning paydo bo'lib, shakllanishini ko'rsatadi.

O'qish darslarida xilma-xil usullarni qo'llash bola uchun qiziqarlidir.

Jumladan, ovozni saqlay bilish. O'qituvchi bu ishga jiddiy e'tibor berishi, bunda o'zi namuma bo'lishi zarur. Ovoz pardalarini asrash o'quvchi sog'lig'i uchun nihoyatda zarur. Qo'shiq, she'r, tez aytish kabi o'yin-mashg'ulotlarda nutq a'zolarining gigiyenik qoidalariga amal qilishni odat tusiga kiritish lozim.

Nafas gimnastikasini o'tkazish uchun mutaxassis ko'rsatmalariga amal qilish lozim.

Bolalarning nutqini o'stirishda ikki asosiy talabni hisobga olish lozim: *og'zaki nutqdagi* izchillik, fikrlash, ifodalilik, pauza (to'xtam), temp (sur'at). Yozma nutqda og'zaki nutq asosida hosil bo'lgan bilim-malaka va tushunchalarning uzviyligini ta'minlash.

Og'zaki nutqda so'zlovchining o'ziga xos talaffuzi — aksenti bo'lib, bunda so'zlayotgan paytdagi his-hayajon to'la saqlanadi.

Masalan, „Kuyni sevgan gullar haqida ertak“ni o'qishda o'qituvchi bolalar diqqatini qizchanning lola ochilishini kutgan daqiqalariga qaratib, shunday deydi:

— Kechir meni, lolaxon, seni zo'rlab ochmoqchi bo'ldim.

Keyin qiz yoqimli kuy chala boshladi.


— Endi hikoyani o'zingiz o'qib chiqing, lola ochildimi, yo'qmi, bilib olasiz! — deb ularni hikoyani o'qishga jalb qiladi. „Kuychi terak“ ertagini so'zlab berayotganda o'qituvchining nutqi shunchalik ta'sirchan kuchga ega bo'lishi kerakki, kampirning mehr bilan asrab, avaylab o'stirgan teragi xuddi uning farzandidek ardoqli ekanini bolalar hus etsin. Buning uchun u hazin ovozda:

— Teragimni olib ketmanglar, u mening ovunchog'im, farzandimdek bo'lib qolgan edi, — degan so'zlarni o'qiydi.

Bolalar navkarlar tomonidan sodir qilingan voqeani eshitib, kampirning qayg'usini his etsinlar, hamdard bo'lsinlar, hikoyani o'qib, adolat uchun kurashga, kampirga yordam berishga hamma birday shaylanishgacha borib yetsin.

O'qituvchi nutqidan ruhiy ozuqa olgan bolalar matn mazmunini og'zaki so'zlash jarayonida u ishlatgan so'zlarni qo'llashga harakat qiladilar.

Bolalar o'z nutqlarini sodda shaklda emas, balki o'quv dasturi va ta'lim davlat standarti talabiga ko'ra jozibali qilib tuzsinlar.



Masalan, „Kuz keldi“ gapini „Oltin kuz keldi“, „Qish fasli boshlandi“ gapini „Go‘zal qish fasli yetib keldi“, „Qor yog‘di“ gapini „Oppoq, momiq qor yog‘di“ deb tuzsalar, o‘z gaplaridan o‘zlari zavq olib, ijodiy fikrlashga o‘rganadilar.

Nutq o‘stirish ishlari (ham og‘zaki, ham yozma) bolalarni bayon, insho yozishga tayyorlaydi. Og‘zaki va yozma nutqda fikrni erkin bayon etish uchun bolalar ma‘lum so‘z boyligiga ega bo‘lishlari va bu so‘zlarni to‘g‘ri yoza bilishlari kerak. Tabiiyot, matematika, tasviriy san‘at darslarida esa hosil qilingan bilim va malakalarni (jumladan, so‘z, tasviriy ifodalar va raqamlarni) o‘rinli ishlatish, o‘zlari ijodiy ravishda matn mazmuniga mos rasmlar chizish, sayr va sayohatlarda olgan taassurotlarini avval og‘zaki, so‘ng yozma ravishda ifodalay olishga o‘rgatiladi.

Davlat ta‘lim standarti talablariga ko‘ra o‘quvchilar erkin fikrlashga o‘rganishlari lozim. Fikrlash esa bolada darrov hosil bo‘lmaydigan jarayon bo‘lib, uni yuzaga chiqarish uchun rejali ish olib borish lozim.

Fikrni rejali ifodalash nutq o‘stirish ishlarida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Reja tuzishni o‘quvchilar birinchi sinfdanoq mashq qilganlari uchun ma‘lum ko‘nikmaga ega ekanliklarini hisobga olib, ikkinchi sinfda bu ishni tez-tez takrorlash maqsadga muvofiqdir.

Mazkur sinfda ham reja tuzish ishlariga o‘qituvchi rahbarlik qilishi va o‘quvchilarda mas‘uliyatni sezish hissini yuzaga keltirishi kerak. Reja darak, so‘roq, ba‘zan atov gap shaklida ham tuziladi. Reja asosida bayon qilingan matn tahlili o‘quvchilarga tushunarli bo‘ladi.

Matnni qismlarga bo‘lish va unga sarlavha o‘ylab topish ham o‘quvchilarning nutqini o‘stirishga yordam beradi.

Reja tuzish ishlari bir necha turda bo‘lishi mumkin. Masalan, asar (hajmi katta bo‘lsa) bir necha tugallangan qismlarga bo‘lib olinadi. So‘ngra har qaysi qismdagi voqea-hodisalar avval og‘zaki tasvirlanadi. Lozim topilsa, ular asosida rasmlar chiziladi. Keyin rasmlarga mos sarlavhalar qo‘yiladi va sarlavhalardan reja sifatida foydalanish o‘quvchilarga eslatiladi.

Ikkinchi sinfda yozma ishning barcha turlaridan foydalanish ko'zda tutiladi. Bu o'quv va ta'lim davlat standartlarining talabi bo'lib, ko'pincha u interfaol usulda tashkil etiladi. Interfaol metod nima? Bola egallayotgan bilimni har tomonlama himoya qila olish uquviga ega bo'lishi, uni asoslash uchun tayyor turishga o'rgatishdir.

Ikkinchi sinfda sodda shakldagi matnlar asosida bayon yozish mashq qilinadi. Insho esa faqat rejadagi so'roqlar yoki yo'llovchi gaplar, tayanch so'zlar yordamida yozdiriladi.

Bayon matnlarida ham, insho uchun tanlanadigan mavzuda ham mazmum lo'nda, murakkab ifodalardan holi, shu bilan birga, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi kerak.

Bayon, insho yozishda rasmi ko'rgazmalardan, magnit tasmasiga avvaldan yozib qo'yilgan bayon matnlari, savollar, insho uchun tuzilgan rejadan foydalanish ham yaxshi samara beradi.

Dastlab, bolalarga o'qish va mehnat faoliyatlari, so'ng hayvon va qushlar, o'simliklar, mavsumiy o'zgarishlar haqida insho yozdirish maqsadga muvofiqdir.

Voqea-hodisalarni diafilm orqali ko'rib, so'ng eslab qolganlari asosida insho yozish bolalarga qiziqarli va tushunarli bo'ladi.

„Zumrad va Qimmat“, „Egri va To'g'ri“ diafilmlaridagi voqealarni bayon etish bolalarga unchalik qiyin emas. Bu diafilmga doir fikrlarni avval og'zaki, so'ng yozma ifoda ettirish yaxshi natija beradi.

Rasmlar asosida insho yozdirish usulini keng qo'llash lozim. Bu ish jamoa bilan bajarishga mo'ljallanadi. Shuningdek, o'quvchilar bilan yakkama-yakka ishlash tartibida o'tkaziladi.

Rasmlar asosida insho yozish quyidagicha amalga oshiriladi. Bolalar rasmlarni bir-ikki daqiqa tomosha qiladilar. So'ng o'qituvchi bolalarga savol beradi:

— Bolalar, rasmda nimalarni ko'ryapsiz?

Bolalar: — Tovuq, xo'rozlarni, jo'ja, kurka, o'rdaklarni ko'rdik, — deb javob beradilar.

— Ularni kimlar parvarishlayapti?

Bolalar: — O'quvchilar parvarishlayapti.

Rasmlar asosida avval og'zaki hikoya tuzdiriladi, so'ng insho yozdiriladi.

Bolalar bilan inshoga tayyorgarlik vaqtida *tovuq, xo'roz, jo'ja, kurka, g'oz, o'rdak* so'zlarining qanday yozilishi mashq qilinadi. Buning boisi ba'zi o'quvchilar „*tovuq*“ni *tovu*, „*o'rdak*“ni *o'rday* deb talaffuz etadilar. Agar ular bilan mashq o'tkazilsa, insho yozish vaqtida bunday xatolarga yo'l qo'ymaydilar.

Qishda bolalar qushlar hayotini kuzatishni sevadilar. Shuning uchun bu mavzuda insho yozdirish maqsadga muvofiqdir. „O'qish kitobi“dagi „Qushlar, hayvonlar — bizning do'stimiz“ bo'limidagi matnlarni o'qiyotganda o'quvchilarga hakka, musicha, qarg'a, zog'cha, zag'iz-g'on, kaptar kabi qushlarning o'lkamizda qishlab qolishi, sovuq qish kunlari ularga don sochib turish zarurligi uqdiriladi. Shuningdek, bahor kelishi bilan o'lkamizga qaldirg'och, bulbul, zarg'aldoq, sa'va kabi qushlar uchib kelishi, ular dala, bog'larimizda yoqimli sayrashi, qurt-qumursqalarni yeb, bizga foyda keltirishi haqida ma'lumot beriladi.

„Qushlar — bizning do'stimiz“ mavzusida odatdagidek, avval og'zaki hikoya tuzdiriladi, so'ng yozma insho o'tkaziladi. Bolalar birgalashib, jamoa bo'lib insho rejasini tuzadilar. Reja tuzishda dastlab o'quvchilarning nimalar haqida yozmoqchi ekanliklari aniqlanadi. O'qituvchi javoblarni to'ldirib, rejani taxminan qanday tuzish kerakligini aytadi.

Reja

1. *Sovuq kunlar boshlandi.*
2. *Qor yog'di.*
3. *Suv muzladi.*
4. *Qushlar don axtarib qolishdi.*
5. *Biz ularga don sochdik.*

Insho yozishda bolalarni ijodiy izlanishga undash, o'z kuzatuvlari asosida tasviriy vositalardan foydalanib gaplar tuzishga o'rgatish foydalidir.

Bolalar nutqini rivojlantirishda xalq og'zaki ijodining ahamiyati katta. Shuning uchun „O'qish kitobi“da „Ertaklar — yaxshilikka yetaklar“ bo'limi berilgan. Unga kiritilgan ertaklar bolalarni odob-axloqqa o'rgatishi, ma'naviy jihatdan rivojlantirishi bilan muhim ahamiyatga egadir. Masalan, „Ur, to'qmoq!“ ertagidagi dehqon va boy obrazlari o'quvchilar ongida yaxshi va yomonni farqlashga, yaxshiga ergashish, taqlid qilish, yomondan nafratlanish, undan yiroqlashish kerakligi haqida tasavvur hosil qiladi. Maqtanchoqlik, aldamchilik, ochko'zlik juda yomon odat ekanligi, saxiylik, do'stiga mehribon bo'lish, rostgo'ylik insonning ma'naviy yuksalishiga yordam berishi uqdiriladi. Bolalarga ikkita jadval tuzishga tayyorlanishlari aytiladi. Biriga yaxshilikka doir so'zlar, ikkinchisiga esa uning aksi bo'lgan so'zlar yozish ta'kidlanadi. O'quvchilar ikki guruhga ajratilib, birinchi guruhdagi bolalar *mehribon, saxiy, shirinso'z, yoqimli, go'zal, chiroyli, mehnatkash, e'tiborli, kamtar, aqlli, bilag'on* kabi so'zlar topsalar, ikkinchi guruh bolalar *yomon, xunuk, qo'pol, yolg'onchi, ayyor, to'polonchi, tartibsiz, xasis, qizg'anchiq* kabi so'zlarni aytadilar.

Nutq o'stirish ishlarini iqtisodiy tarbiya bilan bog'lab olib borish foydalidir. Bunda *oila, uy-ro'zg'or, inoqlik, hamjihatlik, hamkorlik, tejamkorlik, foyda, zarar, dastyorlik, hurmat* kabi so'zlardan foydalaniladi.

O'quvchilar nutqini o'stirish ishlari ularning lug'atini boyitish bilan bog'liqdir. Bolaning so'z boyligi qanchalik ko'p bo'lsa, u shunchalik ravon gapiradigan bo'ladi. Shuning uchun 2- sinfda har bir darsda bola 3—4 ta yangi so'z o'rganishi foydalidir. Sinfda alohida lug'at burchagi tashkil etilib, bolalar shu so'zlarni o'zlashtirib olib, o'z nutqlarida ishlatishga o'rganishlari lozim.

Lug'at burchagida mavzuga doir so'zlar tanlab, yozib qo'yiladi. Masalan, „Otalar so'zi — aqlning ko'zi“ bo'-

limidagi matnlarni o'zlashtirish uchun *aql, nasihat, ibrat, namuna, izzat-hurmat, foydali, zararli, tenglik, inoq, ittifoq* kabi so'zlar yoziladi.

2- sinf o'quvchilari alohida lug'at daftari yuritib, unga o'zlashtirilishi lozim bo'lgan so'zlarni yozib boradilar. O'qituvchi o'quvchilarning lug'at daftarlarini vaqt-vaqti bilan tekshirib, tegishli maslahatlar beradi.

O'QISH DARSLARIDA TARBIYA

Milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning azaliy an'analariga, tiliga, diliga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr, oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirishi lozim.

I. A. Karimov

Istiqlol sharofati bilan jamiyatimizda katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Jumladan, ilm-fan sohasida islohotlar amalga oshirilib, maktablarda o'quv-tarbiya ishlari qayta qurilmoqda. Ularni jadallashtirish chora-tadbirlari ko'rilmoqda.

Savodxonlikni oshirish, inson shaxsini kamolotga boshlovchi ma'rifatni rivojlantirish avj oldirilmoqda.

Prezidentimiz I. A. Karimov maktab o'quvchilarini milliy kamolot yo'liga boshlashni muhim vazifa qilib belgiladi. Uning „Ta'lim O'zbekiston xalqi ma'naviyatiga yaratuvchanlik faolligini baxsh etadi“ degan so'zlari ko'p narsalarga yangicha yondoshishni talab etadi.

Ma'naviy tarbiya. Ayniqsa, kichik yoshdagi bolalarning ongiga Vatan tushunchasini singdirish, ularning dunyoqarashini to'g'ri shakllantirish, yoshlikdan elim deb, yurtim deb yashashga o'rgatish, e'tiqodli, g'ururli bo'lib o'sishlariga undash davr talabidir.

Bolalarni qadimiy urf-odatlar, tarixiy-milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularning dunyoqarashlarini shakllantirish, insonlarga xos eng yaxshi xislatlarni singdirish kabi g'oyalar, asosan, ular o'qiydigan asarlarda jamuljam bo'lmog'i lozim.

Darhaqiqat, ta'lim va tarbiya birligini ta'minlash, bolalarni emin-erkin faoliyat ko'rsatishga undash orqali samarali natijalarga erishish mumkin.

Ta'limning maqsadi o'quvchilarga jahon andazalariga mos bilim va malakalarni singdirishdan iborat bo'lsa, tarbiyaning maqsadi bolalarni hayot bilan tanishtirish (mehnat tufayli odamning baxt-saodatga erishishini, dangasalik, tanballik yomon oqibatlarga olib kelishini tushuntirish)dan iboratdir.

Darslikda berilgan deyarli barcha asarlar o'quvchilarni ana shu ruhda tarbiyalashga yordam beradi.

Har bir asardan so'ng berilgan savollar, topshiriqlar, maqol va hikmatli so'zlar bolalar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning ma'nosini uqib, kundalik ishlari, hayot faoliyatlarida qo'llashga, ularga rioya qilib ish yuritishga yordam beradi.

„Ona yurtim — oltin beshigim“, „Maktabim — qutlug' makonim, kitobim — oftobim“, „Kuz — hosiling yuz“, „Otalar so'zi — aqlning ko'zi“, „Ertaklar — yaxshilikka yetaklar“ bo'limlarida berilgan asarlar bolalarda insoniy fazilatlarini tarkib toptirib, soflik va ezgulikka chorlaydi.

O'quvchilarni pand-nasihati bilan tarbiyalab bo'lmaydi, balki amaliy mashqlar, kundalik turmush tarzi misolida ibratli ishlarga taqlid etishga undash maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, „Javdar non“ hikoyasini o'tishda bolalarga don yetishtirishning mashaqqatli mehnati, nonning aziz va mo'tabarligi, uning ushug'ini ham uvul qilmaslik tushuntiriladi.

Dilmurodga non nima uchun shunchalik shirin tuyuldi? degan savolga bolalar to'g'ri javob berishlari uchun ularga to'g'ri tushuncha beriladi, ya'ni u tinimsiz harakat qildi: buvisiga o'tin tashib, tandirni qizitishda yordam berdi, buvisi xursand bo'ldi. Kimki mehnat qilsa, yegan taomi totli bo'ladi, deb suhbatga yakun yasaladi.

Maktabda tarbiya surunkali, izchil olib boriladigan jarayondir. Darsda qaysi asar o'qitilmasin, o'quvchilar diqqati ko'proq uning tarbiyaviy tomoniga qaratilishi lozim.

O'quvchilarning xulqini shakllantirish va irodasini tarbiyalashda har bir narsa haqida keltiriladigan misollar ularga ta'sir etishi, ularni hayajonlantirishi, quvontirishi lozim.

O'qish darslarining muhim jihatlaridan biri bolalarni yuksak e'tiqodli, ma'naviy yetuk, mas'uliyatni his eta biladigan qilib tarbiyalashdan iboratdir.

Bu fazilatlarni yosh avlodga singdirishda o'qituvchining mahorati, ijodiy faoliyati muhim ahamiyatga molikdir. Ularda, avvalo, do'stlik, o'rtoqlik, doimo xayrli ishlarni amalga oshirishga intilish hissini uyg'otish bolalarning to'laqonli kamol topishlariga imkon beradi.

O'QISH DARSLARIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarni o'rta ta'lim bosqichiga tayyorlash bilan birga, ularda o'qish, o'rganish, tashabbus ko'rsatish, mustaqil faoliyatni egallash kabi sifatlarni rivojlantirish kundalik vazifalarimizdan biridir. Bu ishda yangi pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish zarur.

Texnologiya nima? Texnologiya tuzilma, didaktik maqsad, vazifalarni belgilab olishdan boshlanib, ta'lim jarayonini bir butun yaxlitlikka yo'nalishini nazarda tutadi.

O'qish darslarida joriy etiladigan texnologiya fanlar orasidagi bog'liqlikni ta'minlash, ortiqcha qiyinchiliklarni bartaraf etish, ona tili, atrofimizdagi olam, matematika, ashula, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya kabi fanlarni integratsiyalashga qaratiladi.

Yangi pedagogik texnologiya, avvalo, shaxs tarbiyasiga qaratilgan bo'lib, uning ma'naviy, ma'rifiy tomondan to'laqonli rivojlanishini ta'minlashi zarur.

Barcha yaxshi ishlar milliy an'analar, urf-odatlar ruhida amalga oshishi kerak. Bolani ezgulikka yetaklash o'qituvchining pedagogik mahoratiga ko'p jihatdan bog'liq. Buyuk alloma, inson ruhiyatining muhandisi Ibn Sino o'zining „Tib qonunlari“ asarida shunday fikrni bayon qilgan:

„Tarbiyachining barcha xatti-harakatlari ezgulikdan iborat bo‘lmog‘i lozim. Ezgulik bola ruhiyatiga ta‘sir etib, u yoshlikdan faqat yaxshi ishlar ijodkori bo‘lib qoladi“.

Buning uchun o‘qituvchi yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga kirishishdan oldin uni loyihalab olishi kerak.

Maqsad, vazifalarni rejalab, so‘ng dars mavzusi asosida interfaol usullardan birini qo‘llashi, keyingi darslarda esa ularni takomillashtirishi, o‘quvchilarda bu vazifalarni bajarishga ko‘nikma hosil qilishi kerak.

Test savollari tizimini avvaldan tuzish, uni maqsadga qarab o‘quvchilar tomonidan bajarilishini tashkil etishga qaratilishi zarur.

Atrof-muhit bilan tanishtirish o‘qish darslari bilan uzviy bog‘lanadi. Sayr-sayohatlarga borish va ko‘rganlarini o‘qish darslarida gapirib berish, esda qolganlarini yozish, rasmda ifodalash o‘quvchi uchun eng qiziqarli ishlardan biri bo‘lib, unga har doim yangi-yangi shakl berish lozim.

Bolani zukkolikka, topqirlikka, hozirjavoblikka tayyorlash bu yangi pedagogik texnologiyaning bir ko‘rinishidir.

Raqobat qilish texnologiyasi. Kichik yoshdan boshlab bola o‘z-o‘zini boshqara bilishga, intilib, maqsadga yetish yo‘llarini izlashga o‘rgatadi.

Faraz qila bilishga o‘rgatish. Bu usul bolaning tafakkur faoliyatini tez sur‘atlar bilan rivojlanishini ta‘minlaydi.

Kompyuter savodxonligi

Ma‘lumki, davr barcha sohada jadallashtirishni talab qilmoqda. Fan-texnika tez sur‘atlar bilan rivojlanmoqda. Kishilar mehnati tobora yengillashmoqda. Radio, televideniye, matbuot insonlarga ruhiy ozuqa, ma‘naviy boylik baxsh etmoqda. Bular yosh avlod kamolotiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bolalar har sohada qiziq narsalarga duch kelmoqdalar. Ularning kelib chiqish sabablarini, natijalarini anglamoqdalar. Kompyuter tirmushimizga kirib keldi. Undan saboq olish juda qiziqarli kechmoqda.

Kompyuter bilan ishlashga o'rgangan har bir o'quvchining vaqti tejaladi. Oz vaqt ichida ko'p bilimlarni o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladi.

O'quv dasturida bolalarni o'z vataniga sodiq qilib tarbiyalashga qaratilgan bilimlarni o'zlashtirishga doir bo'lim mavjud.

Vatanparvarlik tarbiyasi o'qish darslaridan salmoqli o'rin olishi lozim. O'qish darslarida bolalarning o'zlari o'sib-ulg'ayayotgan joylari aziz vatan ekanligini, bu yerda turli millat vakillari do'st-inoq yashashi, ularning tillari boshqa-boshqa bo'lsa ham, maqsadlari yagona ekanligi, mehnat qilib, baxt-saodatga erishish asl maqsad ekanligi tushuntiriladi.

O'zbek xalqining eng yaxshi an'analari, urf-odatlari va udumlarini misollar orqali yoritishda, masalan, mehnat-sevarlikka bag'ishlangan mavzularni o'tishda „Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar“, „Bo'linganni bo'ri yer“ maqollarini va shunga mos holatlarni qiziqarli misollar yordamida bayon etish dars samaradorligini oshiradi.

„Hashar“ so'zi va uning lug'aviy ma'nosi, tarbiyaviy ahamiyatini ochish, ota-bobolarimiz qadimda hasharga qatnashish va savob ish qilish har bir insonning burchi ekanligini aytganliklarini, shuning uchun har bir bola qo'ni-qo'shni, qarindoshlarning biror yumushlari bo'lsa, darrov hashar yo'li bilan ularga ko'maklashishi lozimligi uqdiriladi.

Bolalarning yoshlikdan mehnatga ixlos qo'yishlari, sabotli, irodali va qat'iyatli bo'lishlariga alohida ahamiyat beriladi. Ko'pchilikning mehnati bilan o'lkamiz kundan kunga go'zallashayotgani, turar joylar, ma'muriy binolar, zamonaviy mehmonxonalar qurilgani, mamlakatimiz obod bo'layotganligini ta'kidlagan holda, har bir bola tabiatning ekologik holatini yaxshilashga o'z hissasini qo'shishi zarurligi tushuntiriladi. Masalan, atrofda uyum-uyum bo'lib yotgan axlatlar, ko'kalamzorlarni payhon qilib to'p tepib yurgan bolalar yoki ekinzorlarga sigir, qo'ylarni qo'yib yuborish hollari, bular hayotimizning farovonligini buzish ekanligini

ta'sirli qilib gapirib berish, har bir bolaning bunday xatolarga yo'l qo'ymasligini ta'kidlash lozim.

Har bir xonadonda gulzor bo'lishi, ko'p qavatli uylarda ham tuvaklarda gullar o'stirilishi, ozoda bo'lish shiorga, chaqiriqqa aylanishi, bu ishda bolalarning faol ishtirok etishlari uqdiriladi.

Tabiat va undagi narsalar bolalarni juda qiziqtiradi. Bu hol bolalarning aql-idroki, farosatidan darak beradi. Nozirgi kunda suv va bolalar mavzusi juda dolzarb bo'lib, uni kichik yoshdagi bolalarga uqdirish juda muhimdir. Tabiat va uning bebaho ne'mati bo'lgan suvning el-yurtimiz, bog'-rog'larimizning yashnatishdagi ahamiyatini ongli ravishda anglashga o'rgatish lozim. Suv — obi hayot, tirikchiligimiz mabayi, uni tejash barchaning vazifasi ekanligini tushuntirish zarur.

Xalq naqlarida:

*Toma-toma ko'l bo'lur,
Tommay qolsa, cho'l bo'lur —*

deyilganining ma'nosini hayotiy misollar bilan bolalarga anglatish, tomchi suv bir o'simlikni qurib qolishdan asrashi, e'tiborsizlik oqibatida bekorga oqib yotgan jo'mraklarni burab qo'yish, tejalgan suvlar necha yillar o'simlik, daraxtlarning o'sishini ta'minlashi mumkinligini, bu ishda, ayniqsa, bolalarning kattalarga yordami muhim ekanligini tushuntirish vazifamizdir.

O'quvchilarga o'tmish haqida hikoyalar aytish oddiy pand-nasihatlardan afzaldir. Bobo, buvilar aytgan quyidagi durdona so'zlar bolalarga ijobiy ta'sir etadi: „Suvga aslo tupurmang, gunoh bo'ladi. Oqar suvga iflos narsalar tashlamang, bu ham katta gunoh. Undan odamlar ichadilar“. Donolar aytishgan:

*Suvsiz hayot bo'lmas,
Mehnatsiz rohat.*

Bahor keldi. Ariq, zovur va kanallarni tozalash kerak. Hademay tog'dagi qorlar erib, ariqlarga suv keladi. Tozalab qo'yilgan ariqlarda suvlar shildirab oqsa, qanday yaxshi.

„Suv va bolalar“ mavzusi juda keng. Ana shu mavzuda bolalarga saboq berayotganda shoir Qudrat Hikmatning „Suv“ sheʼrini oʻqitish va yod oldirish foydali:

*Togʻdan kelar mildirab,
Ariqlardan shildirab,
Muzdek tiniq zilol suv.
Shaldir-shuldir oʻynab u —
Qaysi yerdan oqsa ham
Gurkirab yashnar oʻlkam.*

Suv haqida topishmoqlar aytish, uni rasmlarda ifodalash ham bolalarga alohida zavq-shavq bagʻishlaydi. Masalan, „Ketaveradi, ketaveradi, orqasiga qaramaydi“. Bolalar, albatta, bu topishmoqning javobi suv ekanligini oʻylab topadilar.

Oʻquvchilar kitobdagi matnlarni oʻqiganlaridan soʻng, ularga tabiat hodisalari haqida qator savollar bilan murojaat etiladi:

Nega bahorda koʻp yomgʻir yogʻadi? Nega yer qimirlaydi? Nima uchun boʻron boʻladi? Nima uchun chaqmoq chaqadi? kabi.

Oʻqituvchi bu savollarga aniq javob olish uchun bolalar bilan suhbatlashishi, tabiatdagi bu hodisalarni ular koʻz oʻngida gavdalantirish uchun texnik vositalarga murojaat qilishi, kinofilmlardan parchalar koʻrsatishi, filmdagi ayrim holatlarni tahlil qilib, sinash uchun bolalar eʼtiborini jalb etishi, kichik laboratoriya ishlarini oʻtkazishi lozim.

Masalan, rango-rang kamalakning qanday paydo boʻlishini, atrofga suv sachratayotgan favvora yonida erta tongda va kechki paytlarda tuman tushishi sabablarini aniq misollar bilan gapirib berishi lozim.

Bolalar diqqatini qiziqarli mashgʻulotlarga jalb etish yoki sayrga olib chiqish tabiat hodisalarini anglashda muhim ahamiyatga ega.

Bir safar oʻqituvchi imkonini topib yaqin oradagi elektrostansiyaga sayohatga olib borsa, bolalarni bu inshoot bilan tanishtiradi:

— Bolalar, bu inshootni oqib kelayotgan suv harakatga keltiradi. Ana, uzoqda ko‘rinib turgan tog‘dagi qorlar erib suvga aylanadi. Suv pastlikka oqadi, uni to‘sib, mana, siz ko‘rib turgan inshoot qurilgan.

Keyingi sayohat bug‘doy ekilgan dala, qirga, undan keyingisi esa biror mahsulot ishlab chiqaradigan zavod, fabrika, korxonaga uyushtiriladi.

Har bir o‘qituvchi tevarak-atrofdagi barcha narsalar bilan bolalarni yaqindan tanishtirsa, bolalarning tafakkur qilish faoliyatlari kengayadi.

O‘qituvchi bolalarning sayr-sayohatlarda ko‘rganlarini tahlil qilishda faol qatnashishlarini ta‘minlashi kerak:

— Bolalar, ilgari atrofda bo‘layotgan o‘zgarishlarning sababini odamlar o‘zlaricha har xil taxmin qilganlar. Ular momaqaldiroq va chaqmoq haqida hech qanday asosli bilimlarga ega bo‘lmaganlar. Endi-chi, olimlarimiz har qanday narsani aniqlab, asoslab bermoqdalar. Bir vaqtlar odamlar havoda uchishni xayolda orzu qilib, uchar gilamlar haqida afsonalar yaratgan bo‘lsalar, endilikda bu xayoliy afsona haqiqatga aylanib, inson faqat samolyot yoki vertolyotnigina emas, balki fazoda uchuvchi kemalarni ixtiro etganlariga ham ko‘p vaqt bo‘ldi. Fazogirlar esa oyga ham qadam qo‘ydilar.

Bir vaqtlar ertaklarda aytilgan: ko‘zingni yumsang sirli bir kuch yer tagiga olib tushib, yana chiqarib qo‘yadi, degan orzular ushalib, mana hozir ko‘p qavatli binolarga o‘rnatilgan lift yoki metro bekatlariga olib tushadigan eskalatorlar mavjudligi haqida, ayniqsa, qishloq joylarda yashaydigan bolalarga so‘zlab berish foydalidir.

Bolalarning ma‘naviy tomondan barkamol insonlar bo‘lib o‘sislarida badiiy matnlardagi mavzular, ularda olg‘a surilgan g‘oyalar muhim ahamiyatga egadir.

Darslikda jamoa, uning qudratli kuch ekanligi, bu kuch hamma narsaga qodir ekanligi haqida ham tushuncha beriladi. Shundan keyin jamoaning har bir a‘zosi bir-biri bilan do‘st-inoq bo‘lishi, shon-shuhrat uchun kurashishi, tartibli, o‘qishda ilg‘or, mehnatsevar bo‘lishi hayotiy misol-

lar va kitobdagi matnlar asosida tushuntirilsa, bolalarda jamoaga nisbatan mehr-muhabbat uyg'onadi. Keyinchalik o'z jamoasi bilan faxrlanishi, shu jamoaning tuzilishida o'zining ham hissasi borligini his va idrok etishi tarbiyada muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yaxshi fazilat, keyinchalik bola o'sib-ulg'ayib, katta jamoa hayotida ishtirok etganida, xayrli ishlar qilishga, jamoa a'zolariga hurmat, e'tibor bilan munosabatda bo'lishga undaydi.

Bolalarning tabiati shodlikka boy kunlarning tez-tez bo'lishiga, xursandlik onlarida qo'shiq aytish, raqsga tushishga moyil. Shuning uchun turli sanalarga bag'ishlangan asarlarni ham qiziqib o'qiydilar.

Mustaqillik bayrami, Konstitutsiya kuni, Hosil bayrami, Yangi yil bayrami, Vatan himoyachilari kuni, Navro'z bayrami, Qushlar, gullar bayrami, Xotin-qizlar bayrami, Xotira va qadrlash kuni, bolalarni himoya qilish kuni kabi bayramlarni nishonlash bolalarga alohida zavq-shavq bag'ishlaydi. Bunda o'qituvchining qiziqarli hikoyasi, namoyish qilinadigan ko'rgazmalar, texnik vositalar orqali mavzuning ta'sir kuchini oshirish mumkin.

O'QISH DARSLARIDA NAFOSAT TARBIYASI

O'qish darslarida bolalarning nafosatli bo'lib kamol topishlariga alohida e'tibor qaratiladi.

„O'qish kitobi“dagi har bir asarning o'quvchilar tomonidan qiziqib o'qilishi va mazmunini berilib eshitishlariga erishish, ayrim matnlarni bolalarga ta'sir etishi uchun magnet tasmlariga yozib eshittirish ularning qabul qilish faoliyatini faollashtiradi.

Asarni estetik idrok etish, uni bolalar tomonidan his-tuyg'u, ko'tarinki ruh bilan qabul qilinishiga erishish uchun matnlarni o'qib berish, mazmunini tahlil qilish, rasmlarga qarab gapirib berishga alohida e'tibor qilinadi.

Maktab, kitob, mehnat, hunar haqidagi she'rlar, tabiatga doir matnlar, xalq og'zaki ijodi namunalari o'qish va o'rgatishda o'qituvchining yoqimli ovozi, xatti-harakatlari, mahorati muhim ahamiyatga molikdir.

Masalan, shoir Yo'ldosh Sulaymonning „Tilagim“ she'rini o'qib, tahlil qilishda o'qituvchi bolalarga murojaat etib:

— Shoir bolalarga qanday tilaklar bildirdi? — degan savolga bolalardan javob olish bilan chegaralanmay, balki shu she'r asosida rasm chizishni, uni qo'shiq qilib kuy-lashni mashq qildirishi ham foydalidir.

„Oltin kuz“ bo'limidagi asarlarni o'qishdan oldin o'qituvchi: Bolalar, kuzda tabiatning ko'rinishi qanday bo'ladi? Kuzni qaysi bo'yoqlarni mo'l ishlatib tasvirlash mumkin? Qaysi mevalar yoqimli is taratadi? kabi savollar bilan murojaat qilib, bolalarning taassurotlarini so'raydi.

Shundan so'ng bolalar e'tibori „Oltin kuz — hosiling yuz“ iborasini o'qish va ma'nosini tahlil qilishga, nima uchun oltin kuz deyilishiga qaratiladi. Uyg'unning „Kuz keldi“ she'ri o'qitiladi:

*Kuz keldi, bizlarga oltin kosada
Sharbat ola keldi, bol ola keldi.
Savat-savat qilib shirin mevalar,
Omborlar liq to'la don ola keldi.*

She'rni ifodali o'qish, to'xtamlarga e'tibor qilish, *bol* so'zini yana qanday so'z bilan izohlash mumkinligi haqidagi tushunchalari aniqlanadi.

Shu bo'limdagi topishmoqlar ham bolalar zehni o'stirishga yordam beradi:

*Ko'k beqasam to'nim bor,
Ichim baxmal lolazor.
Mazam shirin go'yo qand,
Meni yegan tortmas dard.*

— Bunday shifobaxsh narsa nima ekan? — degan savolga har kim o'zicha javob beradi.

Tarvuzning shakli, rangi, mazasi haqida bolalar tushunchaga ega bo'ladilar va uni rasm orqali ifodalaydilar.

O'quvchilarga nafasat tarbiyasi berish usullaridan yana biri ta'sirli o'qishdir. Ta'sirli qilib o'qish ikkinchi sinf

o'quvchilari uchun qiyin, lekin o'quv dasturi talab etgan bunday o'qishga kirishish uchun, avvalo, ruhan tayyorlanishlari, ko'proq mashq qilishlari kerak.

Nazorat qilinmasa, ko'p hollarda bolalar matnni hafsalasizlik bilan bir ohangda o'qiydilar. Bunday o'qishning boshqalarga ta'siri kam bo'ladi. Shunday paytlarda bolalar e'tiborini tortib, kim shu she'rni ta'sirliroq o'qib bera oladi, — degan savol bilan murojaat etish mumkin. Ana shunda bolalar o'rtoqlarining o'qigani maqsadga muvofiq bo'lmaganini payqab, undan yaxshiroq o'qishlari zarurligini his etib, vazifani mas'uliyat bilan bajarishga kirishadilar. Shuningdek, „O'qish kitobi“ da berilgan har bir rasm ularda estetik zavq uyg'otishga xizmat qilishi lozim.

Darslikdagi har bir bo'limdan keyin o'quvchilarga qoldiq qog'ozlardan kichkinagina kitobcha yasash, uni bo'limdagi asarlarga mos rasmlar bilan bezash, uning nomini „Mening sevimli kitobcham“ deb nomlash aytiladi. Har bir kitob bir mavzuga bag'ishlanadi, ya'ni „Oltin kuz“, „Kumush qish“, „Mehnat — baxt keltirar“ kabi nomlanadi. Bolalar bu ishni zo'r ishtiyoq bilan bajaradilar. O'quv yili davomida shunday kitobchalardan bir nechta yasash va eng yaxshilarini ko'rgazmaga qo'yish o'quvchilarga uqdiriladi.

Dars oralig'ida o'tkaziladigan dam olish mashqlari (fizdaqiqalar), she'r yoki so'z o'yinlari ham nafosat bilan ijro etilishi kerak. Bu ham estetik tarbiyaning bir turidir. Masalan, „Mehmon-mehmon o'yini“ she'rini yoddan aytganda, bolalarga mehmonlarga salom berayotgandek, engashib, odob bilan qo'llarini ko'ksiga qo'yib, tabassum bilan aytilish uqdiriladi.

Mezbon:

— *Esonmisiz,
Omonmisiz?
Bugun bizga
Mehmonmisiz?*

Mehmon:

— *Esonman,
Omonman.
Bugun sizga
Mehmonman.*

O'QISH DARSLARIDA O'QUVCHILARNING MUSTAQIL FAOLIYATI

Mustaqil faoliyat insonni ziyrak va hozirjavob qiladi. Bu faoliyat kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida uyg'un holda rivojlanishi kerak. Buning uchun, avvalo, o'quvchilarni mustaqil faoliyatga ruhan tayyorlash, ularda biror ishni qila olishga va shu ishni sifatli qilib bajarishga ishonch hosil qilish lozim.

Mustaqil ish turlari qanday bo'lishi kerak? Avvalo, ish turlari o'qituvchi tomonidan puxta o'ylangan, ta'lim maqsadiga asoslangan va surunkali bo'lishi kerak. Bunda har bir o'quvchining imkoniyati hisobga olinishi, ularning yosh xususiyati, nimalarga qiziqishi ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak.

O'quvchilarni aqliy rivojlantirishning shartlaridan biri o'z topshiriqlarini to'la „eslab qolib“ bajarishlaridir.

Bunda bajariladigan ishning maqsadini tushungan (tasavvur qilgan) holda, uning rejasini belgilash va ish usulini tanlash, yo'l qo'yilgan xatolarni mustaqil topa olish va uni tuzata bilishlariga alohida e'tibor beriladi.

O'quvchilarning topshiriqni tez, to'g'ri bajarishlari uchun qulay usullarni tanlash, uni tashkil etish uchun doimiy yetakchi savollar berib, tayanch so'zlar tavsiya etish foydalidir. O'quvchilarda mustaqil ishlarni sifatli qilib bajarishda qiyinchiliklar paydo bo'lishi tabiiy. Chunki hali ularning tasavvurlari yorqin, so'z boyligi yetarli emas.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bolalar o'qituvchi rahbarligida ishlaganda tez mushohada qiladilar. Bu holga o'rganib qolmasliklari uchun ko'proq ularning o'zlarini mustaqil fikrlashga da'vat etish lozim. O'quvchilar e'tiborini jalb etish maqsadida matndagi voqealarni eslatib: Nega? Nega shunday bo'ldi? Seningcha qanday bo'lishi kerak edi? kabi savollar berib, uning fikrini ma'qullab, yana o'ylasang topasan, juda yaxshi, juda soz! kabi rag'batlantiruvchi so'zlarni ishlatish foydalidir. Masalan, „O'roq va Kombayn“ masali yuzasidan: O'roq nega afsuslandi? Kombayn unga

nima dedi? kabi savollar berib, har ikkisini solishtirish orqali texnikaning kuch-quvvatiga bolalar e'tibori tortiladi, har bir texnika asbobining hayotimizdagi ahamiyatini baholashga o'rgatiladi.

Dastlabki bajargan mustaqil ishidan bola mamnun bo'lsa, uning qiziqishlari ortib, yangi-yangi ish turlarini amalga oshirishga kirishadi.

Mustaqil ish natijalarini hamisha tekshirish lozim. Tekshirish og'zaki yoki yozma tarzda bo'lishi mumkin.

Bola yozishdan oldin o'ylaydi, fikrini og'zaki jamlaydi, so'ng uni yozishga kirishadi. O'z fikrini bayon qilish yoki qo'yilgan biror savol yo masala yuzasidan mushohada yuritish uchun jiddiy fikrlaydi. Bu jarayon (og'zaki) nutq asosida paydo bo'ladi va mustahkamlanadi.

Masalan, o'quvchi o'z fikrini yozma ifodalashdan ilgari o'ylaydi. Pichirlab allanimalar haqida o'z-o'zicha gapiradi (pedagogikada bu faol faoliyat hisoblanadi). Insho yozishning dastlabki shakllari ana shunday ishlardan boshlanadi. Bola matnni o'qib, og'zaki tahlil qiladi, sarlavhalar o'ylab topib, qanday rasmlar ishlash lozimligini rejalaydi.

Mustaqil ishlar o'quvchilarni toliqtirmasligi, zerikib, ishdan ixloslari qaytmasligining oldini olishga qaratilgan bo'lmog'i lozim.

Mustaqil ishlarga sarflanadigan vaqt 10—15 daqiqa bo'lishi, iloji boricha shu muddat ichida ham dam olish daqiqalari o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilarni mustaqil faoliyatga o'rgatishda quyidagilarga amal qilish lozim:

- beriladigan har bir topshiriq o'quvchilarning imkoniyatlariga mos bo'lsin va qiziqishini uyg'ota olsin;
- ish osondan qiyinga, soddadan murakkabga qarab yo'naltirilsin, o'quvchiga tushunarli bo'lsin;
- ishni bajarishda bolalarda o'ziga ishonch hissi uyg'on-sin, ishga kirishishda ular o'zlarida dadillik sezsin;
- mustaqil bajariladigan topshiriqlar yakkama-yakka tarzda amalga oshirilsin (hamma o'quvchi uchun bir xil topshiriq berish bu mustaqil faoliyat emasligini eslatamiz);

— topshiriqlarni doimo navbatlashtirib, turini almash-tirishga alohida ahamiyat berish kerak;

— topshiriqlarni hamma bir vaqtda boshlab, ma'lum vaqtda tugatishi kerakligini eslatib, bolalarni shu talabni bajarishga ko'niktirish lozim;

— ish joyi hamisha qulay, saranjom-sarishta bo'lishi (parta ustida ortiqcha narsalar bo'lmasligi) kerak;

— topshiriqlar darsning turli bosqichida bajarilishi mumkin;

— darslik, didaktik materiallar bilan ishlashda uzviylik bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Uyga beriladigan vazifalar ham mustaqil ishning bir turidir. Bolalarga, iloji boricha, sinf sharoitida asosiy bilim va malakalarni singdirish, uyga vazifalar berishni me'yorlash kerak. Bolalar darsdan so'ng (og'ir, mashaqqatli mehnatdan keyin) tiniqib dam olsalar, ko'proq ochiq havoda bo'lib, harakatli o'yinlar, sayr, kuzatishlar bilan vaqtlarini o'tkazib, tunda osuda uxlab, ertangi kungi darslarga yaxshi kayfiyat bilan kelsalar, darsni o'zlashtirish yaxshi bo'ladi. Shuning uchun uy vazifalari oson bo'lishi, asosan, bolalarni kuzatishlarga undashi lozim.

Hozirgi kunda maktablarda iqtidorli bolalar soni tobora ortib boryapti. Bunday bolalar bilan alohida ishlagan ma'qul. Topshiriq turlarini bolalarning imkoniyatlariga qarab almashtirish, masalan, bir hikoya yoki she'rni ichda o'qitib, uning mazmuni yuzasidan savollarga javob berishni mashq qildirish maqsadga muvofiqdir (matn oxirida berilgan savollar o'qituvchi tomonidan avvaldan doskaga yozib qo'yilgan bo'lishi kerak).

Mustaqil ish turlaridan yana biri tanlab o'qishdir. Bu o'qish turi o'quvchiga ancha yengillik beradi. Chunki o'quvchi goh oson, goh murakkab parchani tanlaydi. Harqalay, o'z kuchiga ishonib ish tutganligining o'zi uning mustaqiligidan dalolat beradi.

Asarda ishtirok etuvchilarning xatti-harakatlarini tushu-nib olishda ham tanlab o'qish juda katta yordam beradi.

Bunda o'quvchilar matndan asarda ishtirok etgan qahramonlarni tasvirlovchi materiallar tanlaydilar. Ularning tashqi ko'rinishlarini tasvirlovchi yoki ichki kechinmalarini ifodalovchi jumalarni topadilar.

Tanlab o'qish va badiiy matn ustida ishlash bolalarni ko'pgina boshqa qiziqarli ishlarga, jumladan, ifodali o'qishga yo'llaydi. O'qituvchi bolalarga biror asardan ayrim qismini tanlab o'qish topshirig'ini beradi. O'quvchilar topshiriqni bajaradilar. O'qituvchi ular bilimini tekshiradi va:

— Bolalar, endi shu matnni ifodali o'qishga tayyorlaning, — deb topshiriq beradi.

Bolalar bu topshiriqni astoydil bajarishga urinadilar, lekin ifodali o'qish ular uchun ancha qiyinlik qiladi. Shuning uchun o'qituvchi bu o'qish turining ba'zi unsurlarinigina shakllantiradi va asta-sekin takomillashtirib boradi. Shunday qilinganda bolalar bu o'qish turini o'zlashtirishga, o'z o'qishlaridan bahra olishga odatlanadilar.

O'qituvchining ifodali o'qishi bolalar uchun namuna bo'ladi. Ular o'qituvchiga taqlid qilib, ovozlarini boshqarishga harakat qiladilar.

„O'qish kitobi“da matnlardan so'ng va har bir bo'lim oxirida berilgan savol va topshiriqlar bolalarning mustaqil fikr yuritishiga yordam beradi.

O'qilgan asar yuzasidan savollar tuzishni mashq qilish mazkur yoshdagi bolalarga murakkabdek tuyuladi. Lekin surunkali mashqlar ularda ma'lum ko'nikma hosil qiladi. Tuzilgan savollar matndan so'ng berilgan tayyor savol va topshiriqlardan farq qilishini avvaldan ularga eslatiladi. Buning uchun asarni qayta-qayta o'qib, mazmunini tushunib olishlari kerakligi uqdiriladi.

O'qituvchi o'quvchilarga asarning ma'lum bir qismini o'qishni va shu parcha yuzasidan qanday savollar berish mumkinligini o'ylashni topshiradi. Bunday topshiriqlarni hamma birday bajara olmasligi tabiiy. Agar bu topshiriqni sinfdagi ko'pchilik o'quvchilar bajarsa, boshqalari ham ularga ergashadi.

O'quvchilar orasida munozaralar uyushtirishga ham ahamiyat berish lozim. „Bahs“ hikoyasida xuddi ana shu mavzu yoritilgan, unda bolalarning o'zaro bahs-munozaralari orqali ularning maqsad va intilishlari yoritilgan. Po'lat Mo'minning „Barcha bola do'st bo'lsa“ she'ri, „Alisher bilan bulbul“ hikoyasi o'qilgach, ularda olg'a surilgan g'oyalarni har bir bola o'zicha talqin qilib gapirib berishi kerak.

She'r mazmuni yuzasidan, vatanimiz tinch, turmushimiz yaxshi bo'lishi uchun bolalar nima qilishlari kerak? Bu haqda she'rda nimalar deyilgan? degan savollarni berish mumkin. Albatta, bolalar „Hamma bola do'st bo'lishi kerak“ degan javobni beradilar. Yoki „Alisher bilan bulbul“ hikoyasini o'qib, uning mazmunini inshoda ifodalash mumkin. Buning uchun avval reja tuziladi:

Reja

1. *Alisher qanday bola?*
2. *U nimalar qilibdi?*
3. *Bog'da nimani eshitdi?*
4. *Qushning qaysi so'zi unga yoqib qoldi?*
5. *Rasmda yana nimalar ifodalangan?*

Tolib Yo'ldoshning „Vaqt“ she'ri asosida ham kichik insho yozish mumkin:

Reja


1. *Vaqtning qadri nimada?*
2. *Vaqt bekor o'tmasligi uchun nima qilish kerak?*
3. *Baxtga erishish uchun nimalarga e'tibor berish kerak?*

Reja tuzishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- matnni qismlarga ajratishni mashq qilish;
- har bir qismga mos qisqa sarlavhalar topish;
- reja qismlarini kerakli tartibda ketma-ket joylash-tirish;
- matnga umumiy sarlavha o'ylab topish (bu ish jamoa ravishda o'qituvchi rahbarligida bajariladi).

„O‘qish kitobi“ga qo‘shimcha ravishda didaktik materiallar ham tavsiya etiladi. Unda bolalarning fikrini o‘stiruvchi o‘yinlar, turli boshqotirmalar berilgan.

Masalan, „Oltin kuz — hosiling yuz“ bo‘limidagi materiallarni o‘qish davomida sabzavotlar va poliz ekinlari nomini katakchalarga joylashtirish, shu so‘zlar asosida kichik hikoya tuzish mashq qildiriladi.



Bundan tashqari, tez aytishlarni yod olish mashqlari tez-tez o‘tkaziladi:

*Nosir nashvati nokni oldi,
Nashvati nokni Nosir oldi kabi.*

O‘QISH DARSLARINI JIHOZLASH

Qiziqarli dars o‘tishning asosiy vositalaridan biri ko‘rgazmalilikdir. Ko‘rgazmali qurollar o‘quvchining nafosat tarbiyasiga ta’sir etib, did-farosatini shakllantirishga xizmat qiladi. Ko‘rgazmali qurollar shunday tanlanishi kerakki, ular o‘quvchiga tanish bo‘lmasligi, unda qiziqish uyg‘otib, fikrlash doirasini kengaytirishi lozim.

Sinf xonasi saranjom-sarishta bo‘lmog‘i, unda faqat „Tabiat va mehnat“ ko‘rgazmasi (haftalik kuzatuvlarni belgilash uchun), hafta mobaynida o‘qiladigan badiiy ada-

biyotlar ro'yxati, „Chiroyli yozuv“ namunasi va matematikaga doir ba'zi ko'rgazmalar bo'lsa bas.

Rasmlar, turli didaktik materiallar alohida saqlanadi.

Tarqatma didaktik materiallar — topshiriqlar yozilgan qog'ozlar qutichalarga joylanib, ulardan foydalanish tartibi bolalarning o'zlariga topshiriladi.

Matnlar ustida ijodiy ishlashga o'rgatish maqsadida asarda ishtirok etuvchilarning qiyofalariga mos niqoblar tayyorlashni ham bolalar bilan birgalikda bajariladi va dialogli matnlarni o'qiganda ulardan foydalanib sahnalashtirilgan darslar o'tiladi. Dars davomida o'ynaladigan o'yinlar, dam olish daqiqalaridagi harakatli mashqlar uchun ham ko'rgazmalar hozirlash dars samaradorligini oshiradi.

Texnik vositalar dars jarayonini jonlantirib, o'quvchilarda ko'tarinki ruh paydo qiladi. Yoqimli kuy tinglab, fikrlash yoki kuy ta'sirida yod olgan she'rlarini aytish, diafilmlar tomosha qilish kabilar o'qish darslarining ahamiyatini oshiradi.

Quyida „O'qish kitobi“ga kiritilgan bo'limlardagi asarlarni rejalashtirish va ulardagi ayrim matnlarning tahlili bo'yicha dars namunalarini keltiramiz.

O'qituvchilar ulardan ijodiy ravishda foydalanishlari mumkin.



I BO'LIM

Ona yurtim — oltin beshigim

1- dars mavzusi: „O‘zbekistonim“. *Hamza Imonberdiyev she'ri.*

Darsning maqsadi: 1. O‘quvchilarning Vatanga bo‘lgan muhabbatlarini shakllantirish.

2. O‘quvchilarning yod olish va to‘g‘ri, aniq, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

3. Vatan haqidagi tushunchalarini va yaxshi o‘qish malakalarini rivojlantirish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Dars uslubi: tushuntirish va ko‘rsatmalilik.

Dars jihozlari: testlar, tarqatma didaktik materiallar, diafilm, magnitofon.

I. Darsning yo‘nalishi: darsni tashkil qilish, 2- sinf „O‘qish kitobi“ darsligi haqida ma‘lumot berish va kitobning ilk betida berilgan rasm va maqol bilan o‘quvchilarni tanishtirish, maqolning ma‘nosini yoritish.

„Ona yurtim — oltin beshigim“ bo‘limiga mos bo‘lgan, ya‘ni vatanimizning tarixi va hozirgi kuni tasvirlangan diafilmni namoyish qilish. (Diafilm avvaldan tayyorlab qo‘yilgan bo‘ladi va derazalarga ham qorong‘ilashtiradigan matodan parda bo‘lib, diafilmni boshlashdan avval derazaga yaqin o‘tirgan o‘quvchilar pardalarni yopadilar.) Namoyish jarayonida har bir kadr yuzasidan tushunchalar berib boriladi. Diafilm tugagach, pardalarni ochib, o‘quvchilar bilan savol-javob o‘tkaziladi:

— O‘zbekiston avval qanday nomlangan ekan?

— Yurtimiz hozirgi kunga kelib qay darajada o‘zgargan?

— O‘zbekistonning avvalgi poytaxti qaysi shahar bo‘lgan? Hozir-chi?

Jismoniy daqiqa o‘tkazish.

II. Yangi mavzu. „O‘zbekistonim“ she‘rini suhbatga ulagan holda:

— Mana, biz vatanimiz haqida bilimlarga ega bo'ldik. O'zbekiston deb atalmish diyorumiz faxrlanishga arzigulik go'zal va bepoyondir. Shoir Hamza Imonberdiyev „O'zbekistonim“ she'rida vatanimiz bilan faxrlanib, unga juda chiroyli ta'rif bergan. Qani, diqqat bilan eshitamiz, — deydi.

She'r magnitofon orqali eshittiriladi. (She'rni o'qituvchi qiroat bilan, mayin musiqa sadosi ostida o'qib, magnit lentasiga yozib olgan bo'lishi kerak.) Shunda o'quvchilar she'rning mohiyatini yaxshi anglaydilar.

III. She'r yuzasidan test savollari o'quvchilarga tarqatilib, javoblar olinadi.

Test namunalari:

1. O'zbekistonimiz qanday o'lka?
 - a) chiroyli o'lka;
 - b) nurli o'lka;
 - c) hur o'lka.
2. Nima tillarda doston?
 - a) tog'lar;
 - b) qushlar;
 - c) O'zbekistonim.
3. Bu o'lkaning erkasi kimlar?
 - a) sizlar;
 - b) bizlar;
 - c) ular.
4. O'zbekistonning kelajagi kimlarning qo'lida?
 - a) bizlarning;
 - b) sizlarning;
 - c) ularning.

Bunda o'quvchilar she'r mazmunini qanchalik tushunganlari bilib olinadi, lug'at ishi o'tkaziladi:

voris — kelajak egasi
giyoh — o'simlik

IV. O'quvchilar test natijalari va darsga qanday qatnashganlariga qarab baholanib, faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

V. Uyg'a she'rni yod olish topshiriladi.

2- dars mavzusi: „O'zbekiston — mening vatanim“.

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarda Vatanga sodiqlik va hurmat hissini tarbiyalash.

2. O'zbekiston, Vatan haqidagi bilimlarini oshirish.

3. Vatanimizning porloq kelajagiga ishonch uyg'otish.

Dars turi: umumlashtiruvchi.

Dars uslubi: aralash, ko'rgazmali.

Dars jihozlari: O'zbekiston shahar va qishloqlari manzarasi tasvirlangan rasmlar, tarqatma didaktik materiallar.

I. Darsni tashkil etish. Uyg'a berilgan she'rni so'rab, baholash. O'tilgan dars yuzasidan savol-javob o'tkazish:

— Diafilmda nimalarni ko'rdingiz?..

— Hozirgi kunda O'zbekistonimiz qanchalik o'zgaribdi?..

— Vatanimiz kelajagi kimlarning qo'lida va unga munosib bo'lish uchun nima qilish kerak?

II. O'zbekistonning shahar va qishloqlari tasvirlangan rasmlarni ko'rsatib, suhbatni davom ettirish va yangi mavzu bilan bog'lagan holda tushuntirish.

— Bu rasmlarda O'zbekistonda hozirgi kundagi juda katta o'zgarishlar tasvirlangan. Yaqin kelajakda u bundan ham go'zallashadi, O'zbekiston kimning vatani? (*Bizlarning*) Barakalla, O'zbekiston — bizning vatanimiz, uning kelajagi sizlarsiz. Bugun o'tiladigan mavzu ham shunday deb nomlanadi: „O'zbekiston — mening vatanim“.

Yangi mavzu o'quvchilarga o'qitiladi va o'zlashtirish qiyin bo'lgan so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.

III. Yangi mavzu yuzasidan savol-javob o'tkazish:

— O'zbekistonda qanday shaharlar bor?

— O'zbekistonning poytaxti qaysi shahar?

— O'zbekistonda qaysi millat vakillari yashaydi?

— Vatanimizga qanday farzandlar kerak?

— Uning kelajakda yanada yuksalishi uchun nimalar qilishimiz kerak?

Tarqatma didaktik materiallar yordamida o'quvchilar bilimlari yanada mustahkamlanadi. Tarqatma material, ya'ni kartochkalarda har bir o'quvchiga individual topshiriqlar beriladi. Masalan:

1- kartochka. O'zbekistonda yashaydigan qushlarni ayting.

2- kartochka. O'zbekistonda o'sadigan mevalarni ayting.

3- kartochka. O'zbekistonda o'sadigan dorivor giyohlarni ayting.

Javoblar olingach, ular o'quvchilar va o'qituvchi yordamida to'ldiriladi.

IV. O'quvchilar javoblariga, darsda qatnashganlariga qarab baholanadi.

V. Uyga Narimon Orifjonovning „Vatan“ she'ri o'qib, „Vatan qayerdan boshlanadi?“ savoliga javob topib kelish beriladi.

3- dars mavzusi: Jumaniyoz Jabborovning „Istiqlol“ she'ri.

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarda mas'uliyat hissini uyg'otish.

2. O'quvchilarning istiqlool haqidagi tushunchalarini kengaytirish.

Dars turi: umumlashtiruvchi.

Dars uslubi: aralash, ko'rsatmali.

Dars jihozlari: mavzuga oid rasmlar, test, videofilm.

I. Darsni tashkil qilish. Uyga berilgan topshiriqni so'rab, baholash. O'tilgan mavzular yuzasidan test o'tkazish:

1. O'zbekistonning poytaxti qaysi shahar?

- Termiz;
- Toshkent;
- Samarqand.

2. Paxtadan nima olinmaydi?
 - a) gazlama;
 - b) chinni buyumlar;
 - c) yog'.
3. Havo harorati qachon ko'tariladi?
 - a) qishda;
 - b) yozda;
 - c) bahorda.
4. O'zbekistonda qaysi qushlar qishlab qoladi?
 - a) Qarg'a va burgut.
 - b) Chumchuq va musicha.
 - c) Laylak va musicha.

II. Yangi mavzu. Jumaniyoz Jabborovning „Istiqlol“ she'ri bilan o'quvchilarni tanishtirish va she'rni magnitofon lentasi orqali eshittirish.

She'rni eshitib bo'lishgach, mazmunini tushuntirish va lug'at ishi o'tkazish:

<p>samo — osmon ma'vo — manzil sabo — shamol gavhar — qimmatbaho tosh</p>

Jismoniy daqiqa o'tkazish.

III. She'r yuzasidan ko'rgazmali rasmlar asosida savol-javob o'tkazish:

— Bu rasmda qaysi shahar tasvirlangan?

— O'zbekiston istiqloлга erishgandan so'ng qanday o'zgarishlar bo'ldi? Nimalar qurildi?

IV. O'quvchilar javoblariga va test natijalariga qarab baholanadi va e'lon qilinadi.

V. Uyga she'rni ifodali o'qib kelish topshirig'i beriladi.

4- darsning mavzusi: „Humo qushi“. (Po‘lat Mo‘min)

Darsning maqsadi: 1. O‘quvchilarni tabiatni, yashayotgan yerini pokiza tutish va asrab-avaylashga o‘rgatish.

2. Humo qushi haqida tushuncha berish.

3. O‘zbekiston ramzlari haqidagi bilimlarini rivojlantirish.

Dars turi: umumlashtiruvchi.

Dars uslubi: aralash, ko‘rsatmali.

Dars jihozlari: Humo qushi tasvirlangan plakat, tarqatma materiallar.

I. Darsni tashkil qilish. Uyga berilgan topshiriqni so‘rab, baholash. O‘tilgan mavzular yuzasidan kartochkalar tarqatib, javoblar olish (7—8 ta o‘quvchiga):

1- kartochka. O‘zbekistonning shaharlarini sanang.

2- kartochka. Istiqloq degani nima?

3- kartochka. „O‘zbekistonim“ she‘rini yoddan ayting.

4- kartochka. O‘zbekiston istiqloqligiga erishgandan keyingi o‘zgarishlarni ayting.

Jismoniy daqiqa o‘tkazish.

II. Yangi mavzu. Po‘lat Mo‘minning „Humo qushi“ she‘ri bilan o‘quvchilarni tanishtirish. She‘rni ifodali o‘qish, mazmunini yoritish va lug‘at bilan ishlash:

ziyo qushim — bilim, ilm tarqatuvchi qush

e‘zoz — hurmat

parvoz aylab — uchib

Humo qushi tasvirlangan plakat yordamida Humo qushi haqida tushuncha berish.

III. Yangi mavzuni savol-javob orqali mustahkamlash:

— Humo qushi qanday qush ekan?

— Nima uchun uni ziyo tarqatuvchi deyiladi?

— Humo qushi qayerda tasvirlangan?

Bahs uyushtirish:

— Nima uchun gerbimizda aynan Humo qushi tasvirlangan?

IV. Dars so'ngida o'quvchilar darsda ishtirok etishlari va bergan javoblariga qarab baholanadi.

V. Uyga she'rni yodlab, Humo qushining rasmini chizib kelish topshiriladi.

5- darsning mavzusi: „Toshkent“.

Darsning maqsadi: 1. O'z tug'ilib o'sgan yerini asrab-avaylashga, pokiza tutishga o'rgatish.

2. Poytaxt haqidagi tushunchalarini kengaytirish.

3. Bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish.

Darsning turi: umumlashtiruvchi.


Darsning uslubi: aralash, ko'rsatmali.

Dars jihozlari: Toshkent shahri manzaralari tasvirlangan rasmlar, tarqatmqa didaktik materiallar.

I. Darsni tashkil etish. Uyga berilgan „Humo qushi“ she'rini yoddan so'rash va chizib kelgan rasmlarini ko'rib baholash.

O'tilgan mavzularni takrorlash. Bunda hamma o'quvchilarga yetadigan qilib sxemalar tayyorlanadi va tarqatiladi.

— O'zbekistonning shaharlarini yozing:



(O'quvchilar bilgan shahar nomlarini yozadilar.)

— O'zbekistonda qaysi millat vakillari yashaydilar?
Bo'sh kataklarga yozing:



— O'zbekistonda qanday bayramlar nishonlanadi?
Bilgan bayramlaringizni bo'sh kataklarga yozing:



Bunday usul o'quvchilarning darsga qiziqishini oshirishga va bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Bu usulni o'yin deyish ham mumkin. O'quvchilarga o'yin tushunchasi yaqinroq. Yuqoridagi sxemalarning barchasi umumlashtirib berilib, o'quvchilar topshiriqni bajarishlariga 5—10 daqiqa vaqt beriladi va vaqt tugagach, ishlar yig'ib olinadi.

II. Yangi mavzu. O'quvchilarni „Toshkent“ matni bilan tanishtiriladi. Toshkentning diqqatga sazovor joylari tasvirlangan rasmlar yordamida mavzu yanada kengroq yoritiladi.

Jismoniy daqiqa o'tkaziladi.

III. Yangi mavzu savol-javob orqali mustahkamlanadi:

- Toshkent qanday shahar?
- Toshkentda qanday xiyobonlar bor?
- Toshkentda qanday san'at saroylari bor ekan?
- Toshkentda nechta temiryo'l vokzali va nechta aeroport bor?
- Nima uchun Toshkentni tinchlik va do'stlik shahri deymiz?

So'ng matn o'quvchilarga o'qitiladi va lug'at ishi bajariladi:

ta'lim — bilim berish
namoyish — ko'rsatish
mashhur — taniqli
aeroport — samolyotlar qo'nadigan joy
vokzal — poyezdlar qatnov yo'llaridagi katta bekat

IV. O'quvchilarni darsda ishtiroklariga qarab baholash va e'lon qilish.

V. Uyga vazifa: matnni o'qib, gapirib berishga tayyorlanib kelish.

6- darsning mavzusi: „Toshkent metrosi“.

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarga Toshkent metrosi haqida to'liqroq ma'lumot berish.

2. Toshkent metrosi haqidagi bilimlarini kengaytirish.

Darsning turi: noan'anaviy.

Darsning uslubi: ko'rsatmali, o'yin, tushuntirish.

Dars jihozlari: Toshkentdagi metro bekatlari tasvirlangan rasmlar, magnitofon.

I. Darsni tashkil etish. Uyga vazifani so'rash va o'tilgan mavzularni takrorlash:

— O'zbekiston qanday davlat?

— Bizning vatanimiz gerbida qaysi qush tasvirlangan?

Nima uchun?

- O‘zbekiston shaharlarini ayting.
- O‘zbekistonda qanday o‘simliklar o‘sadi?
- O‘zbekistonning poytaxti qaysi shahar?
- Poytaxtda nimalar bor?

II. Yangi mavzu — „Toshkent metrosi“ o‘yin tarzida o‘tiladi:

— Bolalar, biz sizlar bilan Toshkent metrosi bo‘ylab sayohatga chiqamiz, qani, tayyormisiz?

Bunda o‘quvchilar o‘zlarini metroda deb tasavvur qiladilar. 2 ta o‘quvchi o‘qituvchiga yordamlashadi.

Magnitofonga har bir metro bekatida aytiladigan so‘zlar yozib olingan bo‘ladi. O‘qituvchi har bir bekatda magnitofondagi yozuvni eshittiradi va ikki o‘quvchi ana shu bekat tasvirlangan rasmni ikki tomonidan ushlab, doska tomonga olib chiqib qo‘yadi. O‘qituvchi esa ana shu bekat haqida ma‘lumot beradi.

2 ta o‘quvchi esa bu bekatning rasmini doska tomondan olib o‘tib, keyingi bekat rasmini olib keladilar. Masalan, ilk so‘zlar magnitofon orqali xuddi metrodagi kabi yangraydi: „Hurmatli yo‘lovchilar, metropolitenimizga xush kelibsiz. Iltimos, metro vagonlari va bekatlarda tozalikka rioya qiling.

Endi esa, marhamat, metro bo‘ylab sayohatimizni boshlaymiz. Hozirgi bekat „Buyuk ipak yo‘li“. Eshiklar yopiladi, keyingi bekat „Pushkin“. Iltimos, yosh bolali, nogiron va yoshi katta yo‘lovchilarga joy bering“. (Magnitofon o‘chirilib, 2 ta o‘quvchi avvalgi bekatni eshik tomon olib o‘tib, o‘rniga keyingisini olib chiqib qo‘yadilar.)

Shu bilan Chilonzor yo‘li bo‘yicha bo‘lgan metro bekatlari va ular haqida ma‘lumotlar beriladi. O‘yin so‘nggida quyidagi so‘zlar magnitofon orqali yangraydi:

„Hurmatli yo‘lovchilar, shuning bilan metro bo‘ylab sayohatimiz yakunlandi. O‘ylaymanki, sayohatimiz sizga yoqdi. Kelgusi safar metroda uchrashguncha xayr, salomat bo‘ling“.

III. Dars davomida o‘quvchilarning olgan baholari e‘lon qilinadi.

VI. Uygа „Toshkent metrosi“ matnini o‘qib, kitobda berilgan topishmoqning javobini topish, yangi so‘zlarni daftarlariga yozib kelish topshirig‘i beriladi.

7- darsning mavzusi: Erkin Vohidovning „O‘lka“ she‘ri.

Darsning maqsadi: 1. O‘quvchilarni O‘zbekistonga munosib farzand qilib tarbiyalash.

2. She‘r orqali o‘quvchilar qalbida Vatanga bo‘lgan mehrni orttirish.

3. Vatan haqidagi bilimlarini kengaytirish.

Darsning turi: umumlashtiruvchi.

Dars uslubi: aralash, ko‘rsatmali.

Dars jihozlari: O‘zbekistonning go‘zal manzaralari, dala-bog‘lari tasvirlangan rasmlar, tarqatma didaktik materiallar, magnitofon.

I. Darsni tashkil qilish. Uygа berilgan topshiriqni tekshirish. O‘tilgan mavzuni tarqatma didaktik topshiriqlar yordamida mustahkamlash.

1- kartochka. Yer osti temiryo‘li nima?

2- kartochka. Metro bekatlarini sanab o‘ting.

3- kartochka. „O‘zbekiston“ yo‘liga qaysi bekatdan o‘tiladi? Javobni matndan topib o‘qing.

4- kartochka. Metroning yana qanday yo‘nalishlarini bilasiz?

Jismoniy daqiqa o‘tkazish.

II. Erkin Vohidovning „O‘lka“ she‘ri bilan o‘quvchilarni tanishtirish. She‘mi ifodali, qiroat bilan, mayin musiqa sadosi ostida o‘qib berish.

Yangi so‘zlarning ma‘nosini izohlab, lug‘at daftarlariga yozdirish:

qalbda — yurakda
jismimda — tanamda
koinot — osmon
madhing — maqtoving

She'r mazmunini o'lkamizning go'zal manzaralari tasvirlangan rasmlar yordamida yoritish.

III. She'rni o'quvchilarga o'qitish va mazmunini savol-javob yordamida mustahkamlash.

IV. Dars davomida o'quvchilarni darsdagi ishtirokiga qarab baholash va baholarini e'lon qilish.

V. Uyga she'rni yod olib kelishni topshirish.

8- darsning mavzusi: „**Hikoyat**“ (*Alisher Navoiyning „Saddi Iskandariy“ dostonidan*).

Darsning maqsadi: I. O'quvchilarda ozodlikni his etish tuyg'usini tarbiyalash.

2. Hikoyat orqali o'z yurtiga bo'lgan mehri oshirish.

3. Bilim, ko'nikmalarini rivojlantirish.

Darsning turi: umumlashtiruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko'rsatmali.

Dars jihozlari: mavzuga oid rasmlar.

I. Darsni tashkil etish. Uyga berilgan Erkin Vohidovning „O'lka“ she'rini yoddan so'rab baholash. O'tilgan mavzularni savol-javob orqali mustahkamlash:

— Vatan qayerdan boshlanar ekan?

— Tug'ilib o'sgan yerimizni nima uchun ardoqlaymiz?

(Bu savol orqali o'quvchilar orasida bahs-munozara uyushtiriladi.)

II. Yangi mavzu — Alisher Navoiyning „Saddi Iskandariy“ dostonidan olingan „Hikoyat“ni o'tilgan mavzuga bog'lagan holda, hikoyat mazmuni asosida ishlangan rasmlar yordamida gapirib berish va hikoyatni o'quvchilarga navbatma-navbat o'qitish, tushunilishi qiyin so'zlarni ajratib, ma'nosini tushuntirish va lug'at daftarlariga yozdirish:

masofa — yo'l

fursat — vaqt

vayrona — buzilib ketgan

xurramlik — xursandlik

III. Hikoyat mazmunini savol-javob yordamida mustahkamlash:

- Hikoyatdagi kabutar qayerda yashardi?
- Kabutar qafasdan qutulib, qaysi tomonga uchdi?
- Kishilar nima qilmoqchi bo'ldilar?
- Hikoyat qanday yakunlangan?

IV. O'quvchilarni baholab, baholarini e'lon qilish.

V. Matnni o'qib, kabutar rasmini chizib kelishni uyga vazifa qilib topshirish.

9- darsning mavzusi: „El-yurt uchun kurashgan insonlar“.

Darsning maqsadi: 1. Qahramon ajdodlarimiz timsolida o'quvchilarni el-yurtiga sadoqatli, mard, jasur qilib tarbiyalash.

2. Ajdodlarimizning ko'rsatgan qahramonliklari haqida tushuncha berish.

3. O'quvchilarning vatanimiz tarixiga oid bilimlarini kengaytirish.

Darsning turi: umumlashtiruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko'rsatmali.

Dars jihozlari: tarixiy shaxslar tasvirlangan rasmlar.

I. Darsni tashkil qilish. Uyga berilgan „Hikoyat“ mazmunini so'rab, chizib kelgan rasmlarini baholash.

Jismoniy daqiqa o'tkazish.

II. Yangi — „El-yurt uchun kurashgan insonlar“ mavzusining mazmunini rasmlar yordamida yoritib berish. Matnni o'qib, o'zlashtirilishi qiyin so'zlar ustida ishlash:

yov — dushman

larzaga solmoq — kuchli ovozdan silkinish, titrash

sarosima — qo'rquv

tadbirli — ishbilarmon

III. Matn mazmunini savol-javob orqali mustahkamlash:

— O'qituvchi nimalar va kimlar haqida gapirib berdi?

— Kimlar ozodlik uchun kurashganlar?

— Amir Temur bobomiz dushmanini qanday qilib yenggan ekanlar?

— Vatanimiz tinchligi va ozodligi yo'lida kurashgan kishilardan yana kimlarni bilasiz?

— Vatan uchun jon fido qilgan ajdodlarimizga qanday munosabatda bo'lishimiz va ulardan nimalarni o'rganishimiz kerak?

IV. Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarni baholash va baholarini e'lon qilish.

V. Uyg'a matnni o'qib, tarixda qahramonliklar ko'rsatgan ajdodlarimiz haqida bilib kelishni topshirish.

10- darsning mavzusi: „Sohibqiron bobomiz“ (*Muxtor Xudoyqulov she'ri*).

Darsning maqsadi: 1. She'r orqali o'quvchilar qalbida Amir Temur bobomizga nisbatan mehr, minnatdorlik his-sini tarbiyalash.

2. Sohibqiron bobomizning hayotlari va qahramonliklari haqida yangi bilimlar berish.

3. Bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish.

Darsning turi: umumlashtiruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko'rgazmali.

Dars jihozlari: Amir Temur tasvirlangan rasmlar, test savollari.

I. Darsni tashkil etish. O'tilgan mavzu yuzasidan test o'tkazish:

1. O'qituvchi nimalar haqida gapirib berdi?

a) tarixda nom qoldirgan buyuk insonlar hayoti haqida;

b) Amir Temur haqida;

c) o'zi haqida.

2. Qaysi qatorda tarixda yaxshi nom qoldirgan ajdodlarimiz nomlari to'g'ri berilgan?

- a) Alpomish, Aziz, Nargiza;
- b) Amir Temur, Shiroq, Malika;
- c) Alpomish, Amir Temur, Shiroq, To'maris, Pahlavon Mahmud, Najmiddin Kubro.

3. Amir Temur dushmanni qanday yengdi?

- a) sulh tuzib;
- b) hiyla ishlatib;
- c) kuch bilan.

4. To'maris kim bo'lgan?

- a) malika;
- b) kanizak;
- c) jangchi.

5. Alpomish qanday yigit bo'lgan?

- a) qo'rqmas;
- b) jasur, aqlli, shoir;
- c) jasur, aqlli, mergan, kuchli.

6. Biz ajdodlarimiz bilan

- a) faxrlanamiz;
- b) maqtanamiz;
- c) quvonamiz.

Javoblar yig'ib olingach, o'tilgan mavzu qisqacha mustahkamlanadi.

Jismoniy daqiqa o'tkaziladi.

II. Yangi mavzuni avvalgisiga bog'lagan holda, buyuk bobomiz Amir Temur tasvirlangan rasmlar orqali ular haqida yangi ma'lumotlar berib, „Sohibqiron bobomiz“ she'ri bilan o'quvchilarni tanishtirish.

She'rni qiroat bilan o'qib, mazmuni tahlil qilinadi. Yangi so'zlar lug'at daftariga yoziladi:

jasur — qo'rqmas
kalomi — aytgan so'zi
charog'bon — ilm tarqatuvchi
ma'rifat — ilm

III. She'r yuzasidan savol-javob o'tkazish orqali o'quvchilar bilimlarini mustahkamlash:

— She'r kim haqida ekan?

— She'rda Amir Temurning qanday xislatlari ifodalangan?

— Amir Temur bobomiz yana qanday qahramonliklar ko'rsatganlar?

She'rni o'quvchilarga o'qitish.

IV. O'quvchilarni darsda qatnashganlariga qarab baholash va baholarini e'lon qilish.

V. Uyga she'rni ifodali o'qish va yod olish topshiriladi.

11- darsning mavzusi: „**Mirzo Ulug'bek**“ (*Muxtor Xudoyqulov she'ri*).

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarda buyuk ajdodlarimiz kabi jasoratni, aql-farosatni, iroda va matonatni tarbiyalash.

2. O'quvchilarga buyuk bobomiz Mirzo Ulug'bekning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot berish.

3. Buyuk ajdodlarimiz haqidagi bilimlarini kengaytirish.

Darsning turi: umumlashtiruvchi, noan'anaviy.

Darsning uslubi: aralash, ko'rsatmali, o'yin.

Dars jihozlari: mavzuga oid rasmlar, tarqatma didaktik materiallar.

I. Darsni tashkil qilish. Uyga berilgan topshiriqni so'rab baholash. O'tilgan mavzularni o'yin orqali mustahkamlash.

Sinfdagi o'quvchilar 3 guruhga bo'linadi. So'ng har bir guruhga klaster usulida topshiriqlar beriladi. Topshiriq doskada har bir qator ro'parasiga vatman qog'ozga yoki avvaldan doskaga chizib qo'yiladi:

1- qatorga:



2- qatorga:



3- qatorga:



O'yin boshlanishi bilan har bir qatordan tartib bilan bittadan o'quvchi chiqib, 1 ta javobni katakchaga yozadi va keyingi o'quvchi chiqadi... Shu tariqa katakchalar to'lguncha o'quvchilar birin-ketin chiqib, bittadan javoblarni yozadilar. Topshiriqni birinchi bo'lib va to'g'ri bajargan qatorga yulduzcha, ikkinchi bo'lib bajargan qatorga to'rtburchak va uchinchi bajargan qatorga uchburchak berilib, o'yinga yakun yasaladi.

II. Yangi mavzu — Muxtor Xudoyqulovning „Mirzo Ulug'bek“ she'ri o'tgan mavzuga bog'lagan holda o'tiladi:

— Bolajonlar, mana biz sizlar bilan shu kunga qadar bir qancha buyuk ajdodlarimiz haqida ma'lumotlarga ega bo'ldik. Bugun sizlar bilan yulduzlar va koinot sirlarini kashf etib, o'rganib, o'z asarlarida bizlarga meros qilib qoldirgan buyuk olim Mirzo Ulug'bek bobomizning hayotlari bilan qisqacha tanishamiz va Muxtor Xudoyqulovning „Mirzo Ulug'bek“ she'rini o'qiyimiz.

Doskada Mirzo Ulug'bek tasvirlangan rasmni ko'rsatib, u haqida ma'lumot beriladi:

— Mana bu siz ko'rib turgan suratda Mirzo Ulug'bek bobomiz tasvirlanganlar. Mirzo Ulug'bekning bobosi Amir Temur bo'lib, ularga bobosidan mardlik, shon-shuhrat, taxt meros bo'lib qolgan. Ular hayotda o'ta kamtarin, san'at va ilmni qadrllovchi, mehribon, oqko'ngil inson bo'lganlar.

Ulug'bek bobomiz shoh bo'lish bilan birga, ilm bilan ham shug'ullanganlar, yulduzlar va koinot sirlarini o'rganganlar. Ular hukmdorlik qilganlarida ilm, madaniyat yanada rivojlangan. Ammo ularning dushmanlari ko'p bo'lib, bobomizning bevaqt hayotdan ketishlariga sabab bo'lganlar. Bunday yovuz odamlar Mirzo Ulug'bekning joniga qasd qilgan bo'lsalar-da, bobomizning nomlarini, bizga qoldirgan meroslarini yo'q qila olmadilar. Xalqimiz Ulug'bek bobomizni unutmagan yo'q. Metro bekati, tuman, ko'chalar va boshqa joylarga ularning nomlari qo'yilgan. Mirzo Ulug'bek xotirasiga o'rnatilgan haykallar ham O'zbekistonning deyarli barcha shaharlarida bor. Keling, ushbu she'r bilan tanishaylik.

She'r ifodali, qiroat bilan o'qiladi.

Jismoniy daqiqa o'tkaziladi.

III. She'rni o'quvchilarga o'qitiladi va darsdagi ishtiroklariga qarab baholanib, e'lon qilinadi.

IV. Uyga she'rni yod olish topshirig'i beriladi va dars yakunlanadi.

12- darsning mavzusi: „Karnaychi shoh“.

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarda ziyraklik, tadbirkorlikni tarbiyalash.

2. Qissadan hissa chiqargan holda, uning mohiyatini o'quvchilarga singdirish.

3. O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish.

Darsning turi: umumlashtiruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko'rgazmali.

Dars jihozlari: mavzuga oid plakat rasmlar, magnitofon.

I. Darsni tashkil etish va uyga berilgan she'rni so'rab baholash. O'tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o'tkazish orqali takrorlash:

— Mirzo Ulug'bek bobomiz kim bo'lganlar?

— Mirzo Ulug'bekning bobosi kim?

— Ulug'bek bobomiz nimalarni o'rganganlar va nimalarni meros qoldirganlar?

— Qayerlar Mirzo Ulug'bek nomi bilan atalgan?

— Ulug'bek bobomizning qanday fazilatleri bo'lgan?

— Biz tarixda o'tgan buyuk ajdodlarimizga munosib avlod bo'lish uchun nimalar qilishimiz kerak?

Jismoniy daqiqa o'tkazish.

II. Yangi mavzu. „Karnaychi shoh“ hikoyasining mazmunini rasmlar yordamida o'quvchilarga gapirib berish. Uni o'quvchilarga o'qitish. Lug'at bilan ishlash:

yov — dushman

jon fido qilish — hayotini berish

tahlika — qo'rquv

pahlavon — dovyurak, kuchli

III. Mavzuni savol-javob yordamida mustahkamlash:

- Jahongir shoh qanday odam ekan?
- Uning yurtiga kim kelayotgan edi?
- Shoh dushmanlarni yengish uchun qanday reja tuzibdi?
- U mamlakatni yovdan qanday saqlab qolibdi?
- Bu hissadan siz o'zingizga qanday xulosa chiqardingiz?

IV. Faol o'quvchilarni baholash va e'lon qilish.

V. Hikoyani o'qib, karnay rasmini chizib kelishni topshirib, darsni yakunlash.

13- darsning mavzusi: „Yur, tog'larga“ (*Usmon Nosir she'ri*).

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarni tabiatni sevish va qadrlashga o'rgatish.

2. She'r orqali tabiat go'zalliklari haqida yangi tushunchalar berish.

3. Ifodali, yaxshi o'qish va yodlash malakasini rivojlantirish.

Darsning turi: umumlashtiruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko'rsatmali.

Dars jihozlari: mavzuga oid rasmlar.

I. Darsni tashkil etish. Uyga berilgan „Karnaychi shoh“ hikoyasini o'qitish. Rasmlar tanlovini o'tkazish. O'quvchilar bilan hikoya yuzasidan savol-javob o'tkazib, qissadan hissa chiqarish, ya'ni ishbilarmon bo'lish, hech tushkunlikka tushmasdan aql bilan ish ko'rishga o'rgatish.

Jismoniy daqiqa o'tkazish.

II. Yangi mavzuni o'tishdan avval manzarali plakat rasmlarni namoyish qilib, tabiat go'zalliklari va ularga qanday munosabatda bo'lish kerakligi haqida o'quvchilar bilan suhbat uyushtirish. So'ng tog'lar haqida gapirib turib, yangi mavzu — Usmon Nosirning „Yur, tog'larga“ she'rini ifodali, qiroat bilan o'qib eshittirish. She'r mazmunini yoritish va lug'at ishi o'tkazish:

olmos — qimmatbaho tosh

g'oya — fikr

o'ta — juda

III. She'rni o'quvchilarga o'qitib, she'r mazmuni yuzasidan savol-javob o'tkazish:

— She'r nima haqida ekan?

— Tog'dagi qorlar nimaga o'xshatilgan?

— Yoshlar haqida nimalar deyilgan?

— Tabiatdagi yana qanday go'zal joylarni bilasiz?

— Biz tabiatga qanday munosabatda bo'lishimiz kerak?

IV. Darsda faol qatnashgan o'quvchilarni baholash va baholarini e'lon qilish.

V. Uyg'a vazifa qilib she'rni yodlash topshirig'ini berish va darsni yakunlash.

14- darsning mavzusi: „Tilagim“ (*Yo'ldosh Sulaymon she'ri*).

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarni maqsad sari intilishga o'rgatish.

2. O'yin orqali o'quvchilar bilimni mustahkamlash.

3. Bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Darsning turi: noan'anaviy.

Darsning uslubi: aralash, ko'rsatmali, o'yin.

Dars jihozlari: bo'limdagi mavzularga oid plakat rasmlar, magnitofon, tarqatma didaktik materiallar.

I. Darsni tashkil etish. O'tilgan mavzularni takrorlab mustahkamlash va yangi mavzuni o'yin orqali o'tish: sinfdagi o'quvchilar 3 guruhga bo'linadi. Shu kungacha o'tilgan mavzularga oid plakat, rasmlarni tayyorlab doskaga ketma-ket ilib qo'yilgan bo'ladi va o'qituvchi har bir mavzudan bir parchani o'qib, gapirib beradi yoki magnit tasmasi orqali eshittiradi. O'tilgan mavzularni takrorlash o'yin vositasida o'tkaziladi. O'yin orqali bo'limda o'tilgan barcha mavzularni eslab, yangi mavzuga yetib boriladi va tanishtiriladi.

O'yinning shartlari quyidagicha:

O'yin boshlanishi bilan o'qituvchi tomonidan magnitofonga yozib olingan bir parcha eshittiriladi va qaysi qatordan kim birinchi qo'l kotarsa, o'sha o'quvchi doskaga chiqib,

parcha qaysi mavzuga tegishli ekanini va doskadagi rasmlardan qay biri shu mavzuga oid ekanligini ko'rsatadi. Javobi to'g'ri bo'lsa, qizil yulduzcha olib o'tiradi. Agar javobi chala yoki noaniq bo'lsa, boshqa o'quvchilardan yordam so'raladi va to'ldirgan o'quvchiga sariq doiracha beriladi. Shu tariqa o'yin oxirigacha davom etadi va o'yin so'ngida yangi mavzuga, ya'ni manzilga yetib kelinadi va uni eshittiriladi.

O'yin tugagach, har bir guruhning ballari, yig'gan figuralari hisoblanadi va g'oliblar aniqlanib, e'lon qilinadi. Ballar: qizil yulduzcha — „5“ b., ko'k to'rtburchak — „4“ b., yashil uchburchak — „3“ b., sariq doira — „1“ b. Guruhlarga 1, 2 va 3- o'rinlar beriladi.

Agar guruhlarning natijalari teng bo'lsa, u holda shu guruhdagi barcha o'quvchilardan o'tgan darsda o'tilgan she'rni yoddan so'raladi va qaysi qatordagi o'quvchilar to'liq va yaxshi yodlab bersalar, shu guruh g'olib bo'ladi.

II. O'quvchilar javoblariga qarab baholanadi va baholari e'lon qilinadi.

III. Uyga she'rni yodlab kelish topshirilib, darsga yakun yasaladi.

Har bir bo'limda berilgan materiallarni o'rganish va tahlil qilishda quyidagilarga e'tibor berish lozim: har bir asarda uchraydigan tasviriy vositalarning mazmuni izohlanadi, o'quvchilar uchun notanish va o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi. Har bir darsda foydalaniladigan ko'rgazmali qurollar va texnik vositalar avvaldan hozirlab qo'yiladi.

Quyida 1- bo'lim yuzasidan ana shu ko'rsatmalar jadvali berildi.

Dars soat-lari	Mavzu	Tasviriy vositalar	Lugʻat	Koʻrgazmali qurollar va texnik vositalar
1	„Oʻzbekiston“	<i>nurli boʻston, hur guliston, erkalanib togʻlari yotar</i>	<i>voris, giyoh</i>	Oʻzbekistonning shahar va qishloqlari manzarasi
2	„Oʻzbekiston— mening vatanim“	<i>keng, bepoyon, koʻrkamlashmoqda</i>	<i>bepoyon, vodiy</i>	Vatanimizdagi xushmanzara joylarning rasmi, diafilm, tarqatma didaktik materiallar
3	„Vatan“. <i>N. Orifjonov</i>	<i>istiqlol</i>		
4	„Istiqlol“. <i>J. Jabborov</i>	<i>shahri gulshan, maʼvosi</i>	<i>maʼvosi, gavhar</i>	Mustaqillik yillarida bunyod etilgan binolar, inshootlar
5	„Humo qushi“. <i>P. Moʻmin</i>	<i>parvoz aylab, yarqiragan peshonasan</i>	<i>ziyo qushim, eʼzoz, samo</i>	Humo qushi tasvirlangan rasmlar
6	„Toshkent“	<i>zilol suvlar, goʻzal xiyobonlar</i>	<i>husni, taʼlim, namoyish, mashhur, aeroport, vokzal</i>	Toshkent shahrining koʻrinishi tasvirlangan rasmlar, albom va kitoblar
7	„Toshkent metrosi“	<i>milliy naqshlar</i>	<i>bekat, poyezd, manzil, koʻrkam, bir zumda</i>	Metro bekatlarining rasmlari, tarqatma didaktik materiallar

8	„O'lka“	<i>madhing, etak-erak olib koinot, yulduzlarni sochar boshingdan</i>	<i>qalbda, madhing, jilmayadi, koinot</i>	Go'zal o'lkamiz tasvirlangan rasmlar, diafilm, tarqatma didaktik materiallar
9	„Hikoyat“	<i>parvoz qilganda, shod-xurram, o'z vayronasi</i>	<i>masofa, qanot-quyrug'i, zulm, xurram, oz fursatda, vayrona</i>	Hikoyat mazmuniga oid rasmlar
10	„El-yurt uchun kurashgan insonlar“	<i>tahlikaga tushgan, jon fido qilgan, buyuk zotlar</i>	<i>pahlavon, mo'g'ul, tahlika, yov, fido qilmoq</i>	Matnga oid rasmlar
11	„Sohibqiron bobomiz“. „Mirzo Ulug'bek“. <i>M. Xudoyqulov</i>	<i>Jang-u jadallar kezgan, Ulug' davlat—yurt tuzgan</i>	<i>jasur, kalomi, marifat, charog'boni, johillar</i>	Amir Temur, Mirzo Ulug'bek hayotiga doir rasmlar, tarqatma didaktik materiallar
12	„Karnaychi shoh“, „Yur tog'larga“. <i>Usmon Nosir</i> Bo'lim yuzasidan savol va topshiriqlar	<i>xuddi qora bulutday, butun borliqni larzaga keltiribdi</i>	<i>tadbirli ish, tadbirkor, yangrabdi, san'at</i>	Yurtimiz manzaralari tasvirlangan rasmlar



II BO'LIM

Oltin kuz — hosiling yuz

1- darsning mavzusi: „Kuz“, „Kuz tabiati“.

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarni mehnatsevarlikka va boshqalarning mehnatini qadrlashga o'rgatish.

2. Kuz fasli haqidagi bilimlarini kengaytirish.

3. Bilim va malakalarini rivojlantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko'rgazmali.

Dars jihozlari: mavzuga oid rasmlar, kuz ne'matlari namunalari.

I. Darsni tashkil qilish. Yangi „Oltin kuz — hosiling yuz“ bo'limi bilan o'quvchilarni tanishtirish, maqol mazmunini yoritish. Rasmlar yordamida suhbat uyushtirish:

— Rasmda qaysi fasl tasvirlangan?

— Kuzda ob-havo qanday bo'ladi?

— O'lkamizda hozir qaysi fasl hukmron?

— Kuzda nimalar pishadi?

— Kuz fasli oxirlarida qanday o'zgarishlar bo'ladi? Nima uchun?

Kuz, kuz tabiati, ob-havosi va boshqa o'zgarishlar, kuzgi ne'matlar haqida o'quvchilarning javoblarini to'ldirgan holda tushunchalar berish. Kuzda pishadigan mevalardan namunalar ko'rsatib, ma'lumotlar berib, o'quvchilardan ular haqida topishmoqlar so'rash.

Erkin Vohidovning „Olma“, „Gilos“ she'rlarini o'qib, bu mevalardan qay biri kuzda pishmasligini o'quvchilardan so'rab, u haqida ma'lumot berish.

Jismoniy daqiqa o'tkazish.

II. „Kuz“, „Kuz tabiati“ matnlarini o'quvchilarga o'qitish va yangi so'zlarni tushuntirish. Matnlar yuzasidan savol-javob o'tkazish:

— Kuz qaysi fasldan so'ng keladi?

— Kuzda tabiatda qanday o'zgarishlar bo'ladi?

— Nima uchun qushlar issiq o'lkalarga uchib ketadi?

— Qaysi qushlar o'lkamizda qoladi?

III. Dars davomida faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholab, baholarini e'lon qilish.

IV. Uyga Erkin Vohidovning „Olma“, „Gilos“ she'r-larini yodlab, berilgan topishmoqlarning javobini topish va ular asosida rasmlar chizib kelish, tabiatni kuzatish kundaligini to'ldirish topshiriqlari beriladi.

2- darsning mavzusi: „Dehqonbobo“ hikoyasi.

Darsning maqsadi: 1. Ushbu hikoya orqali o'quvchilarni mehnatsevarlikka, har bir ishni o'z vaqtida bajarishga va boshqalar mehnatini qadrlashga o'rgatish.

2. Dehqonchilik va uning mehnati haqida tushunchalar berish.

3. Dehqonchilikka oid bilimlarini rivojlantirish.

Darsning turi: umumlashtiruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko'rgazmali.

Dars jihozlari: mavzuga oid plakatlar, rasmlar, tarqatma didaktik topshiriqlar.

I. Darsni tashkil qilish va uyga yodlash uchun berilgan she'rni so'rab baholash. Jismoniy daqiqa o'tkazish.

Savol-javob orqali o'tilganlar takrorlanadi.

II. Yangi mavzu — „Dehqonbobo“ hikoyasini suhbat-ga ulagan holda plakat, rasmlar yordamida o'tish.

— ...Demak, kuz oylarida dehqonlarimizning ishlari yanada ko'payar ekan. Ular pishgan meva, sabzavotlarni, bug'doy, paxtalarni yig'ib olib, yerni kelasi yil ekin ekishga tayyorlab qo'yishar ekan. Dehqonlarimiz yil davomida tinim bilmay mehnat qiladilar. Faqatgina qish oylarida ma'lum vaqt dam olib, bahorgi ishlarni o'z vaqtida bajarish uchun kuch yig'adilar. „Har bir ishning o'z vaqti bor“, „Qolgan ishga qor yog'ar“ deb dono xalqimiz bejiz aytmagan. Sababi, har bir ish o'z vaqtida bajarilsa, kutilgan natijaga erishiladi va ortiqcha kuch va vaqt sarflanmaydi. Ayniqsa, dehqonlar o'z vaqtida yer haydab, ekin ekmasalar, hosil yaxshi bo'lmaydi. Ularning qilgan mehnatlari zoye ketadi.

Bugun biz siz bilan tanishadigan „Dehqonbobo“ hikoyasi ham aynan shu haqida...

III. Hikoyani o'quvchilarga o'qitish, lug'at ishi o'tkazish:

ombor — yig'ilgan hosil saqlanadigan joy
farovon — mo'l-ko'l, to'q
ranjibdilar — xafa bo'libdilar
quvvatim — kuchim

Jismoniy daqiqa o'tkazish.

Tarqatma didaktik materiallar, ya'ni turli meva va sabzavotlarning rasmlarini tarqatib, o'quvchilardan ularning shakli, mazasi va qayerda o'sishi kabi savollarga javob olinadi. Har bir o'quvchi biror meva yoki sabzavot haqida gapirib bo'lgach, shu meva haqida topishmoq aytadi.

IV. Yangi mavzuga yakun yasab, darsda faol qatnashgan o'quvchilar baholanadi, baholari e'lon qilinadi.

V. Uyga hikoyani o'qib, mehnat haqida maqollar topib kelishni topshirib, dars yakunlanadi.

4- darsning mavzusi: Kuz ne'matlari.

Darsning maqsadi: 1. Daraxtlarning shox va butoqlarini sindirmaslikni, ularni parvarishlashni o'rgatish. 2. Kuz ne'matlari haqida, ularning foydasi haqida ma'lumotlar berish. 3. O'quvchilarning bilim va malakalarini oshirish.

Darsning turi: umumlashtiruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko'rsatmali, o'yin.

Darsning jihozlari: kuzda pishadigan meva va sabzavotlardan namunalar va ularning rasmlari, plakat, boshqotirmalar.

I. Darsni tashkil etish. Uyga berilgan „Dehqonbobo“ ertagini obrazlarga bo'lib o'qitish va uning mazmuni yuzasidan savol-javob o'tkazish:

1. Dehqonbobo insonlarga qanday nasihat qilar ekanlar?
2. Dalada kimni ko'rib qolibdilar?
3. U kishi nima qilayotgan edi?
4. Bu hikoyaning mazmuni siz o'qigan qaysi ertakka o'xshaydi?


So'ng uyga berilgan mehnat haqidagi maqollarni so'rash va jismoniy daqiqa o'tkazish.

II. Yangi mavzu — „Kuz ne'matlari“ matnining mazmunini rasmlar yordamida tushuntirish va matnни o'quvchilarga o'qitish.

III. Kuzda pishadigan boshqa meva, sabzavot va o'simliklar haqida qisqacha tushunchalar berib, o'yin tashkil etish. O'yin shartlari quyidagicha: sinf 3 guruhga bo'linadi.


Har bir guruhga doskada bittadan boshqotirma beriladi. Masalan:

1- guruhga. Boshqotirmada yashiringan mevalarning nomini toping.




Javoblar: 1) behi, 2) o'rik, 3) olcha, 4) xurmo, 5) apelsin, 6) kivi, 7) olma.

2- guruhga. Boshqotirmada yashiringan sabzavotlar nomlarini toping.



Javoblar: 1) turp, 2) qovoq, 3) karam, 4) piyoz, 5) rediska, 6) kartoshka, 7) bodring.

3- guruhga. Boshqotirmada yashiringan poliz ekinlari va mevalar nomlarini toping.



Javoblar: 1) olxo'ri, 2) tarvuz, 3) qovoq, 4) uzum, 5) limon, 6) anor, 7) qovun.

O'yin shartlari quyidagicha: vaqt belgilanib, o'yin boshlanadi. 5 daqiqa ichida har bir qatordan bittadan o'quvchilar navbatma-navbat chiqib, bilgan javobini yozib, o'tiradi va vaqt tugagach javoblar tekshiriladi va eng ko'p javob topgan guruh g'olib hisoblanadi.

IV. Darsda faol qatnashgan o'quvchilar baholanib, e'lon qilinadi.

V. Uyg'a „Kuz ne'matlari“ matnini o'qib, yong'oq va boshqa kuz ne'matlarining rasmini chizib, ular haqida topishmoqlar topib kelish vazifasi beriladi.

5- darsning mavzusi: „Bog'da“, „Mehnat“ she'rlari.

Darsning maqsadi: 1. „Mehnat — mehnatning tagi rohat“ maqoli mazmunini yoritish orqali o'quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash.

2. Bog'da qilinadigan mehnat bilan tanishtirish.

3. O'quvchilarning mehnat qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Darsning turi: umumlashtiruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko'rsatmali.

Darsning jihozi: bog' va bog'dagi yig'im-terim ishlari tasvirlangan plakat, rasmlar, tarqatma test savollari, magnitifon.

I. Darsni tashkil etish. Uyga berilgan topshiriqlarni tekshirish va matnni o'qitish. O'tilgan mavzular yuzasidan test o'tkazish. Test savollari o'quvchilarga tarqatiladi va vaqt beriladi. Har bir o'quvchiga 4 tadan test beriladi.

Test namunalari:

1. Mehnat qilsang, ...
 - a) ... rohat ko'rasan;
 - b) ... zahmat chekasan;
 - c) rohatlanasan.
2. Qaysi mevalar kuzda pishadi?
 - a) anor, gilos;
 - b) anor, xurmo;
 - c) olma, olcha.
3. Topishmoqning javobini top: *Yer tagida oltin qoziq.*
 - a) bodring;
 - b) sabzi;
 - c) qovoq.
4. Qaysi qatorda quyosh haqida topishmoq berilgan:
 - a) „Oltin sandiq ochildi, ichidan zar sochildi“;
 - b) „O'zi bitta, ko'zi mingta“;
 - c) „Pak-pakana dekcha, ichi to'la mixcha“.
5. Kuzda barglar ...
 - a) qizaradi;
 - b) ko'karadi;
 - c) sarg'ayadi.
6. Daraxtda pishadigan mevalar qaysi qatorda berilgan?
 - a) uzum, olma, gilos;
 - b) nok, olma, olcha, gilos;
 - s) qulupnay, olcha.
7. Kuzda havo qanday bo'ladi?
 - a) issiq;
 - b) sovuq;
 - c) iliq.

8. O'zbekistonning faxri bo'lgan o'simlik.
- a) paxta;
 - b) olma;
 - c) gul.
9. Qaysi qatorda don mahsulotlari berilgan?
- a) bug'doy, tuz, tosh;
 - b) bug'doy, guruch;
 - c) bug'doy, shakar, guruch.
10. Un qaysi dondan olinadi?
- a) guruch;
 - b) tosh;
 - c) bug'doy.
11. Suvda suzadigan parrandalar...
- a) tovuq, xo'roz;
 - b) o'rdak, g'oz;
 - c) g'oz, xo'roz.
12. O'rikni quritib nima tayyorlanadi?
- a) turshak;
 - b) kulcha;
 - c) qoqi.
13. „Qavat-qavat ko'ylagi bor, tugmasi yo'q“, bu ...
- a) bodring;
 - b) karam;
 - c) piyoz.
14. Eng ertangi yong'oq necha yilda hosilga kiradi?
- a) 5—6 yilda;
 - b) 1—2 yilda;
 - c) 2—3 yilda.
15. Qaysi qatorda gullar nomlari berilgan?
- a) atirgul, chinnigul, shivit;
 - b) atirgul, chinnigul, karnaygul;
 - c) atirgul, rayhon, nilufar.

16. Qaysi qatorda uy hayvonlari berilgan?

- a) mushuk, sichqon, tulki;
- b) mushuk, it, bo'ri;
- c) mushuk, it, sigir ... va hokazo.

O'tilgan mavzular qisqacha takrorlanib, jismoniy daqiqa o'tkaziladi.

II. Yangi mavzu — Qambar otaning „Bog'da“ va G'ani Abdullayevning „Mehnat“ she'rlarini o'tishdan avval bog' va bog'da qilinayotgan ishlar tasvirlangan rasmlardan foydalanib, suhbat uyushtirish.

Bolalar, bu rasmda nima tasvirlangan? U yerda qanday mevali daraxtlar bor?

— Bu rasmda bolalar nimalar qilyaptilar?

— Bog'da yana nimalar pishadi?

O'quvchilarning javoblaridan kelib chiqib, yangi mavzu bilan tanishtiriladi va „Bog'da“ she'ri magnitofon orqali eshittiriladi. Mazmuni yoritilib, lug'at ishi o'tkaziladi.

So'ng she'rni o'quvchilarga o'qitiladi va savol-javob orqali mustahkamlanadi:

1. Shoir nima uchun kuz faslini oltinga qiyos qiladi?

2. Maktabingiz bog'iga siz o'zingiz ko'chat o'tkazganmisiz?

3. Hosil olish uchun nimalar qilish kerak?

— Juda to'g'ri, mehnat qilish kerak. Hech bir narsaga mehnatsiz erishib bo'lmaydi. Masalan, yaxshi baho olish uchun ham mehnat qilishingiz kerak. Ovqat yeyish uchun ham uni pishirish kerak va hokazo. Mehnat qilishdan erinmaydigan, mehnatsevar kishilar o'z mehnatlari orqali baxtga, farovon hayotga, obro'-e'tiborga, hurmatga erishadilar. Bugun biz siz bilan tanishadigan yana bir she'r G'ani Abdullayevning „Mehnat“ she'ridir.

So'ng magnitofon orqali go'zal musiqa sadosi ostida „Mehnat“ she'ri yangraydi.

III. She'rni eshittirib bo'lgach, mazmuni yoritiladi va lug'at ishi bajariladi.

chin ixlos — astoydil mehr
qo'yish
undar — yetaklar

She'rni o'quvchilarga o'qitib, she'r yuzasidan savol-javob o'tkaziladi:

1. She'rda mehnat haqida nimalar deyilgan?
2. Baxtli bo'lish uchun nima qilish kerak?
3. Mehnat haqidagi maqollardan ayting.

IV. Darsda faol qatnashgan o'quvchilarga baho qo'yilib, e'lon qilinadi.

V. Uyg'a vazifa — „Bog'da“ she'rini o'qib, „Mehnat“ she'rini yodlab kelish topshiriladi va darsga yakun yasaladi.

6- darsning mavzusi: „Hosil bayrami“.

Darsning maqsadi: 1. Ziyraklik va hozirjavoblikka o'rgatish.

2. Meva, sabzavotlar haqidagi bilimlarini oshirish va mustahkamlash.

3. O'quvchilarda to'g'ri, aniq, ravon, bog'lanishli nutqni rivojlantirish.

Darsning turi: noan'anaviy.

Darsning uslubi: aralash, ko'rsatmali, o'yin.

Darsning jihozi: magnitofon, tarqatma didaktik materiallar, plakat, rasmlar.

I. Darsni tashkil etish. O'yin nomi va shartlari bilan tanishtirish. O'yin „Hosil bayrami“ deb nomlanib, shartlari quyidagilardan iborat:

1- s h a r t. Sinfidagi o'quvchilarga bittadan meva yoki sabzavotlarning rasmlari tarqatiladi. O'quvchilar shu tasvirlangan meva yoki savzavot haqida bilganlarini birma-bir gapiradilar. Masalan:

1- o'quvchi: „Bu olma, olma sariq, qizil, yashil ranglarda bo'ladi. U yozning oxiri, kuzning boshlarida pishadi. Olma daraxtda o'sadi. Olma ko'chatini bog'larga, hovli, ko'chalarga ekib, parvarish qilinadi“.

Agar barcha javoblari to'liq va to'g'ri bo'lsa, qizil doirachani qo'lga kiritib joyiga o'tiradi. Shu tariqa qolgan o'quvchilar ham biror meva yoki sabzavotga ta'rif berib, to'g'ri keladigan plakat tagiga joylab, javobiga qarab qizil, ko'k yoki sariq doirachani qo'lga kiritib, joyiga o'tiradi.

2- shart. Magnitofon orqali kuz ne'matlariga ta'rif beriladi. Qaysi o'quvchi birinchi va to'g'ri javob bersa, unga qizil doiracha beriladi. Shu tariqa 5—6 ta ta'rif eshittiriladi va javoblar olinadi.

3- shart. „Mehnat“ she'rini har bir o'quvchi o'rnidan turgan holda zanjir usulda 2 qatordan yoddan aytadilar. Kim aytolmay to'xtab qolsa yoki adashsa, joyiga o'tiradi, keyingi o'quvchi kelgan joyidan davom ettiradi.

4- shart. G'olibni aniqlash, bu shartda faqat turgan o'quvchilar ishtirok etadilar. Bunda o'qituvchi xohlagan o'quvchisiga biror meva, sabzavot yoki o'simlik nomini aytadi, o'quvchi esa o'qituvchi aytgan narsaning biror belgisini aytadi. Agar bu shartda o'quvchi darhol javob berolmay, 3—4 soniya o'ylab qolsa, u o'yindan chiqadi va joyiga o'tiradi. Shu tariqa 1 ta o'quvchi qolgunga qadar o'yin davom etadi.

G'olib rag'batlantirilib, o'yin yakunlanadi. Qolgan o'quvchilarga ham javoblariga qarab baho qo'yiladi.

II. Uyga kitobda berilgan tez aytishni yodlab, „Oltin kuz“ mavzusida berilgan reja asosida og'zaki hikoya tuzib kelishni topshirib, darsga yakun yasaladi.

7- darsning mavzusi: „O'quvchiga esdalik“. *Quddus Muhammadiy she'ri.*

Darsning maqsadi: 1. O'quv qurollarini qadrlashni o'rgatish.

2. Maktab, bilim olish, o'quvchilarning kelgusi hayotida ularning ahamiyati haqida tushuncha berish.

3. O'quvchilarning bilim va malakalarini rivojlantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko'rgazmali.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, o'quv qurollaridan namunalar, plakat, rebuslar.

I. Darsni tashkil etish. Uyg'a berilgan topshiriqni so'rab, baholash. Yangi bo'lim — „Maktabim — qutlug' makonim, Kitobim — oftobim“ bilan o'quvchilarni tanishtirish. Plakat rasmlar yordamida maktab haqida suhbat uyushtirish:

— Rasmda nima tasvirlangan? Maktabda nimalar qilasiz? O'z maktabingiz haqida ham ma'lumot bering.

Suhbat davomida o'quv qurollaridan namunalar ko'rsatib, ularning vazifalari va ulardan qanday foydalanish kerakligi so'ralib, baxs-munozara uyushtirish.

So'ng doskada o'quvchilar yechishi uchun plakat shaklida boshqotirmalar berish. Ularda o'quv qurollarining nomlari yashiringan bo'lishi kerak:

1. Berilgan predmetlarning faqat bosh harflari olinadi:



Javob: „*Ruchka*“ so'zi.

2. Berilgan predmet nomlaridan kerakli qismi olinadi:



Javoblar: *qalamdon, kitob.*

Javoblar topilgach (so'zlarni yozib, keraksiz harflar ustidan chiziq tortiladi), maktab, o'quv qurollari haqidagi suhbatga bog'lagan holda Quddus Muhammadiyning „O'quvchiga esdalik“ she'ri bilan tanishtiriladi. O'qituvchi she'rni ifodali qilib o'qiydi va mazmunini o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qiladi, lug'at ishi o'tkaziladi:

posbon — qo'riqchi
zehningni — e'tiboring, diqqatingni

Kitobdagi maqolning mazmuni izohlanadi.

II. O'quvchilarga she'rni o'qitish va she'r yuzasidan savollar yordamida suhbat o'tkazish:

— Orzuga erishish uchun nima qilish kerak ekan?

— O'quvchidan nima talab qilinadi?

III. Darsda faol qatnashgan o'quvchilarni baholab, baholarini e'lon qilish.

IV. Uyga she'rni yodlab kelishni topshirib, darsni yakunlash.

2- darsning mavzusi: „Kitob“ matni va „Kitob deydi“ she'ri.

Darsning maqsadi: 1. Kitobni saqlash qoidalarini o'rgatish.

2. „Kitob — aql chirog'i, bebaho boylik“ ekanligi va uning qadri haqida tushunchalar berish.

3. O'quvchilarda kitobning inson hayotidagi ahamiyati haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Darsning turi: umumlashtiruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko'rsatmali.

Darsning jihozi: kitob yaratilish jarayoni tasvirlangan rasmlar, turli hajm va mazmundagi kitoblardan namunalar, plakat boshqotirma.

1. Darsni tashkil etish. Uyga berilgan she'rni yoddan so'rash. O'tgan darsni savol-javob orqali takrorlash:

1. Maktab qanday dargoh?


2. Qanday o'quv qurollarini bilasiz?

3. Nima uchun „Kitob — xazina, bilim — boylik“ deymiz?

4. Qanday kitob turlarini bilasiz?

So'ng kitoblar haqidagi boshqotirma doskaga osiladi va o'quvchilar birgalashib yechadilar:

Boshqotirma:



Javoblar:

1) ertak

2) o'qish

3) matematika

4) odobnoma

5) alifbe

II. Yangi mavzu. „Kitob“ matni bo'yicha boshqotirma yechib bo'lingach, kitoblar haqida rasmlar asosida qisqacha gapirib, matn o'qib eshittiriladi, turli hajm va mazmundagi kitoblardan namunalar ko'rsatilib, ularning yaratilishi, ahamiyati rasmlar yordamida tushuntiriladi va „Kitob deydi“ she'ri bilan tanishtiriladi.

III. Yangi mavzu bo'yicha savol-javob o'tkazish:

1. Kitoblar avvallari qanday shakllarda edi, hozir-chi?
 2. Kitob tayyorlash ishlari haqida gapirib bering.
 3. Kitoblarni qanday saqlash kerak?
 4. Darsliklardan tashqari yana qanday kitoblarni bilasiz?
 5. Kitob haqida maqol va hikmatli so'zlar ayting.
- So'ng matn va she'r o'quvchilarga o'qitiladi.

IV. Darsda faol qatnashgan o'quvchilarni baholab, e'lon qilish.

V. Uyga matnni o'qib, „Kitob deydi“ she'rini yodlab kelish vazifasi topshiriladi.

3- darsning mavzusi: Rauf Tolibning „Orzular“ she'ri.

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarni orzu qilish va unga erishish uchun harakat qilishga o'rgatish.

2. She'r orqali tabiat go'zalligi haqida tushunchalar berish.

3. O'quvchilarning ona zamin haqidagi bilimlarini rivojlantirish.

Darsning turi: umumlashtiruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko'rsatmali.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, ya'ni tabiat, onayer, gullar, cho'llar, bug'doyzor, qushlar va hokazolarning rasmlari, magnitofon.

I. Darsni tashkil etish. Uyga berilgan she'rni yoddan so'rash, „Kitob“ matni yuzasidan savol-javob o'tkazish:

1. Kitobni nima uchun bilim koni deymiz?

2. Kitoblarning qanday turlarini bilasiz?

3. Matndan kitobning yaratilishi haqidagi qismini ajratib, o'qib bering.

4. Kitobni qanday tutish kerakligini ayting va matndagi o'gitlarni ajratib o'qing.

II. So'ng o'quvchilar bilan kitoblarning turlari haqida suhbatlashib, she'riy to'plamlardan namunalar ko'rsatib, she'rlar haqida ma'lumot beriladi va yangi mavzu, ya'ni Rauf Tolibning „Orzular“ she'ri bilan tanishtiriladi. Magnitofon orqali mayin musiqa sadosi ostida o'qilgan she'rni eshittirib, o'quvchilar bilan she'r mazmuni rasmlar yordamida tahlil qilinadi.

She'rni o'quvchilarga parta oralatib o'qitiladi.

III. She'r yuzasidan savol-javob o'tkaziladi:

1. She'rda daryo tilidan nima deyiladi?
2. Jonajon tabiatimizning yana qanday orzulari berilgan?
3. Bolalar va onalar qanday orzu qilar ekan?
4. Sizlarning qanday orzularingiz bor?

IV. Dars davomida faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholab, e'lon qilinadi.

V. Uyg'a she'rni ifodali o'qib, kichik kitobcha yasab kelish vazifasi topshiriladi. Kitob betlarini darslar davomida to'ldirilib borilishini aytib, dars yakunlanadi.

4- darsning mavzusi: „Mayib kitob“ hikoyasi.

Darsning maqsadi: 1. Kitoblarni yaxshi saqlashga o'rgatish.

2. Hikoya orqali kitobning bir sahifasida olam-olam yangilik bo'lishini va yetishmagan birgina bet qancha anglashilmovchilik tug'dirishini tushuntirish.

Darsning turi: umumlashtiruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko'rsatmali.

Darsning jihozi: mavzu yuzasidan rasmlar, test savollari, boshqotirma.

I. Darsni tashkil etish. She'rni o'quvchilarga parta oralatib o'qitish va uyda tayyorlab kelgan kitobchalarini ko'rib, baholash.

O'tilgan mavzularni savollar yordamida takrorlash.

II. So'ng yangi mavzu bilan tanishtiriladi.

Rasmlar yordamida hikoya mazmuni gapirib beriladi. Hikoyani o'quvchilarga parta oralab o'qitiladi va lug'at ishi o'tkaziladi.

xaroba kulba — juda eski uycha
sayyoh — sayohatga chiqqan kishi
sahifasi — varag'i

III. Mavzu yuzasidan savol-javob o'tkaziladi:

1. Kimlar safarga chiqqishibdi?
2. Sayyoh qanday hodisaga duch keldi?
3. Hikoyaning davomini nima uchun bila olishmadi?
4. Sizingcha hikoyaning davomi qanday bo'lgan?
5. Siz kitobdan qanday foydalanasiz?

Shundan so'ng muammoli savol berish orqali o'quvchilar bahsga chorlanadi.

IV. O'quvchilarni baholab, e'lon qilinadi.

V. Uyga hikoyani o'qib, uning mazmuni asosida rasm chizib kelish topshirilib, dars yakunlanadi.

5- darsning mavzusi: „Alisher bilan bulbul“ hikoyasi.

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarda zukkolik, ziyraklik kabi xislatlarni tarbiyalash.

2. Bobomiz Alisher Navoiyning yoshliklari haqida ma'lumot berish.

3. Alisher Navoiy haqidagi bilimlarini kengaytirish.

Darsning turi: umumlashtiruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko'rgazmali.

Darsning jihozlari: mavzuga oid rasmlar.

I. Darsni tashkil etish. Uyga berilgan matnni o'qitib, mazmuni yuzasidan suhbat uyushtirish. O'quvchilardan kitob haqida maqollar so'rash. Uyda ishlab kelgan rasmlari bo'yicha tanlov o'tkazib, eng chiroyli kitob rasmini chizgan o'quvchini rag'batlantirish.

II. Ertak yuzasidan suhbat qurib, o'quvchilar yordamida qissadan hissa chiqarish va yangi „Alisher va bulbul“ matni bilan o'quvchilarni tanishtirib, matnni o'qitish.

III. Matn yuzasidan savol-javob o'tkazish:

1. Hikoya kimning yoshligi haqida ekan?
2. Alisher qanday bola bo'lib o'sdi?

3. Alisher bog'da bulbul bilan nimalar haqida suhbatlashdi?

4. Alisher o'ziga qanday taxallus tanladi?

IV. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholash va bahosini e'lon qilish.

V. Uyga hikoyani o'qib, shu asosda rasm chizib kelishni topshirish.

6- darsning mavzusi: „Shoir bilan shoh“ hikoyasi.

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarni Alisherdek mehribon, bilimdon, zukko, Husayndek mard, jasur qilib tarbiyalash.

2. „Bola boshidan“ degan naqlga suyangan holda Alisher va Husaynning hayoti va ijodlari haqida tushunchalar berish.

Darsning turi: umumlashtiruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko'rgazmali.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, boshqotirma, tarqatma didaktik topshiriqlar.

I. Darsni tashkil etish. Uyga berilgan vazifalarni tekshirib, hikoyani o'quvchilarga o'qitish va baholash. Alisher Navoiy hayotiga oid topshiriqlar berish va javoblar olish:

1- *topshiriq.* Alisher Navoiy kim bo'lgani haqida so'zlab bering.

2- *topshiriq.* Yoshligida Alisher qanday bola bo'lganligi haqida gapiring.

3- *topshiriq.* „Navoiy“ taxallusini Alisher qanday so'zdan olgan va nima sabab bo'lganligi haqida gapiring.

4- *topshiriq.* Alisher Navoiy bobomizning nomlarini abadiylashtirish uchun nimalar qilinayotgani haqida gapiring.

5- *topshiriq.* Bobomizga munosib farzandlar bo'lish uchun nimalar qilishimiz kerakligi haqida gapiring.

II. Yangi mavzu — „Shoir bilan shoh“ hikoyasi o'tilgan mavzuning davomi bo'lib, unda ham Alisher Navoiyning yoshligi haqida hikoya qilingani aytilib, uning mazmuni bilan rasmlar yordamida tanishtirish.

Hikoyani o'quvchilarga o'qitish, Alisher va Husaynni bog'lab turuvchi do'stlik va ijod, xalqparvarlik haqida ma'lumotlar berish.

III. Yangi mavzu yuzasidan savol-javob o'tkazish:

1. Husayn qanday bola edi? Alisher-chi?
2. Alisher katta bo'lgach kim bo'ldi? Husayn-chi?
3. Alisher va Husayn orasidagi farqni ayting.

IV. Darsda faol qatnashgan o'quvchilarni baholash.

V. Uyga hikoyani o'qib, gapirib berishga tayyorlanib kelishni topshirib, darsni yakunlash.

7- darsning mavzusi: Navoiy hikmatlari. Ibrohim Donishning „Inoqlikda gap katta“ she'ri.

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarni bilim olishga intiluvchan, to'g'riso'z, bir-biriga mehr-oqibatli, inoq, ahil, do'st qilib tarbiyalash.

2. Navoiy hikmatlarining mohiyatini yoritish, o'quvchilarni she'r bilan tanishtirish.

3. Ifodali o'qish, yod olish malakalarini rivojlantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko'rgazmali.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, tarqatma didaktik topshiriqlar, magnitofon.

I. Darsni tashkil qilish. Uyga berilgan topshiriqni so'rab baholash va o'tilgan mavzular yuzasidan didaktik tarqatma topshiriqlar berib, javoblar olish:

1- kartochka. Alisher qachondan she'r yoza boshlaganligi haqida gapiring.

2- kartochka. Alisher bilan bulbulning suhbatini kitobdan topib o'qing.

3- kartochka. Alisher bilan Husaynning bolalari haqida gapiring.

4- kartochka. Shoir va shoh o'rtasida qanday o'hshash jihatlar bor?

5- kartochka. Siz kelgusida kim bo'lishni istaysiz?

6- kartochka. Orzularingizga yetishish uchun nimalar qilmoqchisiz, shu haqda gapirib bering.

II. O'quvchilarga Navoiy hikmatlarini magnitofon orqali eshittirish va mohiyatini yoritish. So'ng do'stlik haqida qisqacha suhbatlashib, yangi mavzu — Ibrohim Donishning „Inoqlikda gap katta“ she'rini o'quvchilarga o'qib berish va mazmunini rasmlar yordamida birgalikda tahlil qilish, lug'at bilan ishlash.

III. Savol-javob yordamida she'r mazmunini mustahkamlash:

1. Do'stlarning nomlarini ayting. Ular qanday do'st?
2. Ularni nima bir-biriga bog'lab turibdi?
3. Ularning o'xshash tomonlari tasvirlangan misralarni topib o'qing.
4. O'z do'stingiz haqida gapirib bering.

IV. O'quvchilarni baholab, bahosini e'lon qilish.

V. Uyga she'rni yodlab, Navoiy hikmatlarini o'zlari yasagan kitobchaga yozib qo'yishni topshirib, darsni yakunlash.

8- darsning mavzusi: „Barcha bola do'st bo'lsa“. *Po'lat Mo'min (qo'shiq).*

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarni yahshilikka intilib yashashga o'rgatish.

2. She'rni, maqolni o'qib, mazmun-mohiyatini tushuntirish.

3. To'g'ri o'qish va yod olish malakasini, topqirlikni rivojlantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko'rgazmali.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, test savollari, magnitofon.

I. Darsni tashkil etish. She'rni o'quvchilardan so'rab baholash. Do'stlik haqidagi tarqatma test savollariga javob olish:

1. Do'st qanday bo'lishi kerak?
 - a) mehribon;
 - b) hamisha birga bo'ladi;
 - c) chiroyli.

2. Do'stingizning nimasi uchun siz uni „do'st“ tanladingiz?

- a) u chiroyli;
- b) u aqlli;
- c) uning barcha fazilatlari uchun.

3. Sizning chin do'stingiz bormi?

- a) ha;
- b) yo'q.
- c) endi tanlayman.

4. Nimada gap katta?

- a) go'zallikda;
- b) xursandlikda;
- c) inoqlikda.

II. Jismoniy daqiqa o'tkazish. Do'stlik haqidagi sujetli rasmlar yordamida suhbat uyushtirish va tahlil qilish. So'ng magnitofon lentasi orqali Po'lat Mo'minning „Barcha bola do'st bo'lsa“ qo'shig'ini eshittirish.

III. O'quvchilarga qo'shiq matnini o'qitish va mazmunini tahlil qilish. O'quvchilardan do'stlik haqida maqollar so'rash va kitobda berilgan maqol mazmunini yoritib, topishmoqlarning javobini so'rash.

IV. Dars davomida faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholab, e'lon qilish.

V. Uyga „Barcha bola do'st bo'lsa“ qo'shig'ini yodlab kelishni topshirib, darsga yakun yasash.

9- darsning mavzusi: „Vaqt qadri“. *Tolib Yo'ldosh she'ri.*

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarga o'tayotgan har bir daqiqani qadrlab, foydali ishga sarflashni o'rgatish.

2. She'r yordamida o'quvchilarning hozirgi kundagi vazifalarini tushuntirish.

3. Bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko'rgazmali.

Darsning jihozi: boshqotirma, mavzuga oid rasmlar.

I. Darsni tashkil etish. Uyga vazifani soʻrab baholash, oʻtilgan mavzularni savol-javoblar yordamida mustahkamlash.

Doʻstlik mavzusiga yakun yasash, vaqt haqida tushuncha berish:

— Biz siz bilan doʻstlik haqida suhbatlashdik. Oʻylaymanki, kelgusida barchangiz doʻstlaringiz bilan yanada inoq boʻlib, ajralmas, chin doʻstlarga aylanasiz. Vaqt oʻtishi bilan doʻstlaringiz safi yanada koʻpayadi.

Vaqt oʻtishi bilan inson ulgʻayadi va navbatma-navbat oldiga qoʻygan maqsadlariga, orzulariga erishadi.

Albatta, oʻz-oʻzidan orzuga erishib boʻlmaydi. „Harakatda-barakat“ deganlaridek, orzuga erishish yoʻlida harakat qilish kerak boʻladi.

II. Vaqt haqida gapirib turib, oʻquvchilarni yangi mavzu — Tolib Yoʻldoshning „Vaqt qadri“ sheʼri bilan tanishtirib, lugʻat ishi oʻtkaziladi.

III. Sheʼrni parta oralab oʻquvchilarga oʻqitiladi va sheʼr yuzasidan savol-javob oʻtkaziladi:

1. Vaqtdan toʻgʻri foydalanish nima uchun zarur ekan?

2. „Vaqtning ketdi — naqding ketdi“ deganda nimani tushunasiz?

3. Siz boʻsh vaqtingizdan qanday foydalanasiz?

Soʻng berilgan topishmoqlarni oʻqib, javoblarini topish soʻraladi.

IV. Darsda faol qatnashgan oʻquvchilarni baholab, eʼlon qilinadi.

V. Uyga sheʼrni ifodali oʻqib, soat rasmini chizib kelish topshirigʻi beriladi.

10- darsning mavzusi: „Bahs“.

Darsning maqsadi: 1. Oʻquvchilarni oʻz oldiga aniq maqsad qoʻyib, unga erishish uchun intilib, harakat qilishga oʻrgatish.

2. Oʻquvchilarga kasblar haqida tushunchalar berish.

3. Bilim, koʻnikma va malakalarini rivojlantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko'rgazmali.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, test, bosh-qotirmalar.

I. Darsni tashkil etish. Uyga berilgan vazifani so'rab baholash. O'quvchilar chizib kelgan soat rasmining eng yahshilarini aniqlab, ularni rag'batlantirish. O'tilgan mavzularni rasmlar va test yordamida takrorlash.

Test namunalari:

1. Bir yilda nechta fasl bor?
 - a) 2 ta;
 - b) 3 ta;
 - c) 4 ta.
2. Har bir fasl necha oydan iborat?
 - a) 2;
 - b) 3;
 - c) 4.
3. Bir yilda necha oy bor?
 - a) 10 oy;
 - b) 12 oy;
 - c) 13 oy.
3. Vaqt o'tayotganini nimadan bilamiz?
 - a) soatdan;
 - b) kitobdan;
 - c) kunlardan.
5. Soat to'xtab qolsa,...
 - a) vaqt ham to'xtaydi;
 - b) umr ham to'xtaydi;
 - c) vaqt to'xtamaydi.
6. Vaqt o'tgan sari bizlar...
 - a) ulg'ayamiz;
 - b) o'ynaymiz;
 - c) uxlaymiz.

Vaqt haqidagi suhbatga ulagan holda o'quvchilarni yangi mavzu — „Bahs“ hikoyasining mazmuni bilan rasmlar yordamida tanishtirish va hikoyani parta oralab o'quvchilarga o'qitish. Lug'at ishi o'tkazish.

So'ng o'quvchilar bilan kasblar haqida suhbatlashish.

— Har bir inson hayoti davomida biror kasbni yoki hunarni egallab, shuning orasidan kun ko'radi, obro'-e'tibor qozonadi.

Ammo bunga erishish uchun bolalikdan oldiga maqsad qo'yib, unga erishish uchun harakat qilish, yaxshi o'qish kerak bo'ladi. Har bir kasb, hunarning o'ziga yarasha mashaqqati, sirlari bo'ladi. Ularni yengish uchun yaxshi o'qish va kelajakda tanlangan kasb yoki hunar yo'nalishi bo'yich bilim olish zarur bo'ladi. Buning uchun vaqt, iroda, astoydil harakat va intilish zarur, xuddi hikoyadagi Sarvar singari. U o'z orzusiga erishish uchun astoydil harakat qildi, o'z ustida ishladi va intildi. Natijada yetuk suxandon bo'lib yetishdi.

Demak, harakat qilgan, intilgan kishi hech qachon xor bo'lmaydi. Balki o'z baxtiga, orzusiga yetadi...

III. Yangi mavzu yuzasidan savol-javob o'tkazish:

1. Bolalar nima uchun bahslashdilar?
2. Sarvar kim bo'lishni orzu qildi?
3. Sarvar qanday qilib suxandon bo'ldi?
4. Tushunarli qilib gapirish uchun nimalar qilish kerak ekan?
5. Nima uchun „Intilganga tole yor“ deyiladi?
6. Sizga qaysi kasb yoqadi?

IV. Dars davomida faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholash va e'lon qilish.

V. Uyga „Bahs“ hikoyasini o'qib, har bir o'quvchi o'zi tanlangan kasb haqida qisqacha daftarlariga yozib kelishlarini topshirib, darsga yakun yasash.

11- darsning mavzusi: Ilyos Muslimning „Maktabdan kelganimda“ she'ri.

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarni mehr-oqibatli, mas'uliyatni his qiladigan qilib tarbiyalash.


2. She'r mohiyatini yoritish orqali bilimlarini o'stirish.
3. Ifodali o'qish malakasini va qobiliyatini rivojlantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko'rgazmali.

Darsning jihozi: kasblar haqidagi rasmlar, boshqotirma.

I. Darsni tashkil etish. Uyga berilgan hikoyani so'rab, baholash. Har bir o'quvchining tanlagan kasbi haqida yozib kelgan matni bilan tanishish. Rasmlar yordamida bir qancha kasblar haqida tushunchalar berish. Kasblar nomi berkitilgan boshqotirmaning yechishni o'quvchilarga topshirish.



Boshqotirmaning javoblari:

- 1) shifokor
- 2) sartorosh
- 3) usta
- 4) kutubxonachi
- 5) muallim
- 6) oshpaz
- 7) tarbiyachi

Boshqotirmada nomi berilgan kasblar yuzasidan suhbat uyushtirish.

II. Yangi mavzu — Ilyos Muslimning „Maktabdan kelganimda“ she'ri bilan o'quvchilarni tanishtirish. She'rni ifodali o'qib, mazmunini yoritish. She'rdan kelib chiqib, bahs uyushtirish.

— Siz maktabdan kelgach nima qilasiz? Ota-onangiz darslaringiz haqida so'raganda, qanday javov berasiz?

III. Yangi mavzuni savol-javob yordamida mustahkamlash:

1. Qizning oyisi nima deb so'radi?
2. Qizcha deb javob berdi?
3. Qizni oyisi nima deb erkaladi?
4. Unga yana nimalar olib berdi?

IV. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholab, e'lon qilish.

V. Uyga she'rni yodlab kelishni topshirib, darsni yakunlash.

12- darsning mavzusi: Qudrat Hikmatning „Kitob“ she’ri.

Darsning maqsadi: 1. O‘quychilarni kitobni sevuvchi, kitobxon qilib tarbiyalash.

2. Har bir kitob bilim beruvchi, hayotga tayyorlovchi vositaligini tushuntirish.

3. Kitob haqidagi tushunchalarini rivojlantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko‘rgazmali.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, tarqatma didaktik materiallar.

I. Darsni tashkil etish. Uyga berilgan she’rni yoddan so‘rash. O‘tgan mavzu yuzasidan tarqatma rasmlari topshiriqlar berish va javoblar olish.

Tarqatma kartochkalarda turli kasb egalari tasvirlangan bo‘lib, tagida savol-topshiriq beriladi:

Rasmda kim tasvirlangan? Bu kasb egasi bo‘lish uchun nima qilish kerak?

Tarqatma topshiriqlarga javob olgach, biror kasbni egallash uchun nimalar qilish kqrakligi haqida gapiriladi.

— Demak, har bir kasbni egallash uchun yaxshi o‘qish va bilimli bo‘lish kerak ekan.

Bilim egallashda bizga kimlar va nimalar yordam beradi? (o‘qituvchilar, kitoblar...)

— Barakalla, kitobni bekorga „Bilim bulog‘i“ deyilmas ekan. O‘tgan darslarda biz siz bilan kitoblar haqida suhbatlashgan edik. Kitoblarning turlari, xili ko‘p. Ularning barchasi bizning komil, yetik inson bo‘lishimiz, bilimli, ilimli bo‘lishimiz, qolaversa tanlagan kasbimiz sirlarini o‘zlashtirishimiz yo‘lida xizmat qilgan ekan.

II. Yangi mavzu — Qudrat Hikmatning „Kitob“ she’rining mazmunini suhbatga ulagan holda o‘quvchilarga tanishtiriladi. She’r ifodali o‘qiladi va mazmuni rasmlar yordamida yoritiladi. Lug‘at ishi o‘tkaziladi:

She’rni o‘quvchilarga parta oralab o‘qitiladi.

III. She'rni savol-javob yordamida mustahkamlash:

1. She'r nima haqida ekan?
2. She'rda kitoblar nimalarga o'xshatilgan?
3. Siz ham kitob o'qishni yoqtirasizmi?

IV. Faol o'quvchilarni dars jarayonidagi javoblariga qarab baholanadi va e'lon qilinadi.

V. Uyga she'rni ifodali o'qib kelishni topshirib, dars yakunlanadi.

13- darsning mavzusi: Ouddus Muhammadiyning „Kitobimni qancha sevsam oz bo'lar“ she'ri.

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarni kitoblarni qadrlashga o'rgatish.

2. Kutubxonaga sayohat uyushtirish orqali o'quvchilarning kitob haqidagi bilimlarini kengaytirish.

3. Kitobning yaratilishi, uning ahamiyati haqidagi bilimlarini rivojlantirish.

Darsning turi: umumlashtiruvchi.

Darsning uslubi: noan'anaviy.

Dars jihozi: kutubxona va u yerdagi kitoblar.

I. Darsni tashkil etish:

— Aziz bolajonlar, biz bugun sizlar bilan kitoblar olamiga sayohat qilamiz. Sizlar bilan bugungi darsimizni maktabimiz kutubxonasida o'tkazamiz.

So'ng o'quvchilarni maktab kutubxonasiga olib borib, u yerdagi sharoit bilan tanishtirish. Kutubxonachi bilan davra suhbatini uyushtirish.

II. Yangi mavzu — Quddus Muhammadiyning „Kitobimni qancha sevsam oz bo'lar“ she'rini o'quvchilarga ifodali o'qib eshittirish va she'r mazmunini yoritish.

III. She'r va kitoblar, bugungi ko'rgan, eshinganlari yuzasidan kutubxonachi yordamida o'quvchilar bilan savol-javob o'tkazish orqali olgan bilimlarini mustahkamlash.

IV. Uyga she'rni ifodali o'qib, kutubxonada olgan taassurotlari haqida yozib kelishni topshirib, sayohat va darsga yakun yasaladi.



IV BO'LIM

Mehnat — baxt keltirar

I-darsning mavzusi: "Bilim ol, hunar tanla". (*Q. Muhammadiy she'ri*).

Darsning maqsadi: 1. O'yin orqali o'quvchilarni har ishda bir-birini qo'llab mehnat qilishga o'rgatish.

2. O'yin orqali o'quvchilarni o'tgan darslarda olgan bilimlarini mustahkamlash va yangi mavzuni o'tish.

3. O'quvchilarda erkin fikrlash va hozirjavoblik malakasini rivojlantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi, noan'anaviy.

Darsning uslubi: tushuntirish, o'yin, ko'rgazmali.

Darsning jihozi: plakatlar, magnitofon, topshiriqli tarqatma didaktik material.

I. Darsni tashkil etish. Uyga berilgan vazifani so'rab baholash. O'tilgan mavzular va yangi mavzu yuzasidan o'yin tashkil etish. Sinfni 2 guruhga bo'lish.


O'yin shartlari bilan o'quvchilarni tanishtirish:

1 - s h a r t . Duskada 2 ta topshiriq beriladi.

1-guruhga:



2-guruhga:



Bu shartda har bir guruhdan bittadan o'quvchi chiqib, bilgan javobini yozadi. Qaysi guruh birinchi bo'lib javoblarni to'g'ri va to'liq yozib bo'lsa, shu guruh g'olib bo'ladi. G'olib guruhga yulduzcha beriladi.

2 - s h a r t . Ikkala guruhga bittadan boshqotirma beriladi.

Bu shartda ham ikkala guruhdan bittadan o'quvchi chiqib javoblarni yozadilar va o'yin shu tariqa barcha yashiringan so'zlar topilgunga qadar davom etadi. Shartni birinchi bo'lib va to'g'ri bajargan guruh g'olib topiladi va yulduzchani qo'lga kiritadi.

3 - s h a r t . O'qituvchi magnitofon orqali Quddus Muhammadiyning „Bilim ol, hunar tanla“ she'rini eshittiradi va o'quvchilardan she'r mazmuni so'raladi, ya'ni savol-javob o'tkaziladi:

1. Vatanga munosib farzand bo'lish uchun nima qilish kerak?

2. Shoir kitobni nima uchun „Baxt yo'liga boshlovchi“ deb ataydi?

3. „Kitob — bilim manbayi“, „Hunar, hunardan unar“ maqollarini she'r mazmuni asosida izohlang.

Qaysi guruh o'quvchilari savol-javobda faol qatnashsa, shu guruh g'olib deb topiladi va yulduzchani qo'lga kiritadi.

II. G'olib guruhni aniqlash va o'yinga yakun yasash.

III. O'yinda faol qatnashgan o'quvchilarni baholash va e'lon qilish.

IV. Uyga she'rni yod olishni topshirib, darsni yakunlash.

2- darsning mavzusi: „Ish ishtaha ochar“ hikoyasi.
(*Nurmat Maqsudov*).

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarni mehnatsevar qilib tarbiyalash.

2. Mehnatning ahamiyati va qadrini tushuntirish.

3. O'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko'rgazmali.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, „Sirli kataklar“ o'yini, maqollar.

I. Darsni tashkil etish. Uyga berilgan she'rni yoddan so'rab baholash. She'r yuzasidan savol-javob o'tkazish:

1. O'quvchilarning Vatan, ota-ona oldidagi vazifalari nimalardan iborat?

2. Kelajakda orzuga erishish uchun qanday mehnat qilish kerak?

3. Mehnat, kitob va hunar haqida maqollar ayting.

O'quvchilar aytgan maqollarning mazmunini va kitobda berilgan mehnat haqidagi maqollarning mohiyatini yoritish. Mehnat haqida suhbat uyushtirish va sirli katakchalar o'yinini o'ynash. Sirli katakchalarda berkitilgan mehnat haqidagi hikmatni o'quvchilarga toptirish. Bunda o'quvchilar bittadan harf aytadilar va bu harf yashiringan hikmatda mavjud bo'lsa, ochiladi (xuddi „Mo'jizalar maydonchasi“ o'yinidagidek). Masalan:



Yashiringan hikmat: *Mehnat qilgan yetar murodga!*

II. Yangi mavzuni mehnat haqidagi suhbatga ulagan holda o'tish.

„Mana, bolajonlar biz siz bilan mehnat haqida suhbatlashdik. Inson umri davomida qancha ko'p mehnat qilsa,

shuncha obro'-e'tiborga, baxtga erishishi haqida o'tgan darslarimizda ham gaplashgan edik. Bugun biz siz bilan „Ish ishtaha ochar“ hikoyasi bilan tanishamiz... Hikoya mazmunini rasmlardan foydalanib so'zlab beriladi. So'ng o'quvchilarga parta oralab hikoyani o'qitiladi va mazmuni savol- javoblar asosida tahlil qilinadi:

1. Shavkat nima uchun ishtaha bilan ovqat yedi?
2. Onasi unga nima dedi?
3. Siz ham uy ishlarida kattalarga yordam berasizmi?

Kitobda berilgan: „Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar“, „Gapni kam so'zla, ishni ko'p ko'zla“ maqollarining mazmun, mohiyatini yoritish va o'quvchilardan yana mehnat haqidagi maqollardan so'rash.

IV. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholab, e'lon qilish.

V. Uyga Nurmat Maqsudovning „Ish ishtaha ochar“ hikoyasini o'qib, har bir o'quvchi bir kun davomida qilgan ishi haqida daftariga yozib kelishni topshirib, darsga yakun yasash.

3- darsning mavzusi: „Aka-uka“ (rivoyat).

Darsning maqsadi: I. Rivoyat orqali o'quvchilarni oilada aka-ukalarini hurmat qilishga o'rgatish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko'rgazmali.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, tarqatma test savollari.

I. Darsni tashkil etish. Uyga berilgan topshiriqni so'rab baholash. O'tilgan mavzu va mehnat haqidagi o'quvchilar bilimlarini sinash maqsadida test savollari tarqatib, javoblar olish.

Test savollari o'tilgan mavzular va mehnat mavzusi bo'yicha tuziladi.

II. Yangi mavzu „Aka-uka“ rivoyatining mazmuni bilan rasmlar yordamida tanishtirish.

Rivoyatni o'quvchilarga o'qitish va mazmunini tahlil qilib, mohiyatini ochish, ya'ni xulosa yasash.

— Demak, qachonki insonlar bir-biri bilan ahil bo'lsa, mehr-oqibatli bo'lsa, bunday insonlar hech qachon tushkunlikka, og'ir ahvolga tushib qolmaydi. Sababi — ularni hamisha qo'llab-quvvatlovchi va yordam qo'lini cho'zuvchi mehribonlari bor.

Shuning uchun barcha insonlar bir-biriga nisbatan mehrlil, oqibatli, ahil bo'lsa, hamisha tinchlik, farovonlik hukm suradi.

III. Yangi mavzuni savol-javob orqali mustahkamlash:

1. Aka-ukaning ahilligini qaysi ishlaridan bilish mumkin?
2. Qo'ni-qo'shnilar ularga nima uchun havas qilishar ekan?

3. Ahillik va mehr-oqibat haqida maqollar ayting.

IV. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholab, e'lon qilish.

V. Uyg'a rivoyatni o'qib, ahillik va mehr-oqibat haqida hikmatli so'zlar, maqollar topib kelishni topshirib, darsni yakunlash.

4- darsning mavzusi: „Hunarli kishi xor bo'lmas“.

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarda hunar o'rganishga intilishni shakllantirish va biror-bir hunarga mehr uyg'otish.

2. Inson hayotida hunarning ahamiyatini tushuntirish.

3. O'quvchilarning bilim, tushunchasini kengaytirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko'rgazmali.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, hunarmandlar ishlagan buyumlardan namunalar, hunarmandlarning ish jarayonlari tasvirlangan rasmlar, boshqotirma.

I. Darsni tashkil etish. Uyg'a berilgan topshiriqni so'rab, baholash. O'tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o'tkazish.

II. O'quvchilarga hunarmandlarning ish jarayonlari tasvirlangan rasmlarni ko'rsatib:

Rasmlarda kimlar tasvirlangan? Ular nima bilan mashg'ul? Ularga siz havas qilasizmi, nima uchun? kabi savollarga javob olib, hunarmandlar tayyorlagan buyumlardan namunalar namoyish qilinadi va ular haqida suhbat o'tkaziladi.

Yangi mavzu „Hunarli kishi xor bo‘lmas“ ertagini suhbatga bog‘lagan holda rasmlar yordamida so‘zlab berish.

III. Ertak mazmunini o‘quvchilar bilan savol-javoblar yordamida birgalikda tahlil qilish:

1. Podsho yolg‘iz o‘g‘li taqdiri haqida kim bilan maslahat qildi?

2. Shaxzodani nimalarga o‘rgatdilar?

3. Ovg‘a chiqqan shahzoda qay ahvolga tushdi?

4. Shahzodani qanday qilib qaroqchilar qo‘lidan qutqardilar?

5. Podshoh vaziriga nima uchun minnatdorchilik bildirdi?

6. „Yigit kishiga yetmish hunar oz“, degan hikmatni siz qanday tushunasiz?

Qissadan hissa chiqarish, xulosalash:

— Demak, bolajonlar kimki hunarli bo‘lsa, hayotida hech qoqilmas ekan. Sababi, inson hayoti davomida turli qiyinchiliklarga duch keladi. Ana shunday vaqtda, agar qo‘lida hunari bo‘lsa, shu hunari orqasidan kun kechiradi. Agar qo‘lidan hech ish kelmasa, hunari bo‘lmasa, u holda, qiynalib qolishi mumkin.

Shuning uchun kimki kasbidan tashqari biror hunar o‘rgansa va bu hunaridan aql, tadbirkorlik bilan foydalansa, hayoti davomida hech qoqilmay, farovonlikda yashaydi.

IV. Ertakni o‘quvchilarga kitibdan parta oralab o‘qitiladi. Dars davomida faol ishtirok etgan o‘quvchilar baholanadi va e‘lon qilinadi.

V. Uyg‘a ertakni o‘qib berishga tayyorlanib kelishni va kasb-hunar haqidagi maqollar topib kelishni topshirib, dars yakunlanadi.

5- darsning mavzusi: „Qaychi“. *Hamidulla Yoqubov she‘ri.*

Darsning maqsadi: 1. O‘quvchilarga qaychidan ehtiyotkorlik bilan foydalanish qoidalarini o‘rgatish.

2. Tikuvchilik kasbi ish quroli bo‘lmish qaychi haqidagi tushunchalarini kengaytirish.

3. O‘quvchilarning mustaqil ishlash, fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi, noan'anaviy.

Darsning uslubi: aralash, ko'rgazmali.

Darsning jihozi: Mavzuga oid topshiriqlar, rasmlar.

I. Darsni tashkil etish va uyga berilgan topshiriqlarni so'rab baholash. O'quvchilarni 3 guruhga bo'lib, har bir guruhga turli topshiriqlar berish.

1- t o p s h i r i q . Har bir guruhga bittadan sujetli rasm berib, shu rasm asosida og'zaki hikoyacha tuzdirish.

1- *guruhga.* Kulolning ish jarayoni tasvirlangan rasm.

2- *guruhga.* Kosibning ish jarayoni tasvirlangan rasm.

3- *guruhga.* Tikuvchining ish jarayoni tasvirlangan rasm.

2- t o p s h i r i q umumiy bo'lib, rasmi boshqotirmadan iborat. Bu boshqotirma topilsa, yangi mavzuning nomi kelib chiqadi.

Bu rasmlardagi narsalar nomlarining birinchi harflaridan yangi mavzu nomi topiladi.



II. Yangi mavzu — „Qaychi“ she'ri ni ifodali o'qib, tahlil qilinadi. Qaychi, pichoq kabi o'tkir buyumlardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish uqdiriladi.

She'rni rollarga bo'lib o'qitiladi.

III. Yangi mavzuni savol-javob orqali mustahkamlash:

1. Qaychini ko'proq qaysi kasb egalari ishlatar ekan?

2. Nima uchun qaychilar turli ko'rinish va hajmda bo'lar ekan?

3. Siz qachon qaychidan foydalanasiz?

IV. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholab, e'lon qilish.

V. Uyga she'rni yod olish va qaychi rasmini chizib kelish topshiriladi. Darsni xulosalab, yakun yasaladi.

Bu bo'limdagi qolgan mavzular ham o'qituvchining ijodiy yondashishi asosida yuqoridagi darslar kabi o'tiladi.



1- darsning mavzusi: „Bahor“ matni.

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarga bahor faslining go'zalligi va bahorgi ishlar haqida tushuncha berish.

2. Bahor fasli haqidagi bilimlarini kengaytirish.

3. Bilim, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko'rgazmali.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, klaster usulidagi topshiriqlar.


Darsning borishi:

I. Darsni tashkil etish. Uyga berilgan topshiriqlarni so'rab, baholash. O'tilgan mavzu yuzasidan suhbatlashish.

II. Yangi „Zumrad bahor — bahri diling ochar“ bo'limi bilan o'quvchilarni tanishtirish.


Bahor haqida rasmlardan foydalangan holda suhbat uyushtirish. Har bir qatorga bahor fasliga oid klaster usulidagi alohida topshiriqlar berish.

1- qatorga:




*Qo'llanmaning hajmi cheklanganligi sababli ba'zi bo'limlar tushirib qoldirildi. Bu bo'limdagi darslar ham avvalgi bo'limlardagi kabi o'qituvchining ijodkorligi asosida, turli dars uslublarini qo'llagan holda o'tiladi.

2- qatorga:



3- qatorga:



Katakchalardagi bahorda ochiladigan gullar, bahorda o'lkamizga uchib keladigan qushlar, bahorda pishadigan mevalarni o'quvchilar ajratib aytadilar.

Yangi — „Bahor“ matni bo'yicha tayyorlangan rasmlar asosida matn mazmunini so'zlab berish. Matnni o'qituvchi o'qishni boshlaydi, o'quvchilar davom ettirib ketadilar.

III. Bahor haqidagi berilgan bilimlarni savol-javob orqali mustahkamlash:

1. Bahor fasli qachondan boshlanadi?
2. Ilk bahor oyida qaysi bayramlarni nishonlaymiz?

3. Bahorda dastlab ochiladigan gullarni ayting.
4. Bahor faslini nima uchun uyg'onish fasli deymiz?

IV. Dars davomida faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholash.

V. Uyga „Bahor“ matnini o'qib, bahorda ochiladigan gullar rasmini chizib kelishni topshirib, darsni yakunlash.

2- darsning mavzusi: „Bahor keldi“ va „Hissang qo'sh“ she'rlari.

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarni tabiatni asrashga, sevishga, mehnatsevarlikka o'rgatish.

2. O'yin orqali o'quvchilarning bahor fasli haqidagi bilimlarini kengaytirish.

3. O'quvchilarning bilimlarini, mustaqil fikrlash, yod olish malakalarini rivojlantirish.

Darsning turi: noan'anaviy, o'yin.

Darsning uslubi: aralash, ko'rgazmali.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, boshqotirma, didaktik topshiriqlar.

Darsning borishi:

I. Darsni tashkil etish. Sinf o'quvchilarini 3 guruhga bo'lish va guruhlariga bahoriy gullar nomlarini qo'yish.

II. O'yinning borish jarayoni:

Har bir guruh o'quvchilari, guruhi nomlangan gul haqida ma'lumot beradilar va javoblariga qarab qizil, ko'k, sariq doirachalardan birini qo'lga kiritadilar.

III. O'yin so'ngida o'qituvchi g'olib guruhni e'lon qiladi va rag'batlantiradi. Kitobda berilgan maqollarni aytib, mazmunini o'quvchilardan so'raydi.

IV. Dars jarayonida o'quvchilarni bergan javoblariga qarab baholash va e'lon qilish.

V. Uyga „Bahor keldi“ va „Hissang qo'sh“ she'rlarini yodlashni topshirib, darsni xulosalab, yakunlash.

3- darsning mavzusi: „Daraxtlar suhbatı“ (ertak).

Darsning maqsadi: 1. Ertak orqali o'quvchilarga mevali daraxtlar haqida ma'lumotlar berish.

2. Maqtanchoqlik yaxshilikka olib kelmasligi haqida maqollar yordamida tushunchalar berish.

3. O'quvchilarning tabiat haqidagi bilimlarini, hozir-javoblik, topqirlik, diqqat va kuzatuvchanlik malakalarini rivojlantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.


Darsning uslubi: aralash, ko'rgazmali.

Darsning jhozi: mavzuga oid rasmlar, maqollar, topishmoqlar, boshqotirma.

Darsning borishi:

I. Darsni tashkil etish. Uyga berilgan topshiriqlarni tekshirish va baholash.

II. O'quvchilarga boshqotirma berish. Unda yangi mavzu nomi yashiringan bo'ladi.



O'quvchilar bo'g'inlarni birlashtirgan holda yashiringan jumlanı, ya'ni ertak nomini topishlari kerak.

Javobi: „Daraxtlar suhbatı“.

O'quvchilar boshqotirma javobini topganlaridan so'ng, yangi mavzu — „Daraxtlar suhbatı“ ertagini rasmlar yordamida so'zlab berish. Ertak yuzasidan suhbat uyushtirish va o'quvchilarga bir necha topishmoqlar berish.

Topishmoqlar:

1. O'zi shirin tukligina, mazasi ham totligina. (*Shaftoli.*)
2. Bir ona, bir onada yuz bola. (*Uzum.*)

3. Kichkina dekcha, ichi to'la mixcha. (*Anor.*)
4. Kalta bobom ichkarida, quloqlari tashqarida. (*Sholg'om.*)

O'quvchilar topishmoqlarning javoblarini aytishlari bilan doskaga topishmoqda berilgan meva va sabzavotlar rasmlarini qo'yish va ularning qaysilari daraxtda o'sishi, ularning gullari qanday bo'lishi haqida so'rash. O'quvchilarga „Yana qanday aytilmagan mevali daraxtlarni bilasiz? Ular qanday gullaydi?“ kabi savollar berib javoblar olish.

Aytilgan mevalar haqidagi topishmoqlarni o'quvchilardan so'rash.

Kitobda berilgan maqollarni o'qib, ularning mazmunini tushuntirish.

III. „Daraxtlar suhbatini“ ertagini obrazlarga bo'lib o'quvchilarga o'qitish. Ertakdagi „...gullari g'uj“, „...xuddi zumradga o'xshaydi“ kabi ba'zi jumlar mazmunini yoritib o'tish mumkin. Ertak mazmunini savol-javob orqali mustahkamlash:

1. Daraxtlar bir-biriga nima deb maqtandilar?
2. Bolalar, qaysi daraxt erta, qaysilari kech gullar ekan?
3. Nega gilos gapini davom ettira olmadi?
4. Maqtanchoqlik qanday odat?
5. Maqtanchoqlik haqida maqollar ayting.

IV. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholash.

V. Uyg'a ertakni o'qib, unda ishtirok etgan daraxtlardan birining rasmini chizib kelishni topshirib, darsni yakunlash.

4- darsning mavzusi: „Bahor“. *Uyg'un she'ri.*

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarning bahor, tabiat haqidagi bilimlarini oshirish.

2. She'r orqali o'quvchilarni bahorning bor go'zalligini his qilishga va qadrlashga o'rgatish.

3. O'quvchilarning yod olish ko'nikmalari, idrok etish va topqirlik malakalarini rivojlantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko'rgazmali.

Darsning jihozi: bahor manzaralari aks etgan rasmlar test savollari, magnitofon.

Darsning borishi:

I. Darsni tashkil etish. O‘tilgan mavzuni parta oralab o‘qitish va savol-javob o‘tkazish orqali ertak mazmunini yoritish va xulosa chiqarish.

II. O‘quvchilar bilan manzarali bahor fasli tasvirlangan rasmlar asosida bu faslning go‘zalligi va boshqa fasllardan farqi haqida suhbat uyushtirish. Shu o‘rinda o‘quvchilarga yangi mavzu haqida qisqacha tushuncha berib, go‘zal musiqa sadosi ostida magnit lentasiga yozilgan Uyg‘unning „Bahor“ she‘ri qo‘yib eshittiriladi.

III. She‘r mazmuni qisqacha yoritiladi va o‘quvchilarga parta oralatib ifodali qilib o‘qitiladi.

Bahor fasliga oid og‘zaki test berib, javoblar olinadi:

1. Bahorda daraxtlar nima qiladi?

- a) uxlaydi;
- b) uyg‘onadi;
- c) mudraydi.

2. Bahor faslida nimalar ochiladi?

- a) gullar;
- b) eshiklar;
- c) bog‘lar.

3. Bahor fasllarning ...

- a) guli;
- b) onasi;
- c) eng chiroylisi.

4. Bahorda qanday bayramlar nishonlanadi?

- a) Yangi yil, 8- mart, Navro‘z;
- b) 8- Mart, Navro‘z, Xotira kuni;
- c) 8- Mart, Navro‘z, Mustaqillik bayrami.

IV. Darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilarni baholab, e‘lon qilish.

V. Uyga she‘rni yod olib kelishni topshirib, darsga yakun yasash.

5- darsning mavzusi: „Tomchi haqida ertak“. O‘. Ho-
shimov.

Darsning maqsadi: 1. Ertak mazmunini yoritib, o‘quvchilarga do‘st va do‘stlik haqida tushunchalar berish.

2. Tabiatni, do‘stlikni qadrlashga o‘rgatish.

3. O‘quvchilar bilimini, ongini, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.


Darsning uslubi: aralash, ko‘rgazmali.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, boshqotirma.

Darsning borishi:

I. Darsni tashkil etish. Uyg‘a berilgan Uyg‘unning „Bahor“ she‘rini yoddan so‘rash va bahor haqida suhbat uyushtirish.

O‘quvchilarga bahorga oid boshqotirma berish (boshqotirma vatman qog‘ozga chizilgan bo‘lib, doskaga osiladi).



O‘quvchilar boshqotirmaning mustaqil ravishda daftarlarida yechadilar va birinchi bo‘lib javobni topgan o‘quvchi rag‘batlantiriladi.

Boshqotirmaning javobi: *binafsha, boychechak, chuchmoma*

II. Yangi mavzu bilan suhbatga ulagan holda tanishtiriladi va o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi.

III. „Tomchi haqida ertak“ yuzasidan rasmlar yordamida suhbat uyushtiriladi va savollarga javoblar olinadi:

1. O‘rik uyg‘onib nimani ko‘ribdi?

2. O‘rik nima uchun zerikar ekan?

3. U nima bilan do‘stlashdi?

4. Tomchi nima qildi?

5. Sizlarning ham do‘stingiz bormi? Do‘stlar qanday bo‘lishi kerak?

Kitobdagi maqollarni o‘qib, mazmunini yoritish va ertakni parta oralatib o‘qitish.

IV. O'quvchilarni darsdagi ishtiroklariga qarab baholash va baholarini e'lon qilish.

V. Uyga ertak yuzasidan rasm chizib, suv haqida maqollar topib kelishni topshirib, darsga yakun yasash.

6- darsning mavzusi: „**Kuyni sevgan gullar haqida ertak**“. (*Rahim Karimov*).

Darsning maqsadi: 1. Ertak orqali o'quvchilarga gullar, tabiat, kuyning uyg'unligi haqida tushunchalar berish.

2. O'quvchilarni gullarni sevishga, san'atga mehr qo'yishga o'rgatish.

3. O'quvchilarning bilimi, ongi va tafakkurini rivojlantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko'rgazmali.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, magnitofon, test.

Darsning borishi:

I. Darsni tashkil etish. Uyga berilgan topshiriqni so'rab, tekshirib baholash. Test savollari yordamida mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlash:

1. Qishloq tepasida qanday daraxt o'sar ekan?

- a) olma daraxti;
- b) o'rik daraxti;
- c) shaftoli daraxti.

2. O'rik tomchiga qanday savol berdi?

- a) Sen qanday qushsan?
- b) Sen nimasan?
- c) Sen qanday yaproqsan?

3. Tomchi bilan o'rik...

- a) urishib qoldi;
- b) do'stlashdi;
- c) bir-birini tushunmadi.

4. Tomchi qayerga ketdi?

- a) uzoqqa;
- b) osmonga;
- c) hovuzga.

5. O'rikka nima qildi?
 - a) uxlab qoldi;
 - b) juda chanqadi;
 - c) sinib tushdi.
6. O'rikka kim yordam berdi?
 - a) bulut;
 - b) bola;
 - c) tomchi.

II. O'quvchilarga yangi mavzu — „Kuyni sevgan gullar haqida ertak“ni sujetli rasmlar yordamida so'zlab berish va lug'at daftarlariga o'zlashtirilishi qiyin so'zlarni yozdirish va mazmunini izohlash.

Ertakni parta oralatib o'quvchilarga o'qitish va mazmuni yuzasidan suhbat uyushtirish.

III. Ertak yuzasidan savol-javob o'tkazish:

1. Nuri nima qilar ekan?
2. Gulzordagi qaysi gul ochilmabdi?
3. Lolaning g'unchasi qachon ochilibdi?
4. Siz ham gullarni yaxshi ko'rasizmi?
5. Go'zal kuyni-chi?

Savollarga javoblar olingach, magnitofon orqali go'zal, mayin bahoriy kuy qo'yib eshittiriladi. O'quvchilarga ko'zlarini yumib diqqat bilan, ko'z oldilariga tabiatni, go'zal narsalarni keltirib kuy tinglashlari aytiladi.

Kuy tugagach kim qanday taassurot olgani haqida, ko'z oldiga qanday manzaralar kelganligi haqida suhbat quriladi.

IV. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholab, baholari e'lon qilinadi.

V. Uyga ertakni o'qib, gulzor rasmini chizishni topshirib, dars yakunlanadi.

7- darsning mavzusi: „Bolalar o'ynasin deb“. *Mirshakar she'ri.*

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarga she'r mazmunini tushuntirish.

2. Tabiat mo'jizalarini his qilib, sevishta o'rgatish.

3. O'quvchilarning bilimini, yod olish qobiliyatini, ziyraklik, kuzatuvchanlik malakasini rivojlantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko'rgazmali.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, boshqotirma, tarqatma didaktik topshiriqlar.

Darsning borishi:

I. Darsni tashkil etish. Uyga berilgan topshiriqlarni so'rab, tekshirib, baholash.

Gullar, tabiat haqida suhbat uyushtirish, tabiatga oid boshqotirma berish. Boshqotirmadagi katakchalarda tabiat hodisalarining nomlari yashiringan bo'lishi mumkin.

O'quvchilardan xohlovchilar bittadan chiqib, katakchalarga aytgan javoblarini yozadilar.

O'quvchilar topshiriqni bajarib bo'lishgach, tabiat hodisalari haqida sujetli rasmlar asosida suhbat o'tkazish.

Savollar berish orqali bahs uyushtirish. Savollarni og'zaki yoki tarqatma kartochkalarda berish mumkin. Masalan:

1. Quyosh nima uchun kerak?

2. Nima uchun kechqurun oy chiqadi?

3. Kechasi osmonni oydan tashqari yana nimalar yoritib turadi?

4. Kun va tun bizga nima uchun kerak? ... va h.k.

II. Suhbatni bahsga ulagan holda yangi mavzu — Mirshakarning „Bolalar o'ynasin deb“ she'ri o'qituvchi tomonidan o'qib eshittiriladi va she'r mazmuni qisqacha qilib yoritiladi.

III. She'rni parta oralatib o'quvchilarga ifodali qilib o'qitiladi.

She'r va bugungi uyushtirilgan suhbat yuzasidan savol-javob o'tkazish orqali bugungi dars mustahkamlanadi:

1. Quyosh kimlar va nimalarga kerak ekan?

2. Nima uchun tun va kun bo'lar ekan?

3. She'r nima haqida ekan?

IV. Dars davomida faol ishtirok etgan o'quvchilarga baho qo'yib, e'lon qilish.

V. Uyga she'rni yod olib, quyosh rasmini chizib kelishni topshirish. Bugungi darsga yakun yasash.

8- darsning mavzusi: „Shamolbotir“ (ertak).

Darsning maqsadi: 1. Ertak mazmunini so'zlab berish va tabiat hodisasi bo'lgan shamol haqida tushuncha berish.

2. Tabiatni asrashni o'rgatish.

3. O'quvchilar bilimi, mustaqil fikrlash ko'nikmasi, hozirjavoblik, topqirlik malakasini rivojlantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsning uslubi: suhbat, tushuntirish, ko'rgazmali, o'yin.

Darsning jihozi: mavzuga oid sujetli rasmlar, test, boshqotirma.

Darsning borishi:

I. Darsni tashkil qilish. Uyga berilgan she'rni yoddan so'rash va o'quvchilar chizib kelgan rasmlarni ko'rib, baholash.

II. O'quvchilarni yangi mavzu „Shamolbotir“ ertagi bilan tanishtirish. Sujetli rasmlar asosida ertak mazmunini so'zlab berish. Ertakni o'quvchilarga parta oralatib o'qitish va so'zlatish.

III. Ertak mazmunini savol-javob orqali mustahkamlash:

1. Shamolbotir qayerda yashar ekan?
2. Zerikkan Shamolbotir nima qilibdi?
3. Chumoli Shamolbotirdan qanday qutulibdi?
4. Shamolbotirga nima qilibdi?
5. Uni kim qutqarib qolibdi?
6. Shamolbotir nima uchun yaxshi tomonga o'zgaribdi?
7. Yana qanday tabiat hodisalarini bilasiz?

Tabiat hodisalari haqida suhbat uyushtirish va o'quvchilarga tabiat hodisalariga oid boshqotirma berish. Boshqotirma doskaga osib qo'yiladi:

1.	sh						
2.	a						
3.		m					
4.		o					
5.			l				

Boshqotirmaning javoblari: 1. Shudring. 2. Chaqmoq. 3. Yomg'ir. 4. Qor. 5. Do'l.

IV. Darsda faol qatnashgan o'quvchilarni javoblariga qarab baholash va baholarni e'lon qilish.

V. Uyga ertakni o'qib, so'zlab berishga tayyorlanib kelishni topshirib, darsni yakunlash.

9- darsning mavzusi: Gullarni seving, gullardek go'zal bo'lasiz!

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarni gullarni parvarishlash, ularni asrab-avaylash, qadrlashga o'rgatish.

2. Gullar haqida, ularning ahamiyati haqida tushunchalar berish.

3. O'quvchilarning bilimlari, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko'rgazmali.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, boshqotirma, test, topishmoqlar.

Darsning borishi:

I. Darsni tashkil etish. Uyga berilgan vazifani so'rab baholash. O'tilgan mavzular bo'yicha test o'tkazish.

Test namunalari:

1. Qor ostidan qanday gul bosh ko'taradi?

- a) atirgul;
- b) navro'zgul;
- c) chinnigul.

2. Navro'zgul nimalarni olqishlardi?

- a) yangi chiqqan gullarni;

- b) tog'larni;
- c) bog'larni.

3. Nega Navro'zgulning ovozi chiqmay qoldi?

- a) so'lib qolgani uchun;
- b) uxlab qolgani uchun;
- c) qurib qolgani uchun.


II. Har bir qatorga gullarga oid alohida boshqotirmalar berish.

1- guruhga:



Javobi: Lola.

2- guruhga:



Javobi: Navro'zgul.

3- guruhga:



Javobi: Momaqaymoq.

Rasmlar yordamida gullar haqida suhbat qurish va yangi mavzu „Gullarni seving, gullardek go'zal bo'lasiz“ matnini o'qib eshittirish. Matnni tahlil qilish. Berilgan topishmoqning javobini topish. Matnni o'quvchilarga o'qitish.

III. Bugungi o‘tilgan mavzuni savol-javob orqali mustahkamlash.

1. Gullar qachon va qayerlarda ochilar ekan?
2. Gullarni qanday parvarishlash kerak?
3. Inson hayotida gullarning ahamiyati qanday?
4. Nima uchun gullarni sevishimiz kerak ekan?

IV. Darsda faol qatnashgan o‘quvchilarni baholash va baholarini e‘lon qilish.

V. Uyga matnni o‘qib, har bir o‘quvchi o‘zi yoqtirgan guli haqida gapirib berishga tayyorlanib kelishni topshirib, darsni yakunlash.

10- darsning mavzusi: „Marvaridgul“ (*hikoya*).

Darsning maqsadi: I. Marvaridgullarni parvarishlash, o‘stirishni o‘rgatish.

2. Mavzuni tushuntirish, marvaridgul haqida ma‘lumotlar berish.

3. O‘quvchilarning gullar haqidagi bilimlarini, ifodali o‘qish va og‘zaki nutqi, fikrlash malakalarini rivojlantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko‘rgazmali.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, tarqatma didaktik topshiriqlar.

Darsning borishi:

I. Darsni tashkil etish. Uyga berilgan topshiriqlarni so‘rab, tekshirib baholash, o‘tilgan mavzu bo‘yicha rasmi didaktik topshiriqlar berish. Masalan: atirgul rasmi tasvirlangan kartochka tagida quyidagicha topshiriq beriladi: Atirgul, uning turlari va qayerlarda o‘sishi haqida gapirib bering.

II. „Sirli katakcha“lar o‘yinini o‘tkazish.

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

Yashiringan so‘z „Marvaridgul“, ya‘ni yangi mavzuning nomi.

O'quvchilar yashiringan so'zni topishgach, yangi mavzu bilan tanishtirib, rasmlar yordamida mazmunini so'zlab berish. Hikoyani o'qib eshittirish va tahlil qilish. Parta oralatib o'quvchilarga o'qitish. Marvaridgul haqida tushunchalar berish.

III. Savol-javob orqali yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Oydin onasiga sovg'a qilish uchun nima tikdi?
2. Sovg'asiga yana nima qo'shdi?
3. Onasi sovg'alarni ko'rib nima qildi?

IV. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholash va e'lon qilish.

V. Uyga hikoyani o'qib, hikoya asosida rasm chizishni topshirib, darsga yakun yasash.

11- darsning mavzusi: „Haloskor“ (*hikoya*).

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarni jonivorlarga mehrlilik bilan tarbiyalash.

2. Hikoya bilan o'quvchilarni tanishtirish. Bahor elchisi qaldirg'ochlar haqida ma'lumot berish.

3. O'quvchilar bilimini, bog'lanishli og'zaki nutqi, fikrlash va yaxshi o'qish malakasini rivojlantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko'rgazmali.

Darsning jihozi: Mavzuga oid rasmlar, test, boshqotirma.

Darsning borishi:

I. Darsni tashkil etish. Uyga berilgan topshiriqlarni so'rab, rasmlarni ko'rib baholash.

O'tilgan mavzu bo'yicha test o'tkazish.

1. Oydin kimga sovg'a tayyorladi?
 - a) dadasiga;
 - b) oyisiga;
 - c) buvisiga.
2. Oydin o'tgan bayramda onasiga nima sovg'a qilgan edi?
 - a) atirgul;
 - b) chinnigul;
 - c) marvaridgul.


3. Oydin issiqxonada qaysi gulni ko'rib qoldi?

- a) atirgul;
- b) chinnigul;
- c) marvaridgul.

4. Sovg'ani bergach, Oydin onasida qanday o'zgarishni ko'rdi?

- a) onasi yasharib ketganday bo'ldi;
- b) onasi xursand bo'ldi;
- c) kulib qo'ydi.

II. Boshqotirma berish:



Boshqotirma bilan ayiq, ari, lola, danak, chivin, archa, zag'izg'on, olma, chuchmoma rasmlari beriladi. O'quvchilar rasmlarga qarab, ulardagi rasmlarning nomlarini boshqotirmadagi mos kataklarga joylash orqali, unda yashiringan asosiy javob — „Qaldirg'och“ so'zini topadilar. So'ng qaldirg'och haqida suhbat uyushtiriladi va yangi mavzu — „Haloskor“ hikoyasining mazmunini rasmlar asosida o'quvchilarga so'zlab beriladi. Hikoya mazmunini o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qilib, o'qituvchi o'qishni boshlaydi va o'quvchilar davom ettiradi.

III. Yangi mavzu — „Haloskor“ hikoyasini savol-javob orqali mustahkamlash:

- 1. Qushlar qachon uchib keladi?
- 2. Ikki qaldirg'och qayerga bordi?
- 3. Palaponlarga nima bo'ldi?

4. Palaponlarni kim qutqarib qoldi?
5. Bu xonadonda qanday holat hukm suribdi?
6. Qaldirg'ochlar uchib ketishdan avval kimlar bilan xayrlashibdilar?

IV. O'quvchilar bilimlarini baholash va e'lon qilish.

V. Uyga hikoyani o'qib, mazmunini gapirib berishga tayyorlanib kelishni topshirib, darsni yakunlash.

12- darsning mavzusi: Navro'z — bahor bayrami.

Darsning maqsadi. 1. Navro'z bayramining tarixiy ahamiyatini tushuntirish.

2. Navro'z bayrami haqida yangi bilimlar berish. Navro'z taomlari qachon va qanday tayyorlanishi haqida tushunchalar berish.

3. O'quvchilarning bilimlari, ifodali o'qish, fikrlash qobiliyatini, bog'lanishli og'zaki nutqini rivojlantirish.

Darsning turi: noan'anaviy.

Darsning uslubi: suhbat, tushuntirish, ko'rgazmali, bahs.

Darsning jihozlari: Navro'z taomlaridan namunalalar va ularning rasmlari. Bayram tasvirlangan rasmlar, didaktik topshiriqlar, boshqotirma.

Darsning borishi:

I. Darsni tashkil etish. Dars mazmuni bilan o'quvchilarni tanishtirish. Sinf o'quvchilarini 2 guruhga bo'lib, dars shartlari bilan o'quvchilarni tanishtirish va guruhlarga nom qo'yish. Masalan: 1- guruhga: „Gullar“, 2- guruhga „Bulbullar“ deb nom qo'yish mumkin.

II. 1- topshiriq:


1- *guruhga:* „Haloskor“ hikoyasi asosida chizilgan rasmni berib, unga qarab hikoyaning tasvirdagi qismini so'zlashni topshirish.

2- *guruhga:* „Haloskor“ hikoyasidagi xayrlashuv jarayoni tasvirlangan rasmni berib, shu asosda hikoyani so'zlab berishni topshirish.

2- topshiriq: Boshqotirmalar berish.

1- *guruhga:*

Bu boshqotirmada navro'z va milliy taomlar yashiringan:



Boshqotirmaning
javoblari:

- 1) sumalak;
- 2) halim;
- 3) ko'k somsa;
- 4) manti;
- 5) chuchvara;
- 6) yupqa;
- 7) qatlama.

2- guruhga:



Javobi: „Navro‘z — bahor bayrami“, ya‘ni yangi mavzuning nomi kelib chiqadi. Navro‘z haqida suhbat qurish. O‘quvchilarga bayram tarixiga oid rasmlarni namoyish qilib, uning kelib chiqishi, tarixi, ahamiyati haqida ma‘lumotlar berish. O‘quvchilardan hozirgi kunda Navro‘z bayramining nishonlanishi va o‘tkaziladigan tadbirlar bo‘yicha fikrlarini bilish.

„Navro‘z — bahor bayrami“ matnini uch qismga bo‘lib, har bir guruhga bittadan qismini ma‘lum vaqt ichida o‘qishga topshirish va o‘qib bo‘lishgach, har bir guruh o‘quvchilaridan o‘qigan qismlarini gapirib berishni so‘rash.

Guruh o‘quvchilaridan Navro‘zga oid she‘rlar so‘rash va ularni ishtirokiga qarab baholash. Dars so‘ngida guruhlarni baholab, rag‘batlantirish.

13- darsning mavzusi: „Sumalak“ (rivoyat).

Darsning maqsadi: 1. Sumalak taomining tarixi haqida ma‘lumotlar berish.

2. Sumalakning tayyorlanish jarayonini o‘quvchilarga o‘rgatish.

3. O‘quvchilarning hozirjavoblik, guruh bo‘lib ishlash malakalarini rivojlantirish.

Darsning turi: noan‘anaviy.

Darsning ushbi: suhbat, tushuntirish, ko‘rgazmali, bahs.

Darsning jihozlari: sumalak tayyorlash uchun kerak bo‘ladigan masalliq, o‘stirilgan bug‘doy, sumalak tayyorlash jarayoni tasvirlangan rasmlar, topishmoqlar.

Darsning borishi:

I. Darsni tashkil etish va o‘tgan darsdagi kabi o‘quvchilarni 2 guruhga bo‘lish va guruhlarining nomlarini almash-tirish, ya‘ni 1- guruhning nomini 2- guruhga, 2- guruh-nikini 1- guruhga berish.

O‘tgan darsning mavzusi „Navro‘z bahor bayrami“ yuzasidan savol-javoblar asosida suhbat uyushtirish.

1. Navro‘z haqida gapirib bering.

2. Navro‘zda nima qilinadi?

3. Siz Navro‘zni qanday kutib olasiz?

4. Navro‘z taomlaridan nimalarni bilasiz?

5. Bayram kunlari qanday tadbirlar o‘tkaziladi?

Javoblar olinayotganda qaysi guruh faol ishtirok eta-yotganini kuzatib turish.

Har bir guruhga Navro‘z taomlari haqidagi topishmoq yozilgan kartochkani berib, guruhdagi o‘quvchilar masla-hatlashib olishlari uchun vaqt berish va javoblarni eshitish.

1- *guruhga*: Ko'm-ko'k maysa o'sibdi,
Doshqozonga tushibdi,
Qani ayt-chi, bolajon
Qanday taom pishibdi? (*Sumalak*)

2- *guruhga*: Erta bahor chog'idan
Vitaminlar bog'idan,
Xo'p shirin taom pishdi,
Tandirdan lo'p-lo'p tushdi. (*Ko'k somsa*)

O'quvchilardan sumalak va ko'k somsaning tayyorlanishi haqida so'rash va guruhlardagi o'quvchilar ishtirokini kuzatib borish.

O'quvchilarning javoblarini to'ldirib, sumalak tayyorlanishi jarayoni tasvirlangan rasmlar va sumalak uchun kerak bo'ladigan masalliqnlarni ko'rsatib o'quvchilarga tushunchalar berish. Shu o'rinda yangi mavzu — „Sumalak“ rivoyati asosida uning kelib chiqish tarixi haqida suhbat uyushtirish: Bolajonlar, sumalak qayerdan kelib chiqqanini bilasizmi? Bugungi o'qiydigan rivoyatimizda sumalakning qanday paydo bo'lgani haqida bilib olamiz.

Rivoyatni o'quvchilarga parta oralatib o'qitish. Rivoyat yuzasidan savol-javob o'tkazish.

1. Dehqon nima uchun bug'doyni eka olmabdi?
2. Kampir bug'doyni nima qilibdi?
3. Sumalak pishirish qanday qilib urf bo'lgan ekan?

Javoblarni eshitgach, sumalak tayyorlanishi haqida yana ko'p rivoyatlar borligi haqida aytish va ana shunday rivoyatlardan yana birini o'quvchilarni so'zlab berish: „Sumalak — o'ttiz malak“ (*rivoyat*).

Sumalak — bibi Fotimaning taomlari ekan. Bir kuni u kishining bolalari och qolibdi. Ovqat pishirib beray desalar, uylarida qozonga solgudek hech vaqo yo'q ekan. O'shanda qish chiqib, endi ko'klam ko'katlari yer bag'irlab bosh ko'targan vaqt ekan. Bibi Fotima hovlining bir chetiga kuzda bir hovuch don sepgan ekanlar, qarasalar, u ko'karib, maysalab qolgan ekan. Darrov shu maysadan o'rib kelib,

maydalab qozonga solib, supradan qoqishtirib olingan bir siqim unni ham qo'shib, yaxshilab aralashtirib, ustidan suv quyib, qozon tagiga o't qalabdilar. Biroz qozonni kovlab o'tirgandan keyin bolalariga qo'shilib bibi Fotima ham uxlab qolibdilar.

Ertalab uyg'onib qarasalar, qozonni o'ttizta farishta kovlab, taom pishirayotgan emish. Shuning uchun bu taomning nomi sumalak bo'lib qolgan ekan. Chunki sumalak — o'ttiz malak deganidir...

O'quvchilardan sumalak haqida she'rlar so'rab, har bir guruhga qog'oz va rangli qalamlar berib, ma'lum vaqt ichida guruhdagi barcha o'quvchilar sumalak tayyorlanish jarayoni tavsirlangan rasm chizishlarini topshirish va soat yordamida vaqtni belgilash. Vaqt tugagach, rasmlarni yig'ishtirib olish va ularni solishtirib baholash.

Dars so'ngida har ikki guruh o'quvchilarini dars jarayonidagi ishtiroklari, hozirjavobliklari va chizgan rasmlari asosida baholanadi.

Uyga „Sumalak“ matnini o'qib, Navro'z haqidagi rivoyatlardan gapirib berishga tayyorlanib kelish topshirig'i berilib, dars yakunlanadi.

14- darsning mavzusi: „Jayron bolasi“.

Darsning maqsadi: 1. Hikoyaning mazmunini tushuntirish.

2. O'quvchilarga hozirjavoblikni, tabiat, jonivorlarga mehr-shafqatli bo'lishni o'rgatish.

3. O'quvchilar bilimi, ongi, fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish.


Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko'rgazmali.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, boshqotirma.

Darsning borishi:

I. Darsni tashkil etish. Uyga berilgan vazifani so'rab, tekshirib baholash. Tabiat, jonivorlarga oid boshqotirma berish.



O'quvchilar boshqotirmanini yechib bo'lishgach, hayvonlar haqida suhbat uyushtirish. Savol-javob o'tkazish:

1. Yana qanday o'rmon hayvonlarini bilasiz?

2. Nima uchun ularni o'rmon hayvonlari deymiz?

Ularni yana qanday ataymiz?

3. Yana qanday hayvonlarni bilasiz? Ular qanday hayvonlar deyiladi?

II. Suhbatga ulagan holatda yangi mavzu — „Jayron bolasi“ hikoyasini sujetli rasmlar asosida so'zlab berish. O'qituvchi hikoyani o'qishni boshlaydi va o'quvchilar davom ettiradilar.

III. Yangi mavzu mazmuni yuzasidan savol-javob o'tkazish:

1. Hikoya nima haqida ekan?

2. Jayron nega adashib qolibdi?

3. Bolalar uni qanday parvarish qildilar?

4. Agar siz bu bolalarning o'rnida bo'lganingizda nima qilgan bo'lardingiz?

5. Nima uchun biz tabiatdagi hayvonlar, qushlar, o'simliklarni asrab-avaylashimiz kerak?

So'ng kitobda berilgan topishmoqlarni o'qituvchi o'qiydi, o'quvchilar javoblarini topadilar.

IV. Dars davomida faol ishtirok etgan bolalarni baholab, baholarini e'lon qilish.

V. Uyga hikoyani o'qib, so'zlab berishga tayyorlanib kelishni topshirib, darsni yakunlash.

15- darsning mavzulari: „Pahlavon bo'laman“, „Aziz insonlar xotirasi“.

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarga mavzular mazmuni va mohiyatini tushuntirish va singdirish.

2. O'quvchilarni o'z yurtini, o'tgan ajdodlarini hurmat qilishga o'rgatish.

3. To'g'ri, ifodali, ongli o'qish, so'zlash, hozirjavoblik malakalari, dunyoqarash va fikrlash doirasini oshirish.

Darsning turi: noan'anaviy, o'yin.

Darsning uslubi: aralash, ko'rgazmali.

Darsning jihozi: mavzularga oid rasmlar, test savollari, boshqotirmalar.

Darsning borishi:

I. Darsni tashkil etish. Sinf o'quvchilarini 2 guruhga bo'lish va nom qo'yish. Masalan, o'tgan mavzuga bog'lagan holda o'rmon hayvonlarining nomlari bilan nomlash: 1-guruh „Jayronlar“, 2-guruh „Sherlar“.

Darsni musobaqa, o'yin tarzida o'tkazish uchun har bir guruhga alohida topshiriqlar berish:

1 - topshiriq. Har ikkala guruhga o'tgan mavzu va tabiatga oid test savollari berish va bu testlarga guruhlar ma'lum vaqt ichida javob topshirishlari kerak.

1- guruhga:

1. Qo'riqxonada kim ishlar ekan?
 - a) ona;
 - b) ota;
 - c) bola.
2. Ota uyga ... bolasini olib keldi.
 - a) jayron;
 - b) kiyik;
 - c) tulki.
3. Jayron bolasini nima bilan boqishdi?
 - a) non bilan;
 - b) choy bilan;
 - c) sut bilan.
4. Qaysi qatorda faqat o'rmon hayvonlari berilgan?
 - a) tulki, bo'ri, mushuk;
 - b) tulki, bo'ri, sher;
 - c) tulki, bo'ri, qo'y.

2- guruhga:

1. Qo'riqxonalar qorovuli nimani topib oldi?
 - a) kiyik bolasini;
 - b) jayron bolasini;
 - c) bug'u bolasini.
2. Jayronni parvarishlab nima qilishdi?
 - a) yaylovga qo'yib yuborishdi;
 - b) olib qolishdi;
 - c) tashlab ketishdi.
3. Qaysi qatorda faqat yovvoyi hayvonlar berilgan?
 - a) it, mushuk, kiyik;
 - b) it, maymun, kiyik;
 - c) tulki, maymun, kiyik.
4. Qo'riqxonalar nima uchun kerak?
 - a) jonivorlarni himoya qilish uchun;
 - b) jonivorlarni ovlash uchun;
 - c) hayvonlarni ko'paytirish uchun.

2- topshiriq. Har ikki guruh o'quvchilari kitobdagi yangi mavzu — „Polvon bo'laman“ hikoyasini ma'lum vaqt ichida ichlarida o'qiydilar. So'ng har ikki guruhdan 2 tadan o'quvchi hikoyani rollarga bo'lib o'qiydilar. Bunda bola rolidagi o'quvchi ingichka ovozda, kichik bola tilida, polvon boba obrazini o'qiydigan ikkinchi o'quvchi salmoqli ohangda o'qishlari kerak.

Har ikki guruh vakillari hikoyani rollarga bo'lib o'qib bo'lishgach, ularning o'qishlarini o'qituvchi o'quvchilar bilan birga tahlil qilib, ball qo'yadi. Bu ballar butun guruhga tegishli bo'ladi.

Shundan so'ng, O'zbekiston poytaxti Toshkent shahri haqida suhbat quriladi. Toshkentning bog', xiyobonlari tasvirlangan rasmlarni ko'rsatib, butun sinf o'quvchilari bilan savol-javob o'tkaziladi. Suhbatga bog'lagan holda yangi mavzu — „Aziz insonlar xotirasi“ matnining mazmuni asosida va matndan tashqari o'tgan ajdodlarimiz haqida

qisqacha ma'lumot berib o'tish va matnni kitobdan o'quvchilarga parta oralatib o'qitish. So'ng 1- guruhdagi o'quvchilar 2- guruhdagilarga, va aksincha, 2-guruhdagi o'quvchilar 1- guruhdagilarga matn yuzasidan navbatma-navbat savollar berishadi va javoblar olishadi. Agar raqib guruhdagi o'quvchilar javobdan qoniqishmasa, shu guruhdagi o'quvchi javobni to'ldirishi mumkin.

II. Dars so'ngida har ikki guruh o'quvchilarini butun dars davomidagi ishtiroklari va hozirjavobliklaridan kelib chiqib, o'rin berish va rag'batlantirish, faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholash.

III. Uyga ta'til vaqtida o'qish uchun kitobdagi „Polvon bo'laman“, „Aziz insonlar xotirasi“ matnlari, „Ob-havo darakchilari“, topishmoqlar, maqollarni o'qib kelishni topshirib, bu chorakdagi so'nggi darsni yakunlash.



VIII BO'LIM

Qushlar va hayvonlar — bizning do'stimiz

1- darsning mavzusi: „Qushlar — bizning do'stimiz“.

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarga qushlar, ularning hayot tarzi, turlari haqida ma'lumotlar berish.

2. Qanotli do'stlarimizni qadrlashga, ularga ozor yetkazmaslikka o'rgatish.

3. O'quvchilarning tabiat haqidagi bilimlarini, to'g'ri, ongli, mustaqil o'qish, fikrlash malakalarini oshirish.

Darsning turi: noan'anaviy, yangi bilim beruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko'rgazmali.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, klaster topshiriqlar, tirik qushlar, tarqatma didaktik materiallar.

Darsning borishi:

I. Darsni tashkil etish. Uyga berilgan topshiriqlarni so'rab, tekshirish. Savol-javob orqali mustahkamlash:


1. Bolaga bobosi nimalar haqida gapiribdi?


2. Polvon bo'lish uchun nimalar qilish kerak ekan?

3. Siz qanday sport turiga qiziqasiz?

4. Kelajakda „O'zbekiston iftixorlari“ kitobida siz haqingizda yozishlarini istaysizmi?

Klaster topshiriqlari orqali „Aziz insonlar xotirasi“ mavzusini mustahkamlash.





(Bu topshiriqlarda o'quvchilar javoblarini atrofdagi bo'sh katakchalarga yozadilar.)

Bu topshiriqlar har bir o'quvchiga alohida tarqatilib, ma'lum vaqtdan so'ng javoblar yig'ib olinadi va rasmlar asosida qisqacha suhbat uyushtirib, bu mavzuga yakun yasaladi.

II. Yangi bo'lim bilan tanishtirishdan avval, o'quvchilarni kitobda berilgan ob-havo darakchilari bilan tanishtiriladi. So'ng parta oralatib o'quvchilarga o'qitiladi va berilgan topishmoqlarning javobini so'rab, maqollar mazmuni yoritiladi. So'ng yangi bo'lim va mavzu bilan o'quvchilarni tanishtiriladi. „Qushlar — bizning do'stimiz“ matni mazmunini so'lab beriladi va doskaga qushlar tasvirlangan plakat osib, o'quvchilardan rasmdagi qushlarning nomlarini va ular qayerda yashashlari, nima bilan oziqlanishlari haqida so'raladi. O'quvchilarning javoblari to'ldiriladi.

III. O'quvchilarning yangi mavzu bo'yicha olgan bilimlarini savol-javob orqali mustahkamlash:

1. Nima uchun qushlarni qanotli do'stlarimiz deb aytamiz?

2. Siz qushlarga qanday g'amxo'rlik qilasiz?

IV. Dars davomida faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholash va baholarini e'lon qilish.

V. Uyga „Qushlar — bizning do'stimiz“ va „Ob-havo darakchilari“ni o'qib kelishni topshirib, darsga yakun yasash.

2- darsning mavzusi: „Qanotli do'stlar“ hikoyasi.

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarga hikoya mazmunini tushuntirish.

2. Hikoya orqali qushlarni qadrlash, sevishtirish va parvarishlashga o'rgatish.

3. O'quvchilarni to'g'ri, ravon, ongli o'qish malakasini, xotirasi va qushlar haqidagi bilimlarini rivojlantirish.


Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko'rgazmali.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, klaster topshiriqlar.

Darsning borishi:

I. Darsni tashkil etish. Uyga berilgan topshiriqlarni so'rab, tekshirib, baholash. Klaster topshiriq orqali o'tilgan mavzuni mustahkamlash:



Bu topshiriq plakatga ishlangan bo'lib, doskaga osib qo'yiladi. O'quvchilar doskaga chiqib qushlarning nomlarini bittadan bo'sh katakchalarga yozadilar. Har bir o'quvchi o'zi yozgan qush haqida qisqacha ma'lumot berib, so'ng joyiga o'tiradi. Masalan: *qarg'a*. Uning qachon uchib kelishi, qayerlarda yashashi, rangi va nimalar bilan oziqlanishini aytishlari kerak.

II. Yangi mavzuni suhbatga ulagan holda o'quvchilarga tanishtirish. Sujetli rasmlar yordamida hikoya mazmunini so'zlab berish va kitobdan o'qishni boshlab, davomini parta oralatib o'quvchilarga o'qitish. Tushunarsiz so'z va jum-lalarning mazmunini yoritish. Hikoya haqidagi o'quvchilar fikrini bilgach, kerak bo'lsa, ularni to'ldirish. Hikoyaning ta'limiy, tarbiyaviy tomonlarini yoritib, xulosa yasash.

III. Yangi mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar berish orqali uning mazmunini mustahkamlash:

1. Nima uchun „Qushlar — bizning do'stimiz“ deymiz?

2. O'zingiz kuzatgan shunga o'xshash voqealar asosida hikoya mazmunini gapirib bering.

Savollarga javob olingach, kitobdagi tez aytishni o'qitish.

IV. Dars davomida faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholab, baholarini e'lon qilish.

V. Uyga hikoyani o'qib, tez aytishni yodlab kelishni topshirib, darsni yakunlash.

3- darsning mavzusi: „Zarg'aldoq“ matni va I. Muslim-ning „Turnalar“ she'ri.

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarga matn va she'r orqali zarg'aldoq va turnalar haqida ma'lumotlar berish.

2. O'quvchilarga qushlarga in yasashni va ularga ozor bermay, aksincha, yaxshi munosabatda bo'lishni o'rgatish.

3. O'quvchilarning qushlar haqidagi bilimlarini, to'g'ri o'qish, yod olish malakalarini rivojlantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko'rgazmali.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, magnitofon, test.

Darsning borishi:

I. Darsni tashkil etish. Uyga berilgan topshiriqlarni soʻrab, baholash. Oʻtilgan mavzular yuzasidan oʻquvchilarga tarqatma test savollarini berib, belgilangan vaqt oʻtishi bilan test javoblarini yigʻib olish.

Test namunalari:

1. Qaysi qatorda oʻlkamizga qishda uchib keladigan qush berilgan?

- a) chumchuq;
- b) qargʻa;
- c) bulbul.

2. Qaysi qatorda bahor elchisi boʻlgan qush berilgan?

- a) qaldirgʻoch;
- b) bulbul;
- c) chumchuq.

3. Zargʻaldoq bolalarini ilondan nimalar qutqardi?

- a) pashshalar;
- b) qovogʻarilar;
- c) asalarilar.

4. Qaysi gul yumilsa havo ayniydi?

- a) atirgul;
- b) qoqigul;
- c) chinnigul.

5. Qanday yogʻgan yomgʻir tez toʻxtaydi?

- a) shiddat bilan;
- b) shivalab;
- c) pufakchalar hosil qilib.

6. Qolgan ishga ...

- a) doʻl yogʻar.
- b) yomgʻir yogʻar.
- c) qor yogʻar.

Testlarni 2 variant uchun oʻrin almashtirgan holda beriladi.

II. Yangi mavzu — „Zarg‘aldoq“. Zarg‘aldoq tasvir-
langan sujetli rasmlardan foydalanib, bu qushning foydasi,
hayoti, xatti-harakatlari haqida ma‘lumotlar berish. So‘ng
kitobdan „Zarg‘aldoq“ matnini o‘qib, qiyin so‘zlar ustida
ishlash.

Parta oralatib o‘quvchilarga matnni o‘qitib, bu qush
haqidagi fikr va taassurotlarini so‘rab bilish. Doskaga yana
bir qancha qushlarning rasmlarini ilib, ular haqida ham
qisqacha ma‘lumotlar berib, turnalarga ko‘proq to‘xtalish
va keyingi mavzu — Ilyos Muslimning „Turnalar“ she‘rini
magnitofon orqali eshittirish. (Bu she‘rni turnalar tovushi
yozilgan tasmaga o‘qituvchi tomonidan ifodali, obrazli qilib
o‘qilgan holda yozib olinsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.)

III. O‘quvchilar bilan she‘r mazmunini tahlil qilish
va o‘tilgan mavzularni mustahkamlash maqsadida savol-
javob o‘tkazish:

1. Shoir turnalarga nimalar dedi?
2. Turnalar yilning qaysi faslida uchib keladi?
3. Turna bilan zarg‘aldoqni solishtiring va farqlarini
ayting (rasmlar asosida).
4. Zarg‘aldoq qanday qush ekan?
5. U qanday ovoz chiqarar ekan? Turnalar-chi?
6. Turnalar va zarg‘aldoqlarning bizga qanday foydasi
bor ekan?

IV. Darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilarni baholab,
baholarini e‘lon qilish.

V. Uyga „Zarg‘aldoq“ matnini o‘qib, „Turnalar“
she‘rini yod olishni topshirib, darsga yakun yasash.

4- darsning mavzusi: „Kuchukcha bilan uloqcha“ (ertak).

Darsning maqsadi: 1. Ertakda ifodalangan g‘oyani ochib
berish.

2. O‘quvchilarga do‘stning katta-kichigi bo‘lmasligini,
do‘stlikning xosiyatini tushuntirish.

3. O‘quvchilarning bilimi, o‘qish, idrok etish mala-
kalarini rivojlantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko'rgazmali.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, boshqotirma.

Darsning borishi:

I. Darsni tashkil etish. Uyga berilgan topshiriqlarni so'rab baholash. O'tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o'tkazish:

1. Zarg'aldoq qanday qush ekan? Turna-chi?
2. U qayerlarda yashar ekan? Turna-chi?
3. Zarg'aldoq o'z uyini qayerga quradi? Turna-chi?
4. Zarg'aldoq insonlarga qanday foyda keltiradi? Turna-chi?

II. O'quvchilarga boshqotirma berib, kalit so'zini topishlarini aytish (o'qituvchining o'zi tuzadi).

„Kuchukcha bilan uloqcha“ ertagini sujetli rasmlar asosida so'zlab berish va xulosa chiqarish.

Hikoyani obrazli qilib o'qib eshittirish. O'quvchilarga rollarga bo'lib o'qitish, kitobda berilgan topishmoqlarning javoblarini aniqlash.

III. O'tilgan mavzuni savol-javob orqali mustahkamlash:

1. Kuchukcha bilan uloqcha qayerda uchrashib qolishdi?
2. Ular nimalar haqida suhbatlashdilar?
3. Do'stlik qanday odat ekan?
4. Insonga do'st bo'lgan yana qanday hayvonlarni bilasiz?

IV. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholab, baholarini e'lon qilish.

V. Uyga S. Ochilning „Yomg'ir“ she'rini mustaqil ravishda o'qib, berilgan tez aytishlarni yodlashni topshirib, darsni yakunlash.

**QUMRI ABDULLAYEVA,
SETORA RAHMONBEKOVA**

**2- SINFDA O'QISH
DARSLARI**

**O'qituvchilar uchun metodik
qo'llanma**

Toshkent „O'qituvchi“ 2004

Tahririyat mudiri *Safo Ochil*
Muharrirlar *S. Xo'jahmedov, G. Nasriddinova*
Badiiy muharrir *Sh. Xo'jayev*
Tex. muharrir *S. Tursunova*
Musahhih *M. Ibragimova*
Kompyuterda sahifalovchi *S. Musajonova*

IB № 8428

2004- yil 24- avgustda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.
Bichimi 84x108 $\frac{1}{32}$. Kegli 11 shponli. Tayms garniturası. Ofset
bosma usulida bosildi. Bosma t. 8,0. Nashr t. 8,0. 10 000 nusxada
bosildi. Buyurtma № 45.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining „O'qituvchi“
nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 7000129. Toshkent.

Navoiy ko'chasi, 30 // Toshkent, Yunusobod dahasi,
Murodov ko'chasi, 1- uy. 2004. Shartnoma № 12—26—04.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining OAJ «Yangiyul
poligraph service». Yangiyo'l sh., Samarqand ko'chasi, 44. 2004.

Maktab kutubxona jamg'armasiga kiritilgan.